

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI



“TARJIMA
NAZARYASI
VA AMALIYOTI
“ YO'NALISHI

O'QUV-
USLUBIY
MAJMUA

TARJIMA DIDAKTIKASI

2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

TARJIMA DIDAKTIKASI

**moduli bo'yicha
“TARJIMA NAZARYASI VA AMALIYOTI” yo'nalishi**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

Yo’ldoshev U. - O‘zDJTU,

p.f.d., dotsent

Taqrizchi:

Samigova X.B. – O‘zDJTU

“Ingliz tili tarjima nazariyasi”

kafedrasi v.b. professori, f.f.d.

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti kengashining qarori bilan
nashrga tavsiya qilingan
(2025-yil 28-fevraldagidagi 4-sonli bayonnomaga)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	5
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	12
III.	Nazariy materiallar	19
IV.	Amaliy mashg'ulotlar materiallari	50
V	Glossariy	92
VI.	Keyslar banki	97
VII.	Adabiyotlar ro'yhati	105

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789сон, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son va 2021-yil 26-martdagagi “Ma’naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarorlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentyabrdagi “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-son va 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarorilarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’naviy-ma'rifiy muhit barqarorligini ta'minlash, tinglovchilarning davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligini va daxldorlik tuyg‘ularini oshirish, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Tarjima didaktikasi” modulining maqsadi:

pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilariga tarjimani didaktikasi, tarjimani o’qitishning zamonaviy yondashuvlari, tarjimonning umumiyligi va kasbiy kompetensiyalarining takomillashtirish bilimlarini takomillashtirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- “Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- tarjima didaktikasi bo'yicha fundamental ma'lumotlarni berish, jahon olimlarninig ushbu sohasga oid yondashuvlarini o'rganib chiqish;
- tarjima tayyorlashning mahalliy va xalqaro standartlari borasida axborot berish;
- tarjima o'qitish bo'yicha interfaol metodlar va mashqlar tizimi xaqida ma'lumot berish;
- tarjimonning kasbiy va umumiylar kompetensiyalarining tasnifini o'rganib chiqish;
- tarjimada uslub, janr va kontekstning o'zaro bog'liqligi, shu bilan birga turli matnlar tarjimasida umumiylar va juz'iy muammolarni farqlash va tahlil qilish;
- talabalarning tarjima ishlarini baholash meyorlari va tarjimon etikasi borasida keng axborot berish.

Kurs yakunida tinglovchilarining bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

"Tarjima didaktikasi" moduli bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi: Tinglovchi:

- tarjimaga o'qitish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni bilishi;
- tarjimon tayyorlash bo'yicha mahalliy va xalqaro standartlarni tahlil qilishni;
- tarjimonning umumiylar va kasbiy kompetensiyalarini farqlashni;
- tarjimani o'qitishda qo'llanadigan interfaol metodlar va mashqlarni bilishi kerak.

Tinglovchi:

- tarjimon tayyorlash bo'yicha zamonaviy va metodlarni talabalarga tarjimani o'qitish jarayonida intensiv qo'llash;
- xalqaro va mahalliy standartlarni tizimli tahlil qilgan holda tarjimonlarning kasbiy va umumiylar kompetensiyalarini takomillashtirish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- tarjima didaktikasi bo'yicha olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quv va kasbiy faoliyat jarayonida qo'llash;

- tarjima o'qitishda qo'llanadigan interfaol metodlar va mashqlar tizimidan tarjima darslari jarayonida samarali qo'llash **malakalarini egallashi** lozim.

Tinglovchi:

- tarjima didaktikasi modulining samarali o'qitish metod va usullarini o'rganish;
- Tarjimani oq'itish bo'yiciha zamonaviy yondashuvlar borasida axborotga ega bo'lish va tarjima darslarini shu asosida tashkillashtirish;
- bo'lajak tarjimonlarda tarjimonning kasbiy va umumi kompetensiyalarini takomillshtirish;
- dars jarayonida interfaol metodlar va mashqlar tizimidan samarali foydalanish;
- og'zaki va yozma tarjima uslublarini egallash;
- chet tilidan ona tiliga va aksincha ona tilidan chet tiliga erkin tarjima qilish bo'yicha yangich pedagogic texnologiyalaradan foydalanish.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi bo'yicha tasavvur, ko'nikma kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik masalalari", "Tarjimada axborot kommunikatsiya texnologiyalari", "Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Tarjima didaktikasi" moduli mazmuni o'quv rejadagi mutaxassislik o'quv modullarining barcha soxalari bilan uzviy bog'langan holda professor-o'kituvchilarning umumi kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Xammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi		Mustaqil ta’lim
			Jami	жумладан	
1.	Tarjimon tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari	2		2	
2	Tarjimon tayyorlash bo'yicha milliy va standart va talablar	2		2	
3.	Tarjimon tayyorlash bo'yicha xalqaro va standart va talablar	2		2	
4	Tarjimonning umumi kompetensiyalari	2		2	
5	Tarjimonning kasbiy kompetensiyalari	2			2
6	Tarjima ishini baholash mezonlari	2			2
7	Tarjimani o'qitishda interfaol metodlarning qo'llanishi	2			2
8	Tarjimani o'qitishda mashqlar tizimi. Tarjimon etikasining ahamiyati	2			2
Jami: 18 soat		16		8	8

Tarjima didaktikasi fanining mohiyati. Tarjima didkatikasi tarjimani o'qitish nazariyasi va amaliyotiga oid fundamental ma'lumotlarni berish, jahon olimlarning ushbu sohasga oid ilmiy izlanishlari bilan tanishtirish.

NAZARIY TA'LIM SOATLARI MAZMUNI

1-mavzu: Tarjimon tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari

Talabalarga tarjimani o'qitishni maqsadi, predmeti va obyekti. Tarjimani o''qitish usullari. Tarjimaga o'qitishning zamonaviy yondashuvlari. Tarjimani o'qitishda

o'qituvchilarga tavsiyalar. Tarjimani o'qitish uchun kafedra va markazga tavsiyalar. Tarjimani o'r ganuvchilar uchun tavsiyalar.

2-mavzu: Tarjimon tayyorlash bo'yicha milliy va standart va talablar.

Tarjimon kasbiy faoliyat turning asosiy maqsadi. Tarjimonning kasbiy standartga kiritilgan kasbiy faoliyat kategoriyalari. Og'zaki hamroxlik tarjimasi. Rasmiy xujjalarning yozma tarjimasi. Tarjima loihalari materiallariga texnologik ishlov berish. Tarjima va mahalliyashtirish loyihamini avtomatlashdirish. Tarjimaning tahririylar va texnik nazorati.

3-mavzu: Tarjimon tayyorlash bo'yicha xalqaro va standart va talablar.

Tarjimonning kasbiy burch va vazifalari. Tarjimonning kasbiy faoliyatlar. Tarjimonning kasbiy mahorati. Tarjimonning kasbiy malakalari. Tarjimonning kasbiy bilim va ko'nikmalari. Uch tilli tarjimonlar. Jamoaviy tarjimonlar.

4-mavzu: Tarjimonning umumiy kompetensiyalari.

Tarjimonning lingvistik kompetensiyasi. Tarjimonning pragmatik kompetensiyasi. Tarjimonning sotsiolingvistik kompetensiyasi. Tarjimonning diskursiv kompetensiyasi. Tarjimonning strategik kompetensiyasi. Tarjimonning texnologik kompetensiyasi. Tarjimonning sosial (ijtimoiy) kompetensiyasi. Tarjimonning predmet bo'yicha kompetensiyasi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Tarjimonning kasbiy kompetensiyalari

Til va madaniyat kompetensiyasi. Tarjima kompetensiyasi. Texnologik kompetensiya. Shaxsiy va shaxslararo kompetensiya. Xizmat ko'rsatish kompetensiyasi

2-mavzu: Tarjima ishini baholash mezonlari

Tarjimani baholashning lingvistik meyorlari. Tarjimani baholashning pragmatik meyorlari. Tarjimani baholashning strategik meyorlari. Tarjimani uslub va tarkibiy qismlarini baholash meyorlari. Tarjimani vaziyatga moslik jihatini baholash meyorlari. Tarjimani tarjima ko'nikmasi meyoriga ko'ra baholash.

3-mavzu: Tarjimani o'qitishda interfaol metodlarning qo'llanishi.

“Tarjima amallari integratsiyasi” metodikasini qo’llash bosqichlari. Asliyat matnining uslub jihatidan turiga ko‘ra tanlangan tarjima uslublari. Badiiy tarjimaning morfologik muammolarini bartaraf etish metodikasi. Badiiy tarjimaning sintaktik muammolarini bartaraf etish metodikasi. Badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish metodikasi. Badiiy tarjimaning stilistik muammolarini bartaraf etish metodikasi.

4-mavzu: Tarjimani o’qitishda mashqlar tizimi. Tarjimon etikasining ahamiyati

Tarjimani o‘qitishning amaliy yo‘nalishiga ko‘ra mashqlar. Deverbalizatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar. Transformatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar. Kommutatsiya ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun mashqlar. Tarjimadan oldingi tahlil uchun mashqlar. Tarjimonning kasbiy- axloqiy me’yorlari. Tarjimonning etika qoidalari. Tarjimonning vaziyat bilan bog‘liq xatti-harakatlari uchun qoidalar. Tarjimon etikasi bo‘yicha tarjima uyushmalari. Tarjima etikasi bo‘yicha tarjima byurolari (agentliklari, bo‘limlar).

O‘QITISH SHAKLLARI


Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- noan’anaviy o‘qitish (interaktiv, konferensiya, debat);
- davra suhbatlari (muhokama etilayotgan muammo va uning yechimi bo‘yicha mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli raqamlar taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI **“Semantik xarita” metodi**

Semantik xarita interfaol metodi darsning amaliy qismining boshlanishida, ya’ni asliyat matni tinglovchilarga taqdim etilgandan keyin qo’llanishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol metod orqali tinglovchilar uchun notanish bo’lgan ayrim so’zlarning tarjimasi, ularning ma’nolari yuzasidan ma’lumotga ega bo’la oladi. O’qituvchi tinglovchilarning badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish yuzasidan tarjima qilish uchun taqdim etilgan matndagi biror so’z va uning semantik xaritasini tuzishni topshiriq qilib beradi.



Mazkur interfaol metod talabalarining lingvistik, kasbiy, kommunikativ kompetentsiyalari hamda mustaqil fiklash ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

“SWOT-tahvil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo’llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)

- kuchli tomonlari

W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to'siqlar

Namuna: Badiiy matnlar tarjimasida lingvistik tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Badiiy matn tarjimasi bo'yicha lingvistik tahlilning kuchli tomonlari.	Asliyat va tarjima matnlarining til sathlari bo'yicha faqrli va o'xshash jihatlari bo'yicha har tomonlama xolisa chiqarishi.
W	Badiiy matn tarjimasi bo'yicha lingvistik tahlilning kuchli tomonlari.	Asliyat va tarjima matnlarining nolisoniy xususiyatlari tahlilini tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi.
O	Badiiy matn tarjimasi bo'yicha lingvistik tahliln (ichki) imkoniyatlari.	Asliyat va tarjima matnining barcha til sathlari jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi.
T	To'siqlar (tashqi).	Asliyat va tarjima tillarida o'zaro bir-biriga lakuna xisoblanadigan lisoniy birliklar bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) Metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatlari rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruuhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarini 5-6 kishidan iborat kichik guruuhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruuhga umumiy muammoni tahlil qilinishi;



har bir guruuh o‘ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruuhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi.

Linvistik tahlil tizimlari

Fonetik tahlil	Sintaktik tahlil	Leksik-semantik tahlil
----------------	------------------	------------------------

afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchili gi
Xulosa:					

“Ikkita to’g’ri va bitta xato” metodi

“Ikkita to’g’ri va bitta xato” interfaol metodi asliyat matnining bir necha xil tarjima variantlarini solishtirib tahlil qilish orqali tarjimani o’rgatishga bag’ishlanadi. Bunda tinglovchilarga asliyat matni va 3 ta tarjima variantlari taqdim etiladi. Tinglovchilar o’zlarining daftarlariga 4 ta katak bo’sh joy chizadi.

Ulardan birinchesiga asliyat matnidagi bitta gap yoziladi. Ikkinci bo’sh katakka tarjima variantning noto’g’risi yoziladi. Uchinchi va to’rtinchi bo’sh kataklarga to’g’ri tarjima variantlari yoziladi. Bu topshiriqlarni har bir tinglovchi o’zining yondashuvi va munosabati asosida bajaradi va navbatma-navbat nima uchun to’g’ri va noto’g’ri variantlar yozilganligini asoslab beradilar.

Asliyat matni	<i>Bulardan bittasi ichidan atlas ko’ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan</i>	Asliyat matni
Tarjima matni 1	<i>One of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face</i>	To’g’ri variant
Tarjima matni 2	<i>One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe.</i>	To’g’ri variant
Tarjima matni 3	<i>One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress</i>	Noto’g’ri variant

“Keys-studi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy

vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> – yakka tartibdagi audiovizual harakat; – keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); – axborotni umumlashtirish; – axborot tahlili; – muammolarni aniqlash.
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash.	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; – asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish.	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; – har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; – muqobil yechimlarni tanlash.
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> – yakka va guruhda ishlash; – muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; – ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; – yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.

Keys. Badiiy (she’riy) matn tarjimasini tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

• F	- fikringizni bayon eting
• S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
• M	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
• U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna: Fikr: “Tarjima uslublari asliyat matnning uslub jihatidan turiga qarab tanlanadi va ular tarjimonga o‘z yondashuvini belgilab olishga yordam beradi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

II. NAZARIY MATERIALLAR

NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU

TARJIMON TAYYORLASHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

REJA:

1. Tarjimani o'qitish obyekti, predmeti, maqsadi
2. Tarjimani o'qitishning yondashuvlari
3. Tarjimani o'qitishda mashlar va ularning turlari
4. Tarjimani o'qitish usul va texnikalari

Tarjimaning bugungi dunyodagi global aloqada va madaniy almashinuvdagagi ahamiyati tufayli oliy ta'lif muassasalarida ingliz tili xorijiy til yoki ingliz tili ikkinchi til sifatida darslarni o'qitishda talabalarga tarjimani o'rgatish katta qiziqish uyg'otmoqda. K.Latishev va A.Semyenovning fikricha, tarjima asosan ikkita maqsad uchun o'qitiladi. Birinchisi, tarjimani o'z-o'zidan maqsad sifatida o'qitish mumkin, bu esa xorijiy tildan o'z ona tiliga tarjima qilishga qaratilgan bo'lib, mutaxassislar bu orqali o'z ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Ba'zi bir talabalar tarjima strategiyalari va qonuniyatlarini tez o'zlashtirib olishi mumkin va bunda dars jarayonida taqdim etilgan materiallar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ikkinchisi, tarjimani o'z kasbiy maqsadga erishish vositasi sifatida o'rgatish, bunda talaba tarjimaga professional yondashadi¹. Shu sababli dars mashg'ulotlarida til bilan birlilikda tarjima qonuniyatlariga ham e'tibor qaratiladi. Bu o'quvchilarga tarjima tili haqida bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, chet tiliga tarjima qilish tilni o'rganish vositasi sifatida foydali bo'lishi mumkin.

Ayni paytda ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish bu jihatdan tarjima usullarini o'rganish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda manba tilining ma'nosini tarjima tiliga moslashtirish bosh maqsad qilib belgilanadi. Tarjima qilishda talabalar nafaqat asliyat va tarjima tillarining grammatikasi, sintaksisini va leksikasini o'rganadilar, balki tinglash, o'qish, tushunish, talqin qilish va tahrirlash kabi ko'plab boshqa ko'nikmalarni egallaydilar.

A.Lefeverening ta'kidicha, "tarjima - bu qayta yozish". Bunda talabalar asl nusxani o'qydi, tahlil qiladi, tarjima tiliga o'tkazadi va matnni qayta tuzadi. Shu tarzda yakuniy matn hosil bo'ladi. U o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, tarjima tilining qoidalari bilan qayta

¹ Latyshev, L. K., & Semenov, A. L. Translation: Theory and Methods of Teaching. Moscow: Academy. 2003.

yaratiladi². Tarjimaning bu ta’rifi bevosita mazkur faoliyatning subyektiv va kognitiv jihatlariga ishora qiladi.

H.Gazalaning fikricha, tarjima kursining obyekti tarjima dasturining maqsadlari, talabalarining darajasi va ehtiyojlari, o‘quv natijalari, tarjima muammolari, tarjima bo‘yicha ta’lim metodologiyasi va o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan tarjima amallariga qarab boshqa fanlar obyektidan farq qiladi³. Biz ham olimning fikricha qo‘shilgan holda oliy ta’lim muassasasi talabalariga tarjimani o‘qitishning obyekti sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz:

- umumiy va maxsus terminlarda tarjimaning predmeti soha, fan, jarayon, amaliyot va san’at;
- tarjimaning insoniyat faoliyatidagi o‘rni, madaniyat va bilimlarning almashtirish va yetkazishdagi ahamiyati;
- asliyat ma’nosini tarjima matniga olib o‘tish uchun tarjima nazariyasi, uning yondashuvlari va turli uslublarining qachon, qanday, nima uchun qo‘llanilishi;
- asosiy mezonlar va tegishli masalalar: asliyatga sodiqlik, aniqlik, ekvivalentlik va shu kabi tarjima strategiyalari;
- matn turlari va tarjima ko‘rinishlari: badiiy, texnik, huquqiy, moliyaviy va boshqa soha matnlari tarjimasi;
- tarjima muammolarining asosiy turlari: lisoniy (fonetik, sintaktik, leksik, stilistik) hamda nolisoniy (madaniy, kontekstual, pragmatik, kognitiv) muammolar va ularning yechimlari;
- asosiy tarjima uslublari: so‘zma-so‘z, gapma-gap, semantik, idiomatik, kommunikativ va boshqalar.

Demak, yozma tarjimaga o‘rgatish yuqorida takidlab o‘tilgan jihatlarga e’tibor qaratgan holda tashkil etiladi. Bugungi kunda yozma tarjimani o‘qitishning bir qancha zamonaviy yondashuvlari mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda tarjima o‘qituvchilarini talabalarining kasbiy ehtiyojlariga sezgir munosabatda bo‘lishlari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tarjima darsining maqsadi va vazifalarini belgilab, o‘quvchilarning motivatsiyasini yuqori darajada ushlab turish, barcha talabalarining o‘zlariga tegishli kasb tanlashda foydali bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini ta’minlash o‘qituvchilarning vazifasi hisoblanadi.

² Lefevere, A. Translation, Rewriting, and the Manipulation of Literary Fame. London. New York. Routledge. 1992.

³ Ghazala, H. Essays in Translation and Stylistics. Dar El- Ilm Lilmalayin, Beirut. 2004.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun tarjima darslarida amaliy usullardan foydalanish mumkin. Masalan, talabalardan real voqelik aks etgan matnlarni tarjima qilish so‘raladi. Bu ularning motivatsiyasini, qiziqishlarini oshiradi va tarjima darsidan zavq olishlari bilan ularni turli xil tarjima maqsadlariga undab, dars mazmunini oshiradi, real dunyo haqidagi tajribalarini boyitadi. Natijada talabalar har qanday muammolar aks etgan matnni tarjima qilishga kirishadi va o‘zлari ularga yechim topishga urinadi.

Aralash usul yondashuvi yozma tarjimani o‘rgatishning yana bir usuli hisoblanadi. S.Kolinaning ta’kidicha tarjimani o‘qitishda bir nechta yondashuv mavjud. Hozirda tarjima pedagogikasini takomillashtirish uchun talabaning yutuqlari va faoliyatiga e’tibor berish orqali qimmatli ta’lim va tarjimani baholash yoki yakuniy mahsulotni baholash usullari qo‘llanilmoqda⁴. Bu auditoriyani guruhlarga bo‘lish, har xil turdagи matnlarni tarjima qilishni so‘rash va yakuniy mahsulotni bir-birlari tomonidan baholash orqali amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, talabalar muhokama qilish, o‘zlarining tarjimalarini himoya qilish, qarorlar haqida o‘ylash va bir-birlariga tavsiyachi va tanqidchilar sifatida munosabatda bo‘lish uchun jamoa bo‘lib ishlashga da’vat etiladi. O‘qituvchi bu yerda nazoratchi va murabbiy vazifasini bajaradi. Har bir guruhning turli yo‘nalishdagi ishlarini tekshiradi, tahlil qiladi va munosabat bildiradi.

D.Sherbalovaning kuzatuvlariga ko‘ra, “o‘quv metodlarini doimiy o‘zgarishi talabalarning tajribasini boyitishi va ularning ongini rag‘batlantirishi hamda ularga kelajakdagi kasbiy o‘sishlarida yaxshi xizmat qiladigan turli ko‘nikmalarni takomillashtirishi mumkin”⁵. Har qanday yangi uslub tarjimaga o‘qitishni yanada samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi va bo‘lajak tarjimonlarning o‘z kasbi yuzasidan tegishli kompetensiyalarini egallashida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarjimani o‘qitishda kommunikativ yondashuv o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, u professional tarjimonlarni tayyorlashda bo‘lajak tarjimonlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga yordam beradi. Masalan, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar tarjima mahoratini o‘rganish va tarjima qilish tajribasini o‘rganish uchun yaxshi usuldir. An’anaviy tarjima mashg‘ulotlarda zerikmaslik uchun talabalardan mavzuga tegishli bo‘lmagan manbalardan tarjima qilish so‘raladi. Bundan tashqari, ular tarjimon sifatida intervyu berish,

⁴ Colina, S. Translation Teaching: from Research to the Classroom. New York: McGraw Hill. 2003

⁵ Shejbalová, D. Methods and Approaches in Vocabulary Teaching and Their Influence on Students’ Acquisition. Masaryk University-Faculty of Education- English Language & Literature Dept. 2006

suhbatlashish va turli xil jamiyat institutlarida yig‘ilish va konferensiyalarda qatnashish kabi ba’zi vazifalarni ham bajarishadi. Chunki talabalar ijtimoiy munosabatlar orqali har xil ijtimoiy guruhlar bilan muloqot qilish orqali “real dunyoda” ishlashga imkon beradigan eng yaxshi bilimni o‘zlashtirishadi. Bu talabalarga “haqiqiy dunyo amaliyoti”ni egallashga, tarjimon sifatida o‘z vazifalarini rivojlantirishga va tarjima jarayonining kommunikativ ahamiyatini oshirishga yordam beradi.

Quyida tarjimani o‘qitishda barcha darajalarda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ba’zi tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

- tarjima yo‘nalishidagi talabalarga tarjimashunoslik, tarix, madaniyatshunoslik, mamlakatshunoslik va boshqa sohalarning asosiy tushunchalari va terminologiyalari bo‘yicha kerakli nazariy bilimlarni berish;
- talabalarni tarjimaning akademik intizomi, tendensiyalari, yo‘nalishlari, turlari, tarjimaning muammolari va eng zamonaviy usul va strategiyalari bilan tanishtirish;
- dars jarayonida turli xil tarjima modellari va matn turlarini qo‘llash;
- tarjima nazariyalarini o‘rganib chiqqandan so‘ng, tarjima o‘qitishda tarjimonlik yondashuvini qabul qilish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish va tarjimani yanada puxta va tizimli o‘qitishni tashkil qilish;
- guruh bilan ishlash ruhini va sinfdan tashqari ishlarni rag‘batlantirish;
- auditoriyada va auditoriyadan tashqari amaliy tarjima vazifalarini bajarish orqali talabalarni professional tarjimonga aylantirish;
- tahrirlash, o‘qish, yozish, tinglash, matnni tahlil qilish va sharhlash kabi tilshunos va tarjimonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- talabalarni tarjima sohasidagi tadqiqotlar bilan tanishtirib borish;
- talabalarga malakali va professional tarjimon bo‘lishlari uchun “real” amaliyotni taqdim etish;
- xalqaro universitetlar o‘rtasida o‘quv kurslari, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar, milliy va xalqaro konferensiyalar, forumlar, madaniy almashinuv dasturlariga qo‘shilish orqali tarjima kurslari uchun malakali o‘qituvchilarni tayyorlash.

Zamonaviy chet tili darsliklarida ko‘plab vazifalar matn yoki jumlalarni tarjima qilishga bag‘ishlangan. Aksariyat mavzuga doir vazifalarda tarjimaning o‘zi vazifaning bir qismi bo‘lmasa ham, ushbu vazifani tarjima qilmasdan avval bajarib bo‘lmaydi. Chet til matnini idrok etish va

tushunishni tarjimasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Talabalarni chet el matnlarini ona tiliga to‘g‘ri tarjima qilishga o‘rgatish o‘qituvchi uchun eng muhim vazifalardan biridir. Yozma tarjima talabalar uchun alohida qiyinchilik tug‘diradi, chunki bir tildagi barcha konstruksiyalarni boshqa tilga oson tarjima qilib bo‘lmaydi. Boshqa tipdagi matnlarni o‘z tiliga o‘girish orqali o‘quvchilar tarjima qilishni o‘rganadilar.

Tarjima nutq faoliyatining murakkab turi bo‘lib, u ham reseptiv, ham mahsuldor xususiyatga egadir. Biz nutqni tinglash yoki o‘qish orqali idrok qilamiz, so‘ngra tarjimani yakunlash natijasida yozish yoki gapirish orqali nutq hosil qilamiz. Tarjima kommunikativ vazifani bajaradi, shuning uchun u nutqiy faoliyat bo‘lib, u orqali muloqot akti amalga oshiriladi. Tarjima faoliyati jarayonida nutq faoliyatining boshqa barcha turlari (tinglash, o‘qish, yozish, gapirish) bo‘yicha malaka sifati yaxshilanadi. Shuningdek, tarjima jarayonida ikki qarama-qarshi tamoyil bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi: ijodiy va tabiiy. Tarjimaning ijodiy komponenti nostandard yechimlarni topish, asl matndan chalg‘itish kabilalar bo‘lsa, tabiiy vositalar esa tayyor tarjima muhitlarini bilish va ularni qo‘llash qobiliyatini nazarda tutadi⁶. Chet til matnini ona tiliga tarjima qilishning muhim tamoyili tarjima qilingan so‘zlar, grammatik konstruksiyalar yoki asliyat tilining g‘oyalari va asliyat matnining mazmuni hisoblanadi⁷. Har bir tarjima jarayoni uch qismdan iborat: matnni ko‘rish yoki eshitish, asliyat tilini tahlil qilish va tarjima tilida sintez qilish va shu tilda ma’no hosil qilish⁸. Bunga qo‘srimcha ravishda teskari tarjima amaliyotini ham qo‘shsak bo‘ladi. Bundan maqsad tarjima matnini yana asliyat matniga tarjima qilib matnni sifatini baholashimiz mumkin.

A.Axmetova va V.Martemyanova fikricha, tarjimaga o‘rgatishda mashqlarning bir necha turlari mavjud:

- chet til matnini ona tiliga tarjima qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar (masalan, transformatsiya malakalari, matn janri va uslubini aniqlash ko‘nikmasi va boshqalar);
- axborot beruvchi adabiyotlardan foydalanib chet til matnini ona tiliga tarjima qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi mashqlar;

⁶ Леонтьева М. Р. Об изучении иностранных языков в общеобразовательных учреждениях (методическое письмо) // Иностранные языки в школе. 2001. № 2. – С. 3

⁷ Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. М. : Наука, 1988. –С 40.

⁸ Свириденко И. А. Психологический аспект перевода. URL: http://www.rusnauka.com/32_PVMN_2011/Philologia/6_97587.doc.htm.

- til mashqlari (leksik, grammatik, frazeologik va stilistik)⁹. Mazkur mashqlar tasnifiga asliyat matning nolisoniy omillarini tarjima matniga moslashtirish yoki olib o'tish bo'yicha tarjimon ko'nikmasini rivojlantiradigan ekstralolingvistik mashqlar (masalam, madaniy, sotsiolingvistik, psixolingvistik birliklar)ni ham qo'shish qo'shish mumkin.

Grammatika mashqlari tarjimaga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Ular yordamida talabalar ikki tilning grammatik tuzilishidagi farqni anglashga o'rganadilar, shuningdek, bir xil fikrni turli grammatik konstruksiyalar bilan uzatish ko'nikmasini o'rganadilar. Grammatik konstruksiyalarni tarjima qilishda qiyinchilik tug'diradigan til birlikariga qo'shma va murakkab gaplar, shaxsi noma'lum va shaxssiz gaplarni tarjima qilish, shuningdek, gaplar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri uzatish kiradi. Shu bois tarjima uchun matn tanlashda bunday jihatlarga e'tibor berish kerak.

I.S.Alekseyeva *tor mutaxassislik doirasida matnlarni tarjima qilish* tarjimaga o'rgatishning eng keng tarqalgan usuli, deb hisoblaydi¹⁰. Bu usul asosida ta'lim jarayonida texnik tarjima, huquqiy tarjima va boshqalar mashg'ulotga joriy etilishi mumkin. Bu metoddan an'anaviy ingliz tili darslarida ham foydalanish mumkin. Talabalarga ushbu soha bo'yicha yangi so'zlar taklif etiladi, ular asosida yozma matnning grammatik tuzilmalari o'zlashtiriladi. Shuningdek, bu usul bilan siz har qanday so'zni aniq ekvivalent bilan yetkazish qobiliyatini ko'rsatib berishingiz mumkin, biroq bu mavzu bo'yicha matnni tarjima qilish uchun mos kelmasligi ham mumkin. Bu usul terminlarga katta e'tibor beradi, shuning uchun o'quvchilar boshqa uslubda yoki boshqa mavzuda yozilgan matnni tarjima qilishga qiynalishlari mumkin. Ikkinci eng keng tarqalgan usul-matnni filologik tahlil qilish va shu asosida tarjimani amalga oshirish. I. Alekseyevaning fikricha, matnni filologik tahlil qilish yoki tahliliy o'qish tilning turli ko'rinishlarida: tarixiy, fonetik, stilistik muloqotni amalga oshishi bilan tanishish imkonini beradi¹¹. Natijada ushbu matn bilan bog'liq bo'limgan muhim xususiyatlar ham, umumiylar xususiyatlar ham aniqlanadi. Tizimli filologik tahlil bilan siz matnning uslubini, uning yozilish maqsadini va so'z birikmalarining turli xususiyatlarini aniqlashingiz mumkin, bu sizga to'g'ri tarjima qilishga yordam beradi. Biroq, bu tarjima usuli talabalar uchun qiyin bo'lishi mumkin, chunki bu matndagi ekvivalentlarga mos keladigan so'zlarni tanlash qiyin. Bundan tashqari, bilim

⁹ Ахметова А. Р., Мартемьянова В. Г. Упражнения в процессе обучения перевода. URL: <http://festival.1september.ru/articles/567599/>.

¹⁰ Алексеева И. С. Введение в переводоведение : учебное пособие для студ. учреждений высш. проф. образования. 6-е изд., стер. Спб. : Филологический факультет СПбГУ; М. : Академия, 2012. – С.59.

¹¹ Ўша асар. –С. 61

darajasi yetarli talabalar uchun ham uning ko‘pgina jihatlarini bilmaslik tufayli to‘g‘ri filologik tahlil o‘tkazish oson emas.

Tarjimaga o‘rgatishning yana bir usuli *variations* qidiruv deb ataladi¹². Mazkur metod orqali shakl va mazmun o‘rtasidagi bir xil ma’noga egalik mavjud emaslik ko‘rsatib beriladi, ya’ni bir xil mazmun turlicha ifodalab beriladi. Masalan, talabalardan ma’lum bir so‘zga mos tushadigan ma’noni topish talab qilinishi mumkin. Ba’zan so‘zning ma’nolari juda ko‘p bo‘lishi mumkin. Biroq, agar siz nafaqat semantika va muvofiqlikni, balki matn turi, uning axboriy va stilistik xususiyatlarini (badiiy matn, insho, ilmiy maqola va boshqalarni) hisobga olsangiz, so‘z ma’nolari tanlovi kamayadi. Chunki endi bu so‘zlarning birikishi hissiy bo‘yoqdorlik, uslubiy xususiyatlar, shuningdek, ijobiy yoki salbiy bo‘yoqdorlik bilan farq qiladi. Shu tariqa o‘quvchilar foydalanishi mumkin bo‘lgan so‘z ekvivalentlarining katta tanloviga ega bo‘ladilar. Lekin berilgan matn uchun to‘g‘ri so‘z birikmasini tanlash ham qiyin bo‘lishi mumkin.

Tarjimaga o‘rgatishning yana bir tur *avtoritar* usul bo‘lib, u yuqoridagi usullar bilan bir vaqtda qo‘llanishi mumkin¹³. Bu metodning markazida o‘qituvchining o‘zi turadi. Ular bir xil yoki har xil turdagи matnlarni tarjima qilish uchun tanlashlari mumkin. O‘qituvchi talabalarning tarjima variantlarini tahlil qilganda, ularning eng yaxshisini tanlaydi yoki ko‘pincha ularning tarjima variantlari nima uchun yaxshiroq ekanligini tushuntirmasdan o‘z takliflarini bildiradi. Shuning uchun bu usul avtoritar hisoblanadi. O‘quvchilar qaysi variant eng to‘g‘ri ekanligini ko‘ra oladilar, shu asosida to‘g‘ri va munosib variantini yarata oladilar va bu, o‘z navbatida, tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga yordam beradi va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Biroq, I.S.Alekseyeva bu usullar talabalarni to‘g‘ri tarjima qilishga to‘liq o‘rgata olmaydi, deb hisoblaydi¹⁴. Shuning uchun u yuqorida usullarning barcha komponentlarini o‘z ichiga olgan bir xil metodologiyani taklif etadi. Biz uni ta’limning yuqori darajasida talabalarning yoshiga moslashtirishimiz lozim. Birinchi yoki tayyorgarlik bosqichida talabalar matn turini aniqlay olishlariga ishonch hosil qilishi kerak. Talabalar tayyor matnlarni tahlil qila olishlari va shu kabi namunalarni keltirib o‘tishlari talab etiladi. Ikkinci yoki asosiy bosqichda tarjimaning o‘zi amalga oshadi. Uchinchi, yoki mashg‘ulot bosqichi esa ma’lum turdagи yoki mavzudagi

¹² Алексеева И. С. Профессиональный тренинг переводчика : учебное пособие по устному и письменному переводу для переводчиков и преподавателей. СПб. : Союз, 2001. –С. 24.

¹³ Алексеева И. С. Введение в переводоведение : учебное пособие для студ. учреждений высш. проф. образования. 6-е изд., стер. Спб. : Филологический факультет СПбГУ; М. : Академия, 2012. –С.126.

¹⁴ Алексеева И. С. Профессиональный тренинг переводчика : учебное пособие по устному и письменному переводу для переводчиков и преподавателей. СПб. : Союз, 2001. –С.47

matnlarni ona tiliga tarjima qilish amaliyotini hamda tarjima natijalarini refleksiv tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Yozma tarjimani o‘qitish usullaridan yana biri bu – *Vils Volfram* texnikasidir¹⁵. Ushbu usul asliyat va tarjima tillaridagi matnlarni taqqoslash va tahlil qilishdir. Shuningdek, tarjimani asliyat bilan va boshqa mualliflarning tarjimalari bilan taqqoslash taklif etiladi. Bu usul ancha samaralidir, chunki talabalar o‘z tarjimasini professional tarjima bilan yoki o‘z kursdoshlarining tarjimalari bilan solishtirish va ularning bu faoliyat turi bo‘yicha mahoratlarini baholash imkoniga ega bo‘ladi.

Yuqorida manba va materiallarni o‘rganish hamda tahlil qilish jarayonida yozma tarjimani o‘qitish ishlarini samarali tashkil etish bo‘yicha muayyan tavsiyalar ishlab chiqildi. Quyida ularni alohida qayd etib o‘tamiz:

1) yozma tarjimaga o‘rgatishda tarjima o‘qituvchilarga tavsiyalar:

- tarjima o‘qituvchilari tarjimada ko‘rib chiqiladigan turli xil nutq turlarini to‘liq bilishlari kerak;
- tarjima o‘qituvchilari tarjimani o‘z talabalari uchun juda qulay vazifaga aylantirish uchun barcha mumkin bo‘lgan usullardan foydalanishi kerak; Shubhasiz, bunga erishish uchun bir qator usullar mavjud. Ular talabalarga til millatlar va odamlar o‘rtasidagi aloqa vositasi ekanligi to‘g‘risida to‘liqroq tushuncha berishlari kerak, bu orqali ijtimoiy va xulq-atvor xarakterining turli jihatlari haqida talabalarda yetarlicha bilim shakllanadi;
- o‘qituvchilar talabalarga tarjima qilingan matnlarning ijtimoiy va madaniy asoslarini ko‘proq tanishtirishi kerak;
- o‘qituvchilar o‘z talabalarini asta-sekin osondan qiyingga, oddiydan murakkabga yo‘naltirib turishlari va shu orqali ijodiy o‘sib borishiga jiddiy e’tibor qaratishlari kerak;
- o‘quvchilar ishni qoniqish bilan bajarish uchun jamoaviy ishlash ruhiga ega bo‘lishi kerak;
- o‘qituvchilar dars jarayonida o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’lim emas, balki o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’limdan foydalanishlari kerak;
- o‘qituvchilar mas’uliyat va mustaqillikni targ‘ib etadigan usullar va metodlardan foydalanishlari kerak;

¹⁵ Латышев Л. К., Семенов А. Л. Перевод: теория, практика и методика преподавания. М. : Академия, 2003. –С. 124.

- o‘qituvchilar ijodkorlikni rivojlantirishlari va kichik guruh texnikasi orqali hamkorlikda ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak;
- o‘qituvchilar vaqtি-vaqtি bilan talabalarni tarjima qilingan matnlarni o‘zlarining tarjimalari bilan taqqoslashlari uchun oldin tarjima qilingan matnlardan foydalanishlari kerak;
- o‘qituvchilar o‘z talabalariga turli xil nutq turlarini tushunish amaliy tarjimaga kirish uchun muhim qadam ekanligini o‘qtirishlari kerak. Shubhasiz, o‘qituvchilar o‘z talabalariga vaqtি-vaqtি bilan muayyan nutq turlarining faktik, madaniy, diniy, siyosiy, obrazli, hayajonli yoki emotsiyonal xususiyatga ega ekanligini eslatib turishlari kerak;
- tarjimani o‘rganishni osonlashtirish uchun o‘qituvchilar matnning ayrim qismlarini auditoriyadagi turli guruhlarga berishlari mumkin va guruhlar ushbu qismlarni tarjima qilishga urinib ko‘rgandan so‘ng, o‘qituvchi turli xil tarjima qilingan tarjimalarni butun auditoriya bilan muhokama qiladi, shunda butun auditoriya bilan yakuniy ko‘rib chiqish orqali yakuniy qoralama tayyorlanadi. Shu tarzda o‘qituvchi tilni o‘rganishni osonlashtiradi, shuningdek tarjima san’atini talablarga to‘laqonli o‘rgatadi.

2) tarjima kafedralari va markazlariga tavsiyalar:

- markaz yoki kafedra o‘quv - metodik bazasida matnning diskurs nuqtai nazaridan to‘g‘ri baholaydigan va tarjima uchun foydalaniladigan aniq strategiyalar yoki usullar bo‘lishi kerak;
- agar o‘qituvchilarga o‘quv yuklamalari haddan tashqari ko‘p berilgan bo‘lsa, ularning muassasalari ishni bajarish bo‘yicha qisqacha qo‘llanmalar tayyorlashda yordam berishlari mumkin;
- asliyat va tarjima tili o‘rtasidagi fonetik sathdan boshlab pragmatik va sosiolingvistik sathgacha bo‘lgan barcha sathlar bo‘yicha asliyat va tarjima tillari qiyosiy nuqtai nazaridan yaxshi ko‘rib chiqilishi kerak. Bu jarayonda asliyat va tarjima tillari o‘rtasida linvistik, ekstralivistik jihatdan o‘xshashlik va farqli jihatlar aniqlab olinadi, tarjima jarayonida qaysi uslubdagi matn berilishidan qat’i nazar shu o‘xshashlik va farqli jihatlar inobatga olinadi;
- tarjima kurslari ikki tilli o‘qituvchilar tomonidan o‘qitilishi kerak;
- tarjimani o‘qitish muammolar ularning lingvistik, kognitiv va pedagogik tarkibiy qismlariga qarab tasniflash imkoniyatini beradigan tarzda rejalashtirilgan bo‘lishi kerak va bunday muammolarning yechimi o‘qituvchilarlarning yondashuvini integrallashtirgan holatda umumlashtirish kerak;

- quyi kurs talabalariga tavsiflovchi matnlardan foydalanish afzalroq bo‘lib, ular asta-sekin izohlovchi, bayon etuvchi, argumentativ va boshqa matnlarga bosqichma-bosqchi o‘tadilar.

3) Tarjimani o‘rganuvchilar uchun tavsiyalar:

- tarjimani o‘rganayotgan talabalar tegishli (masalan, o‘zbek va ingliz) tillarining lug‘ati va grammatikasini yaxshi o‘zlashtirishi shart. Buning sababi shundaki, ular tarjima qilishda ikki tilning grammatikasi va leksikasi bilan ish ko‘radi;

- stilistik sathda talabalar e’tiborga oladigan ikkita muhim tarkibiy jihat mavjud bo‘lib, ular tegishli tillarning funksional uslubi, stilistik vositalaridan ma’lum darajada bilimga ega bo‘lishlari kerak;

- tarjima uchun tanlanadigan matn tuzilishi va hajmi jihatidan soddadan murakkablikka tamoyiliga asoslangan bo‘lishi lozim. Matnlar diniy, badiiy, publisistik, ilmiy, ta’limiy kabi turli xil mavzularni qamrab olishi kerak. Ular matn tuzilishining har qanday turiga, masalan, tavsiflovchi, bayon qiluvchi, ma’lumot beruvchi, tariflovchi va boshqa turlarini qamrab olishi lozim;

- talabalar lug‘at ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishi lozim;

- tarjima qilingan matnning ma’nosи va mazmuni haqida xulosa chiqarish uchun kontekstli ko‘rsatmalardan foydalanish kerak.

Xulosa qilib aytganda, yozma tarjima bo‘yicha dasturlarni tuzishda talabalarning kasbiy ehtiyojlarini inobatga olish juda ham muhim. Bu bugungi kunda tarjimon tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida birinchi kursdan boshlab talabalar o‘zлari qiziqqan sohalarga oid matnlar tarjimasi bilan shug‘ullanishga imkoniyatlar yaratishni taqozo qiladi. Bu esa ularning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi. Tarjima darsida barcha talabalarni yuqori motivatsiyaga erishtirish va ularning ehtiyojlarini qondirish o‘qituvchilarning vazifasidir. Tarjima o‘qituvchilari tomonidan tarjima va uni amalga oshirishda talabalar va tinglovchilarga turli ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan usullar va eng zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash yaxshi natija beradi. Turli xil ta’lim usullari talabalarga ijobjiy tasir ko‘rsatishi, foyda keltirishi, ularning o‘z maqsadlariga erishishga xizmat qilishi aniq. Universitetlarda ta’limiy va madaniy almashinuv dasturlari orqali tarjima o‘qituvchilari va kafedralari o‘rtasida mahalliy va xalqaro darajadagi tarjima amaliyotining rivojlanishi uchun juda muhimdir.

2-MAVZU. TARJIMON TAYYORLASH BO'YICHA MILLIY STANDART VA TALABLAR

- 1 Tarjimaning kasbiy faoliyat kategoriyalari.
2. Og'zaki hamroxlik tarjimasi
3. Rasmiy xujjatlarning yozma tarjimasi
4. Tarjima loyihalari materiallariga texnologik ishlov berish

Tarjimon kasbiy faoliyat turning asosiy maqsadi – yuqori sifatli tarjimani ta'minlash, lug'atlar tuzish, tilning grammatikasi va turli ma'lumot-kataloglar yozish, bir tildan boshqa tilga tarjima qilish, ilmiy-texnikaviy va maxsus terminologiyani ishlab chiqish, alifbo va imloni takomillashtirish; fonetika, morfologiya hamda sintaksis sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, shevalar va adabiy tilning so'zlashuv variantini o'rghanish, qadimgi madaniyatlarni ularning til faktlari orqali izohlash, tilni o'rgatish, tilshunoslik sohasida tadqiqotlar olib borish.

Tarjimonning kasbiy standartga kiritilgan kasbiy faoliyat kategoriyalari quyidagi uch gruhga bo'linadi:

- a) ixtisoslashmagan tarjima: og'zaki hamrohlik tarjima, rasmiy ish hujjatlarining yozma tarjimasi;
- b) kasbga yo'naltirilgan tarjima: ketma-ket tarjima, sinxron tarjima, yozma tarjima (maxsus vositalar yordamida), badiiy tarjima, audiovizual asarlarni tarjima qilish, maxsus kognitiv ehtiyojlari bo'lgan auditoriya uchun audiovizual tarjima;
- c) tarjima sifatini boshqarish: tarjima materiallarini texnologik qayta ishlash, tarjima loyihalarini avtomatlashtirish, tarjimaning tahririylari va texnik nazorati, tarjima sifati bo'yicha maslahat, tarjima ishlab chiqarish jarayonini boshqarish.

Og'zaki hamrohlik tarjima

Mehnat faoliyatları	Bo'lajak tadbir va tarjimani amalga oshirish shartlari haqida ma'lumot to'plash
	Tarjima sohasiga kirish
	Madaniyatlararo muloqotni ta'minlash maqsadida oldindan kelishilgan dasturga muvofiq mijozga hamrohlik qilish
	Kundalik sohada qisqa ibora yoki jumla darajasida tillararo og'zaki tarjimani amalga oshirish

	Mijoz bilan professional muloqotni amalga oshirish
	Turli ma'lumot manbalariga murojaat qilish
	Ekstralingvistik ma'lumotlarni bilish va undan foydalanish
	Muloqot vaziyatiga mos keladigan nutq odob-ahloq qoidalariiga rioya qilish
Zarur ko'nikmalar	Turli madaniyat vakillari bilan muloqotda stereotiplar ta'sirini bartaraf etish uchun madaniy va kommunikativ xususiyatlarga oid bilimlarni vaziyatga qarab qo'llash
	Bir tildan boshqa tilga og'zaki tarjimani amalga oshirish
	Asliyat xabarning muloqot maqsadini saqlab qolish
	Bir tildan boshqa tilga tezda o'tish
	Xorijiy til madaniyatlarida qabul qilingan noverbal vositalarini (yuz ifodalari, imo-ishoralar) bilish
Zarur bilimlar	Mahalliy va xorijiy madaniyatlarda qabul qilingan odob-axloq qoidalari
	Xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish qoidalari
	Mintaqaning tarixiy, madaniy va geografik diqqatga sazovor joylari
	Tarjimaning umumiy nazariyasi va amaliyoti asoslari
	Ona tili; xorijiy tillar
	Tarjimon ishchi tillarining variantlari va sotsiolektlari
	Kasbga etikasi
Boshqa xususiyatlari	-

Rasmiy ish hujjatlarining yozma tarjimasi

	Asliyat matnning turi va janrini aniqlash
	Berilgan mavzu bo'yicha analog matnlarni va (yoki) shablonlarni qidirish
Mehnat faoliyatlari	Tarjima matnni tahrirlash
	Tarjima matnni asliyat matn formatining haqiqiyligini ta'minlaydigan talablarga muvofiq formatlash
	Hujjatlarni tarjima qilishda tarjimon imzosining haqiqiyligini notarial tasdiqlash tartibidan o'tkazish
Zarur ko'nikmalar	Asliyat matnni tarjimadan oldin tahlil qiling
	Ma'lumotnomha va maxsus adabiyotlarda o'xshash matnlarni qidirish
	Bir tildan boshqa tilga yozma tarjima qilish
	Asliyat matnning muloqot maqsadi va uslubini saqlash
Zarur bilimlar	Tarjimadan keyingi matn tahlilini bajarish
	Tarjima matnni to'g'ri formatlash uchun matn muharrirlari va maxsus dasturlardan foydalanish
	Notarial tasdiqlash uchun tarjima matnnini tayyorlash
	Tarjima oldidan tahlil qilish algoritmi
	Rasmiy ish hujjatlarini tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari
	Ona tili; xorijiy tillar
	Tarjimaning umumiy nazariyasi va amaliyoti asoslari
	Predmet sohasi terminologiyasi
Boshqa xususiyatlari	-

Ketma-ket tarjima

Mehnat faoliyatlari	Berilgan tarjima mavzusi bo'yicha kerakli ma'lumotlarni qidirib topish
	Mahalliy mavzuviy lug'at tuzish

	Madaniyatlararo va tillararo muloqotni amalga oshirish
Zarur ko'nikmalar	Bir tildan boshqa tilga tarjima qilish
	Asliyat xabarning muloqot maqsadi va uslubini saqlab qolish
Zarur bilimlar	Madaniy kontekstga qarab tilning verbal va noverbal vositalaridan foydalanish
	Mahalliy va xorijiy madaniyatlarda qabul qilingan muloqot usullaridan foydalanish
	Madaniyatlararo o'zaro ta'sirning turli holatlarida milliy xulq-atvorning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish
	Omma oldida nutq so'zlash qobiliyatlarini qo'llash
Boshqa xususiyatlari	Ketma-ket tarjima qilishda texnik vositalardan foydalanish
	-

Sinxron tarjima

Mehnat faoliyatları	Tarjimaga tayyorgarlik ko'rish uchun ma'lumot materiallarini o'rganish
	Muayyan kasbiy faoliyat sohasiga oid terminologiyani o'rganish
	Mahalliy mavzuviy lug'atlar tuzish
	Ishni boshlashdan avval texnik uskunalarni tekshirish
	Og'zaki madaniyatlararo va tillararo va/yoki imo-ishorali tarjimani amalga oshirish
Zarur ko'nikmalar	Tugallangan tarjimaga oid ma'lumot materiallarini tizimlashtirish
	Tarjima tadbiriga har tomonlama tayyorgarlik ko'rish
	Asliyat xabarning mavzu maydonini aniqlash
	Maxsus lug'atni tizimlashtirish va yodlash
	Tarjima jarayonida texnik uskunalardan foydalanish
	Asliyat xabar aytilishi bilan deyarli bir vaqtida bir tildan ikkinchi tilga og'zaki tarjima qilish
	Pichirlash texnikasidan foydalangan holda tarjima qilish (chouchotage)
	Maxsus kabinada oraliq tarjimani amalga oshirish
	Asliyat xabarning kommunikativ maqsadi va stilistik registrini saqlash
	Diqqatni jamlash va saqlash
Zarur bilimlar	Tugallangan tarjimalar bo'yicha hisobot hujjatlarini tayyorlash
	Maxsus ma'lumot-katalog tizimlari
	Faol so'z boyligini oshirish usullari
	Asliyat va tarjima tildagi terminologik apparatni belgilaydigan tor doirada ixtisoslashgan bilim sohasining normalari va standartlari
	Sinxron tarjima uchun texnik ta'minot
	Sinxron tarjima nazariyasi va amaliyoti
	Ona tili; xorijiy tillar va (yoki) O'zbekiston xalqlarining tillari hamda (yoki) kichik xalqlar tillari va (yoki) imo-ishora tillari
	Tarjimonning ishchi tillarining variantlari va sotsiolektlari
	Intonatsiya madaniyati
	Nutqni kompressiya mexanizmlari va ehtimollik proqnozi
	Konferensiylar, yig'ilishlar, muzokaralar va uchrashuvlarning reglamenti va bayonomalari
	Kasb etikasi
	Tarjimonning mehnat munosabatlari, javobgarligi va mualliflik huquqiga oid me'yoriy hujjatlar
Boshqa xususiyatlari	-

Yozma tarjima (maxsus vositalar yordamida)

Mehnat faoliyatlari	Asliyat matnni tarjimadan oldingi tahlili va tarjima vazifasi
	Maxsus matnlarni tarjima qilish va (yoki) mahalliylashtirish uchun zarur bo'lgan yordamchi materiallarni elektron shaklda tayyorlash
	Tillararo va madaniyatlararo tarjimani yozma shaklda amalga oshirish
	Mashina va (yoki) avtomatlashtirilgan tarjimani keyingi tahrirlash, zarur semantik, leksik, terminologik, stilistik va grammatick o'zgarishlarni amalga oshirish.
	Tarjima sifati va uning tarjima vazifasiga muvofiqligini tekshirish
Zarur ko'nikmalar	Tarjima vazifasiga muvofiq ma'lumot manbalarini topish, tahlil qilish va tasniflash
	Tarjima vazifasini bajarish uchun vaqt, moliyaviy va texnologik resurslarni rejalashtirish
	Mahalliylashtirilgan dasturiy ta'minotning dasturiy-apparat vositalaridan foydalanish
	Bir tildan boshqa tilga yozma tarjima qilish
	Xorijiy adabiyotlardan annotatsiya va tezislarni tayyorlash
	Belgilangan tildagi matnni ma'lum bir mintaqaning madaniy xususiyatlariga xos ravishda moslashtirish
	Tarjima jarayonini avtomatlashtirish uchun dasturiy-apparat vositalaridan foydalanish
	Tarjimaning soha va ichki sifat standartlari, shuningdek korporativ uslub ko'satmalari talablariga rioya qilish
	Maxsus matnlarni tarjima qilish sifatini nazorat qilish hamda dasturiy ta'minotni mahalliylashtirish uchun usullar, amalga tartiblari va dasturiy vositalarni qo'llash
	Yuqori sifatli tarjima uchun zarur bo'lgan darajada matnlarning mavzu doirasi
Zarur bilimlar	Tarjimalarni boshqarish tizimlari
	Tarjimaning maxsus nazariyasi
	Tarjimaning alohida nazariyasi
	ona tillari; xorijiy tillar va (yoki) O'zbekiston xalqlari tillari va (yoki) kichik xalqlar tillari
	Tarjima predmet sohasining terminologiyasi
	Tarjima xotirasi texnologiyalari
	Tarjima sifatini boshqarish tizimlari
	Mashina va (yoki) avtomatlashtirilgan tarjima uchun tahrirlashdan keyingi usullari
	Kasb etikasi
	Professional tarjima va dasturiy ta'minotni mahalliylashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar
Boshqa xususiyatlar	-

Badiiy tarjima

Mehnat faoliyatlari	San'at asari va maqsadli auditoriya haqida ma'lumot to'plash
	Muallifning individual uslubini o'rganish
	Asliyat matnning pragmatik va stilistik imkoniyatlarini aniqlash
	Badiiy asarning dastlabki tarjimasini amalga oshirish
	Badiiy matn tarjimasini o'zi tahrirlash
Zarur ko'nikmalar	Munozarali masalalar bo'yicha muharrir bilan hamkorlik
	Tarjima oldidan matnni tahlil qilish

	Tarjima til vositalari orqali individual muallif uslubini tahlil qilish va etkazib berish
	Tarjimada asliyat matnning pragmatik moslashuvini amalga oshirish
	Bir tildan boshqa tilga yozma ravishda tarjima qilish
	Bosma va elektron resurslardan foydalangan holda ekvivalentni qidirish algoritmini qo'llash
	Tanlangan tarjima strategiyasiga muvofiq tarjima transformatsiyalaridan foydalanish
	Intertekstuallikni aniqlash va yetkazib berish
	Nostandart tarjima vazifalari uchun ijodiy yechimlarni topish algoritmlarini tuzish
	Nazmiy asar tarjimasini jarayonida uning hajmi va o'lchamlarini saqlab qolish
	Nazmiy asar tarjimasida ohangni aks ettirish
	Tarjima matnini tahrirlash qoidalarini qo'llash
	Tarjima matniga tahririyat tavsiyalariga muvofiq tuzatishlar kiritish
Zarur bilimlar	Tarjimaning alohida nazariyasi va tegishli til juftligida badiiy tarjima usullari
	Filologiya asoslari va ijodiy yozish tamoyillari
	Asliyat va tarjima tilining adabiy an'anasi, shuningdek, tegishli til juftligidagi tarjima an'ansasi
	Ona tili; xorijiy tillar va (yoki) O'zbekiston xalqlari tillari va (yoki) kichik xalqlar tillari
Boshqa xususiyatlar	Ona tili, xorijiy tillar, O'zbekiston xalqlari tillari, kichik xalqlar tillari lingvomadaniyati realialari.
	-

Tarjima loihalari materiallariga texnologik ishlov berish

Mehnat faoliyatlari	Tarjima loyihalarda asliyat materiallarini razverstka qilish
	Tarjima uchun asliyat matnni murakkab formatlardan umumiyligi formatlariga o'tkazish
	Tarjima matni formatini asliyat matni formatiga mos ravishda tiklash
	Tarjima matnini grafik elementlarga o'tkazish
	Tarjima matnini murakkab fayl formatlariga o'tkazish
	Tayyor materiallarni kompilyatsiya qilish
	Yakuniy tarjimaning ko'rinishi, formati va dizaynnini tekshirish
	Kontentni boshqarish tizimlari bilan asliyat va tarjima matnlarning mosligini tekshirish va almashish
	Asliyat va tarjima tillarida materiallarni jarayonlarga taqsimlash vositalardan foydalanish
Zarur ko'nikmalar	OCR dasturida ishlash
	Turli formatdagi fayllarni o'zgartirish
	Grafik elementlarda tahrir qilib bo'lmaydigan qismlarni tanlash va ularni tahrirlanadigan shaklga keltirish
	Asliyat va tarjima tillarda materiallarning taqsimlash (verstka) va undan (verstka) keyingi jarayonlar vositalarni qo'llash
	Matn muharrirlarida va tarjima uchun maxsus dasturlarda ishlash
	Tarjimani texnologik boshqarish dasturini qo'llash
Zarur bilimlar	Kontentni boshqarish tizimlaridan foydalanish
	Hujjatlarni formatlashning asosiy tamoyillari
	Dasturiy ta'minotni mahalliylashtirish asoslari
	Ishchi tillarning grafik tizimlari

	Hujjatlarni konvertatsiya qilish uchun dasturiy apparat vositalari
	Kontentni boshqarish tizimlari
	Ona tili; xorijiy tillar va (yoki) O'zbekiston xalqlari tillari va (yoki) kichik xalqlar tillari
	Tarjimaning umumiy nazariyasi va amaliyoti asoslari
	Avtomatlashtirilgan tarjima tamoyillari
	Tarjimalarni boshqarish tizimlari
	Tarjima sifatini boshqarish tizimlari
	Kasb etikasi
	Yirik hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish texnikasi
Boshqa xususiyatlar	-

Tarjima va mahalliylashtirish loyihamalarini avtomatlashtirish

Mehnat faoliyatatlari	Materiallarning asliyat mazmunini mashina, avtomatlashtirilgan yoki kombinatsiyalangan tarjima uchun mos matnga qayta ishlash
	Parallel matnlar va tarjima xotiralaridan lug'atlar va terminologik bazalarni avtomatik va qo'lda ko'chirib olish
	Tarjima xotiralar, lug'atlar va terminlar bazasi kombinatsiyasini tanlash
	Tarjima xotiralar, lug'atlar va terminologiya ma'lumotlar bazalari asosida tarjimadan oldingi qoralamasini avtomatik va qo'lda bajarish
	Glossariylar va terminologiya ma'lumotlar bazalarini tuzish
	Parallel tarjima xotirasi matnlarini tekislash
	Parallel tarjima xotirasi matnlarini lug'atlar, terminlar bazalari va mijozlar talablari bilan sinxronlashtirish
Zarur ko'nikmalar	Kontekstli tekshirish asosida terminologiya asoslarini takomillashtirish
	Avtomatlashtirilgan yoki mashina tarjimasidan keyin foydalanish uchun materiallarni asliyat tilda tahrirlash
	Terminologik bazalarni va lug'atlarni tarjimani avtomatlashtirish tizimlari uchun mos formatga aylantirish
	Mashina tarjima tizimlarini tanlash
	Mashina tarjimasi tizimlarini tanlashda mijozlar talablarini ko'rib chiqish
	Tarjima xotirasini boshqarish va tarjimani avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanish
	Tarjima xotiralar, lug'atlar va terminologiya ma'lumotlar bazalarini turli tarjima avtomatlashtirish tizimlariga ularash
	Dastlabki avtomatlashtirilgan tarjimani amalga oshirish
	Asliyat matnining terminologik tahlilini amalga oshirish
	Glossariylar va terminlar bazasini ishlab chiqish
	Parallel tarjima xotirasi matnlarini semantik izchillik uchun tekshirish
Zarur bilimlar	Tarjima xotirasi metama'lumotlarini tahrirlash
	Tarjima xotiralarini uzatish va o'zgartirish
	Bir tildan boshqa tilga tarjima qilish
	Terminologiyani kontekstga qarab tekshirib chiqish
	Ona tili; xorijiy tillar va (yoki) O'zbekiston xalqlari tillari va (yoki) kichik xalqlar tillari
	Terminologiya asoslari
Boshqa xususiyatlar	Elektron terminologik bazalar bilan ishlash tamoyillari
	Tarjima sifatini boshqarish tizimlari
	Kasb etikasi
	Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash vositalari
Boshqa xususiyatlar	-

Tarjimaning tahriri va texnik nazorati

Mehnat faoliyatları	Matnni tarjimadan oldingi tahlili va tarjima vazifasi
	Tarjimanı asliyat matni bilan birga tekshirish
	Leksikografik nazoratni amalga oshirish
	Terminologik nazoratni amalga oshirish
	Tarjima matniga kerakli semantik, leksik, terminologik, stilistik va grammatik o'zgarishlarni kiritish
	Terminologik bazalar va lug'atlarni takomillashtirish
	Tarjima qilingan materiallarning texnik nazoratini amalga oshirish
	Tarjima sifatini baholash
Zarur ko'nikmalar	Asliyat va tarjima qilingan matnlarni tekshirish
	Bir tildan boshqa tilga yozma ravishda tarjima qilish
	Terminologiyani birlashtirish
	Tarjima matniga stilistik tahrirlar kiritish
	Terminologik bazalar va lug'atlarni ishlab chiqish
	Tarjima matnini formatlash
	Tarjima xatolarining sabablarini aniqlash
	Tarjima sifatini baholash
Zarur bilimlar	Tarjima sifati bo'yicha tanqidiy fikrlarni shakllantirish
	Ixtisoslashgan axborot va ma'lumot tizimlari hamda dasturiy ta'minot
	Tarjimaning umumiy nazariyasi va amaliy tarjima usullari
	Tarjimaning maxsus nazariyasi
	Tarjimaning alohida nazariyasi
	Ona tili; xorijiy tillar va (yoki) O'zbekiston xalqlari tillari va (yoki) kichik xalqlar tillari
	Tarjima predmeti terminologiyasi va maxsus kasbga oid lug'at
	Terminlar, belgilar va o'lchov birliklarining davlat standartlari
	Terminlarni birlashtirish tamoyillari
	Terminlarni standartlashtirish tamoyillari
	Tarjima natijalarini tahrirlash, tahlil qilish va baholash uchun dasturiy apparat vositalari
	Tarjima sifatini nazorat qilishni baholash mezonlari
	(Korrektura) Tekshirib tahrirlash qoidalari va standart (korrektura) tekshirish belgilari
	Tarjima sifatini nazorat qilishda samaradorlikni oshirish uchun avtomatlashtirish dasturiy apparat vositalari
	Kasb etikasi
Boshqa xususiyatlar	-

Tarjima sifati bo'yicha maslahat

Mehnat faoliyatları	Tarjima va tarjima sifatini mustaqil ekspertizadan o'tkazish
	Tarjima sifatini yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish
	Tarjimanı o'rgatuvchi ta'lim tashkilotlarida tadbirlar o'tkazish
	Tashkilotning kadrlar siyosati doirasida tarjima fanlari o'qituvchilari bilan birlgilikda murabbiylik faoliyatini muvofiqlashtirish.
	Tarjima sifatini oshirish bo'yicha ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha hisobotlarni tuzish
	Tarjimachilik sohasining istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirish tahlili

	Tarjima, tarjimashunoslik va tarjima didaktikasi sohalarida ilmiy yutuqlarni joriy etish
Zarur ko'nikmalar	Bir tildan boshqa tilga professional tarzda tarjima qilish
	Tarjima va tarjima ekspertizasi o'tkazish hamda aniqlangan faktlar bo'yicha ekspert xulosasini taqdim etish
	Tarjima sifatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish
	Tarjimonlik tashkilotlari va bo'limlarining tarjimani o'rgatuvchi ta'lim tashkilotlari bilan qo'shma tadbirlar o'tkazishi
	Ustozlik qilish jarayonida erishilgan yutuqlarni aniqlash uchun test va attestatsiya o'tkazish
	Tarjimonlik tashkiloti va bo'limlarining kundalik ishlarida ustozlik faoliyatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish
	Tarjima sifatini oshirish uchun ishlab chiqarish faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qilish va mantiqiy tuzish
	Tarjima sohasidagi ilmiy ishlar va ilg'or tajribalarga ekspert bahosini berish
Zarur bilimlar	O'g'zaki va yozma tarjimani o'qitish metodikasi
	Amaliyot va stajirovkalarni tashkil etishning metodik asoslari
	Ustozlik metodologiyasi
	Tarjima xizmatlarini sertifikatlashtirish qoidalari va tartibi
	Tarjima sifatini oshirish usullari va texnologiyalarini joriy etish natijalarini oldindan taxmin qilish va baholash usullari
	Sohaning yetakchi amaliyotlari va amaliy innovatsiyalar
	Tarjima fani va tarjima lingvodidaktikasi rivojlanishining ilg'or yo'naliishlari
Boshqa xususiyatlar	-

Tarjima ishlab chiqarish jarayonini boshqarish

Mehnat faoliyatlari	Ma'lum bir turdag'i algoritmlar va texnologik jarayonlarni ishlab chiqish
	Tarjimonlik tashkiloti alohida xodimlari, guruhlari va bo'limlari uchun funksional vazifalar majmuasini ishlab chiqish va rejalashtirish
	Tarjimonlik tashkiloti alohida xodimlari, guruhlari va bo'limlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning umumiyl tartibini ishlab chiqish va rejalashtirish
	Tarjima va mahalliylashtirish bozoridagi talabni tahlil qilish
	Tarjima va mahalliylashtirish loyihalari darajasida tavakkalchiliklarni boshqarish
	Tarjima sifatini boshqarishni tashkil etish
	Tarjimani yakunlash muddatlarini qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish
	Tarjimonlik tashkilotining alohida xodimlari, guruhlari va bo'limlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning umumiyl tartibiga rioya etilishini nazorat qilish
	Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar bo'yicha hujjatlarning to'g'ri tayyorlanishini nazorat qilish
	Tarjima va mahalliylashtirish loyihalari ijrochilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tartibi va texnologiyasini takomillashtirish tizimini ishlab chiqish
Zarur ko'nikmalar	Ma'lumotlarni strategik boshqarishni amalga oshirish
	Funksional vazifalarni ijrochilar o'rtasida taqsimlash

	Ijrochilar bilan muloqot qilish va tarjima jarayonining oraliq bosqichlarini kuzatib borish
	Maxsus dasturiy ta'minotda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish
	Ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash va ularni oldini olish hamda bartaraf etish choralarini ko'rish
	Tarjima sifatini professional baholash
	Bir tildan boshqa tilga tarjima qilish
	Tarjima topshiriqlarini bajarish bo'yicha manfaatdor tomonlarga maslahat berish
	Bir nechta ishchi tillardan foydalangan holda xalqaro protokol tadbirlarini tashkil qilish
	Xalqaro protokol tadbirlari uchun axborot va hujjatlar bilan ta'minlash
	Tarjima ijrochilar uchun texnologik jarayonlar va o'zaro ta'sirga ega shartlar uchun ma'lum turdag'i algoritmlarni ishlab chiqish
Zarur bilimlar	Tarjima texnologik jarayonlari
	Moliyaviy rejalashtirish asoslari
	Xatarlarni boshqarish asoslari
	Tarjimaning umumiy nazariyasi va amaliy tarjima texnikasi
	Tarjimaning maxsus nazariyasi
	Tarjimaning alohida nazariyasi
	Ona tili; xorijiy tillar va (yoki) O'zbekiston xalqlari tillari va (yoki) kichik xalqlar tillari
	Tarjima jarayonlarining ishlash ko'rsatkichlari tizimi
	Tarjima faoliyati uchun normativ materiallar va standartlar
	Mehnat munosabatlari va javobgarlik to'g'risidagi normativ hujjatlar
	Kasb etikasi
	Buyurtmachilar va ijrochilar bilan shartnomalar tuzish tartibi
	Tarjima va mahalliylashtirish loyihalari ishtirokchilariga haq to'lashni hisoblash tartibi
	Biznes jarayonlarini optimallashtirish va mehnat unumдорligini oshirish texnologiyalari
	Soha tashkilotlarining tarjima faoliyatidagi ilg'or tajribalari
Boshqa xususiyatlar	-

3-MAVZU. TARJIMON TAYYORLASH BO'YICHA XALQARO STANDART VA TALABLAR

Reja:

1. Tarjimonning kasbiy burch va vazifalari
2. Tarjimonning kasbiy faoliyatları
3. Tarjimonning kasbiy malakalari
4. Tarjimonning kasbiy bilim va ko'nikmalari

Xar qanday kasb va xunarlarda bo'lgani kabi tarjimonlarda ham o'ziga xos standart, talabalar mavjud bo'lib, xalqaro xuquqiy va me'yoriy xujjatlarda quydigachi namoyon bo'lgan:

Tarjimonning kasbiy burch va vazifalari

- 1) Tarjimalar asliyat materialning mazmuni, ma'nosи va uslubini saqlab qolishini ta'minlash uchun asliyat matnlarni sinchiklab tekshirish yoki mualliflar bilan maslahatlashish;
- 2) Texnik atamalar va terminlarning tarjimalarini tekshirib, ularning aniqligini va tarjima matnining oxirigacha shu ma`noda qo'llanilishini ta'minlash;
- 3) Tarjimalarda qo'llaniladigan atamalar va ma'lumotlarni, jumladan yuridik yoki tibbiy hujjatlardagi kabi maxsus texnik atamalarni to'plash;
- 4) Mijozlar bilan tarjima talablarini muhokama qilish va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovni belgilash.
- 5) Ma'ruzachilarining bayonotlarini tinglash, ma'nolarini aniqlash va tarjimalarni tayyorlash, zarur hollarda elektron eshitish tizimlaridan foydalanish;
- 6) Tarjima qilingan materiallarni tekshirish, tahrirlash va qayta ko'rib chiqish;
- 7) Huquqiy hujjatlar, ilmiy asarlar yoki yangiliklar kabi yozma materiallarni o'qish va ularni ko'rsatilgan tillarda qayta yozish;
- 8) Tarjimaning aniqligini ta'minlash uchun lug'atlar, leksikon va ensiklopediyalar hamda kompyuterlashtirilgan atamalar banklari kabi ma'lumot materiallariga murojaat qilish;
- 9) Xabarlarni sinxron yoki ketma-ket ko'rinishda belgilangan tillarga og'zaki yoki qo'lishoralari yordamida tarjima qilish, xabar mazmuni, konteksti va uslubini iloji boricha saqlash.
- 10) Tarjimalarni o'quvchilarining aqliy salohiyat va darajalariga moslashtirish, zarur hollarda ta'lim jamoasi a'zolari bilan hamkorlik qilish.
- 11) Ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlovchi odob-axloq nizomlariga rioxqa qilish.

12) So‘zlar, tushunchalar, ma’nolarga yoki xatti-harakatlarning ma’nolari bilan bog‘liq noaniqliklarni aniqlash va bartaraf etish.

13) Tarjima qilinadigan ma’lumotlarning mazmuni va konteksti, shuningdek tarjimani buyurtma qilgan guruhlar haqidagi bat afsil ma’lumotlarni to‘plash.

14) Dasturiy ta’milot va unga ilova qilingan texnik hujjatlarni boshqa til va madaniyatga moslash.

15) O‘quvchilar, ota-onalar, xodimlar va o‘qituvchilarga ta’lim tarjimonlarining vazifalari va funksiyalari haqida ma’lumot berish.

16) Boshqa tarjimonlarni tarjimalarini o‘qish va o’rgatish.

17) Boshqa tilda so‘zlashuvchi sayyoohlar bilan birga sayohat qilish yoki ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish.

Tarjimonning kasbiy faoliyatları

1) Boshqalarga axborotning ma’nosini tushuntirish - Axborotning nimani anglatishi va undan qanday foydalanish mumkinligini tarjima qilish yoki izohlash.

2) Ma’lumot olish - Barcha tegishli manbalardan kuzatish, qabul qilish va boshqa usullar orqali ma’lumot to‘plash.

3) Obyektlar, harakatlar va hodisalarni aniqlash - Tasniflash, baholash, farqlar yoki o‘xshashliklarni aniqlash hamda vaziyatlar yoki hodisalardagi o‘zgarishlarni aniqlash orqali ma’lumotlarni belgilash.

4) Axborotni qayta ishlash - Ma’lumotlarni to‘plash, kodlash, turkumlash, hisoblash, jadvallash, tekshirish yoki tasdiqlash.

5) Ma’lumotlarni hujjatlashtirish/qayd etish - Yozma yoki elektron/magnit shaklda ma’lumotlarni kiritish, ko‘chirish, yozib olish, saqlash yoki yuritish.

Tarjimonning kasbiy mahorati

Faol tinglash - boshqalar nima deyayotganiga to‘liq e’tibor berish, aytilgan fikrlarni tushunish uchun vaqt ajratish, kerak bo‘lganda savollar berish va keraksiz paytda gapni bo‘lmaslik.

Tarjimonning kasbiy malakalari

1) Og‘zaki ifoda - boshqalar tushunishi uchun gapirishda ma’lumot va g‘oyalarni yetkazish qobiliyati.

2) Og‘zaki tushunish - og‘zaki so‘z va gaplar orqali taqdim etilgan axborot va g‘oyalarni tinglash va tushunish qobiliyati.

3) Yozma tushunish - yozma ravishda taqdim etilgan axborot va g‘oyalarni o‘qish va tushunish qobiliyati.

4) Nutqni anglash - boshqa odamning nutqini tanib olish va tushunish qobiliyati.

5) Yozma ifodalash - boshqalarga tushunarli bo‘lishi uchun axborot va g‘oyalarni yozma ravishda yetkazish qobiliyati.

6) Nutqning aniqligi - boshqalar tarjimonni tushunishi uchun aniq gapirish qobiliyati.

7) Eslab qolish - so‘zlar, raqamlar, rasmlar va protseduralar kabi ma’lumotlarni eslab qolish qobiliyati.

8) Diqqat-e’tiborni yo’naltirish - chalg‘imasdan muayyan vaqt davomida vazifaga e’tiborni qaratish qobiliyati.

9) Yaqin ko‘rish - tafsilotlarni yaqin masofadan ko‘rish qobiliyati (kuzatuvchidan bir necha metr masofada).

Tarjimonning kasbiy bilim va ko‘nikmalari

Chet tili - chet (ingliz tili bo‘lmagan) tilning tuzilishi va mazmunini, shu jumladan so‘zlarning ma’nosi va imlosi, kompozitsiya va grammatika qoidalari, talaffuzini bilish.

Ingliz tili - Ingliz tilining tuzilishi va mazmunini, shu jumladan so‘zlarning ma’nosi va imlosi, kompozitsiya qoidalari va grammatikasini bilish.

Aloqa va media - media ishlab chiqarish, kommunikatsiya va tarqatish texnikasi va usullarini bilish. Bunga yozma, og‘zaki va vizual ommaviy axborot vositalari orqali ma’lumot berish va ko‘ngil ochishning muqobil usullari kiradi.

Tarjimonlar va og‘zaki tarjimon (tilmoch)lar xabar yoki matnni bir tildan (odatda asliyat tili deb ataladi) boshqa tilga (tarjima tiliga) o‘tkazish orqali muloqotga yordam beradilar. Garchi ba’zi tarjimonlar bularning ikkalasi bilan ham shug‘illansa-da, tarjimonlik va tarjima qilish turli xil ko‘nikmalardir: tilmochlar og‘zaki nutq bilan, tarjimonlar esa yozma nutq bilan ishlaydilar.

Tilmochlar ma’lumotni bir og‘zaki tildan boshqasiga - yoki imo-ishora tili tarjimonlari misolida og‘zaki til va imo-ishora tili o‘rtasida o‘tkazadi. Tarjimonning maqsadi odamlar tarjima tilini xuddi asliyat tili kabi muammosiz tushunishidir. Tarjimonlar odatda ikkala tilda ham ravon so‘zlashuvchi yoki imo-ishorali bo‘lishi kerak, chunki ular umumiy tilga ega bo‘lmagan odamlar o‘rtasida muloqot qilishadi. Tarjimonlar o‘z xizmatlarini masofadan turib ham taqdim etishi mumkin.

Tilmochning uchta keng tarqalgan usuli mavjud, ular:

1. **Sinxron tarjimonlar** og'zaki yoki ishora qilayotgan paytda bir vaqtning o'zida og'zaki yoki imo-ishora tilidan boshqa tilga tarjima qiladi. Sinxron tarjimonlar mavzuni yaxshi bilishi va yuqori darajada diqqatni saqlab, xabarni to'liq va aniq yetkazishi kerak. Aqliy charchoq tufayli, sinxron tarjimonlar uzoq vaqt davomida ishlashsa, odatda juftlik yoki kichik guruhlarda ishslashlari mumkin masalan, sud yoki konferensiyada.
2. **Ketma-ket tarjimonlar** ma'ruzachi yoki ishora qilayotgan shaxs to'xtab, tarjimaga ruxsat bergenidan keyin uning xabarini boshqa tilga yetkazadi. Asosan, ketma-ket tarjima qilishda xabarni qisqartirib yozib olish muhim bo'ladi.
3. **Vizual tarjimonlar** tarjima qilingan hujjatni yozma shaklda emas, balki darhol tushunish uchun og'zaki tarjima qiladilar.

Tarjimonlar yozma materiallarni bir tildan boshqa tilga o'giradilar. Tarjimonning maqsadi odamlar uchun tarjima tilini huddi so'zlashuv tilidek o'qib berishidir. Buning uchun tarjimon manbaning yozma uslubi va tuzilishini saqlab qolgan takrorlay olishi, shu bilan birga jargon va to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydigan boshqa iboralarini ham to'g'ri yetkazishi lozim.

Tarjimonlar manba tilini mukammal bilishi kerak, lekin odatda tarjima til ularning ona tili bo'ladi. Ular veb-saytlar, marketing materiallari va foydalanuvchi hujjatlari kabi turli mahsulotlarni moslashtiradilar.

Deyarli barcha tarjimonlar o'z ishlarida dasturiy ta'minotdan foydalanadilar. Yangi matnni tarjima qilish uchun avval tarjima qilingan jumlalar yoki segmentlarning kompyuter ma'lumotlar bazasidan ("tarjima xotirasi" deb ataladi) foydalanadigan kompyuter yordamida tarjima (CAT) vositalari tarjimonlarga samarali va izchil ishslash imkonini beradi. Mashina tarjimasi dasturi avtomatik ravishda matnni manba tilidan maqsadli tilga ishlab chiqaradi, tarjimonlar uni keyin tahrirlash deb ataladigan jarayonda ko'rib chiqadilar. Tarjimalar yakuniga yetgunga qadar ko'pincha bir nechta tahrirlardan o'tadi.

Aksariyat tarjimonlar ma'lum bir soha yoki sohaga ixtisoslashgan bo'lsa-da, ko'pchilik bir nechta ixtisoslikka ega bo'ladi.

Quyida tarjimonlar turlariga misollar keltirilgan:

Jamoaviy tarjimonlar yakkama-yakka yoki guruhlarda til tarjimasini ta'minlash uchun turli jamoat sharoitlarida ishlaydi. Jamoaviy tarjimonlar ko'pincha ota-onalar majlisi, jamoat tadbirlarida, biznes va jamoat yig'ilishlarida, ijtimoiy va davlat idoralarida, yangi uy sotib olishda va boshqa ko'plab ish va jamoat sharoitlarida kerak bo'ladi.

Konferensiya tarjimonlari ingliz tilida so'zlashmaydigan ishtirokchilar bo'lgan tadbirdarda ishlaydi. Ish ko'pincha xalqaro biznes yoki diplomatiya sohasida bo'ladi, garchi konferensiya tarjimonlari chet tillarida so'zlashuvchilar bilan ishlaydigan har qanday tashkilot uchun xizmat ko'rsatishi mumkin. Ish beruvchilar odatda ikki tilni bitta ona tiliga aylantira oladigan tajribali tarjimonlarni afzal ko'radilar, masalan, ispan va fransuz tillaridan ingliz tiliga tarjima qilish qobiliyati. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan ishlaydigan ba'zi lavozimlar uchun ushbu malaka talab qilinadi.

Konferensiya tarjimonlari ko'pincha sinxron tarjima qiladilar. Konferensiya yoki yig'ilishda ma'ruzachining tilini tushunmaydigan ishtirokchilar eshitishni xohlagan tilda gapiradigan tarjimonga sozlangan qulqchinlarni taqib oladi.

Sog'liqni saqlash yoki tibbiyot tarjimonlari odatda sog'liqni saqlash muassasalarida ishlaydi va bemorlarga shifokorlar, hamshiralar, texniklar va boshqa tibbiyot xodimlari bilan muloqot qilishda yordam beradi. Tarjimonlar ikki tilda ham tibbiy terminologiyani bilishlari kerak. Ular bemorning roziligi haqidagi hujjatlarni, bemorlarning yozuvlarini, farmatsevtika va axborot broshyuralarini, normativ ma'lumotlarni va tadqiqot materiallarini bir tildan boshqa tilga tarjima qilishlari mumkin.

Sog'liqni saqlash yoki tibbiy tarjimonlar bemorlarning shaxsiy hayotiga e'tiborli bo'lishi va maxfiylik va axloqiy me'yorlarni saqlashi kerak.

Maishiy va hamroh tarjimonlar boshqa davlatdan kelgan mehmonlarda mamlakatning diqqatga sazovor joylarini tanishtirish faoliyati bilan shug'llanadi. Rasmiy va norasmiy sharoitlarda tarjima qilib, ushbu mutaxassislar tashrif buyuruvchilar tashriflari davomida muloqot qila olishlarini ta'minlaydi.

Yuridik yoki sud tarjimonlari va tarjimonlari odatda sudsarda va boshqa sud muassasalarida ishlaydi. Sud majlislarida va sud jarayonlarida ular ingliz tilini bilish darajasi cheklangan odamlarga yordam berishadi. Shunga ko'ra, ular yuridik terminologiyani tushunishlari kerak. Sud tarjimonlari ba'zan tarjima qilinayotgan tilda manba hujjatlarini ovoz chiqarib o'qishlari kerak, bu vazifani ko'rish orqali tarjima qilish deb nomlanadi.

Badiiy tarjimonlar kitoblar, she'rlar va boshqa nashr etilgan asarlarni asliyat tilidan tarjima tiliga o'tkazadilar. Mumkin bo'lgan taqdirda, badiiy tarjimonlar asl nashrning mo'ljallangan ma'nosini, shuningdek, adabiy va madaniy manbalarni olish uchun mualliflar bilan yaqindan hamkorlik qiladilar.

Lokalizatorlar matn va grafiklarni asliyat tilidan tarjima tiliga moslashtirish bo‘yicha keng qamrovli jarayon bilan shug‘ullanadi. Lokalizatorlar tarjimasining maqsadi mahsulot yoki xizmatni u sotiladigan mamlakatda mavjudligini ta‘minlashdan iborat. Ular nafaqat ikkala tilni bilishlari, balki ular bilan bog‘liq bo‘lgan texnik ma'lumotlar bilan tanish bo'lishlari hamda mahsulot yoki xizmatdan foydalanadigan odamlarning madaniyati haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak. Lokalizatorlar odatda jamoa bo'lib ishlaydi.

Imo-ishora tili tarjimonlari kar yoki eshitish qobiliyati past odamlar bilan eshitish qobiliyatiga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi muloqot imkonini yaratadi. Imo-ishora tili tarjimonlari ingliz va Amerika imo-ishora tili (ASL)ni yaxshi bilishlari kerak, bu esa tilda imzo qo'yish, barmoqlar imlosi va o'ziga xos tana tilini uyg'unlashtiradi. Bu ingliz tilidan alohida til bo'lib, o'z grammatikasiga ega.

Ba'zi tarjimonlar kar yoki eshitish qobiliyati past odamlar uchun tarjimonlikning boshqa turdagи shakllariga ixtisoslashgan.

Kar yoki eshitish qobiliyatiga ega bo‘lgan ba'zi odamlar AIT tizimiga kirish o'rniغا yoki unga qo'shimcha ravishda ingliz tilini lablarida o'qiydilar. Bunday odamlar bilan ishlaydigan tarjimonlar past tovushda va ehtiyotkorlik bilan “og‘zaki tarjima” qilishadi. Ular, shuningdek, labda o'qiydigan o'quvchi tushunishiga yordam berish uchun yuz ifodasi va imo-ishoralardan foydalanishlari mumkin.

Tarjima qilishning boshqa usullariga esa labda o'qiydiganlarga ko'proq ma'lumot berish uchun og'iz bo'shlig'iga yaqin joylashgan qo'l belgilaridan foydalanadigan so'zli nutq; aniq ingliz tilini imzolash; va teginish orqali muloqot - ya’ni ko‘r va karlar uchun qo‘l belgilarini ularning qo'liga tekkizgan holda ifodalash kabilari kiradi.

Uch tilli tarjimonlar ingliz tilida so‘zlashuvchi, boshqa tilda so‘zlashuvchi va ASL foydalanuvchisi o‘rtasida muloqot imkonini yaratadi. Ular xabarning asosiy ma'nosini o'zgartirmasdan har uch tilda ham talqin qila olish uchun zarur bo'lgan ko'p qirrali va madaniy tushunchaga ham ega bo'lishlari kerak.

4-mavzu: TARJIMONNING UMUMIY KOMPETENSIYALARI.

Reja:

1. Tarjimonning lingvistik kompetensiyasi.
2. Tarjimonning pragmatik kompetensiyasi.
3. Tarjimonning sotsiolingvistik kompetensiyasi.
4. Tarjimonning diskursiv kompetensiyasi.
5. Tarjimonning strategik kompetensiyasi.

Tarjimonlik kompetensiyasi tarjimonning kasbiy mahorati va imkoniyatlarini, uning ijtimoiy, kommunikativ hamda matnlarni o‘girish qobiliyatini tavsiflovchi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning asosini asliyat va ona tillari hamda madaniyatları bo‘yicha qobiliyat, bilim, malaka va xulq birikmasidan iborat axborot zaxirasi tashkil qiladi. Axborot zaxirasi muammosi madaniyatlar ziddiyatini bartaraf etish bo‘yicha tarjimonning kasbiy majburiyatları doirasiga kiradi. Pofessional tarjimonlar tayyorlash bo‘yicha qabul qilingan Umumevropa hujjatida tarjimonlik faoliyatini to‘laroq yoritib beradigan kompetensianing lingvistik, tematik, madaniyatlararo, texnologik, axborot va tarjima xizmatlarini ko‘rsatish kabi turlari tarjimon tomonidan axborotni muvofaqqiyatli yetkazib berish nafaqat uning lisoniy tayyorgarligining yuqori darajadaligini, balki boy informasion zaxiraning ham bo‘lishini taqoza yetadi. Aynan bir xil lisoniy belgilar har xil tillarning sohiblarida va turli madaniyat vakillarida har xil assosiatsiyalarni chaqirishi mumkin bo‘lsa, nutq registrlari hamda suhbatdoshning sosial statusi kabi ijtimoiy belgilar ham tarjima jarayonida alohida madaniyatlararo kompetensianing shakllangan bo‘lishini taqozo etadi.

Tarjimon kompetensiyasi ikkita asosiy kategoriyaga bo’linib, ular umumiyl va kasbiy kompetensiyalar xisoblanadi. Tarjimonning umumiyl kompetensiyasiga lingvistik, pragmatik, sotsiolingvistik, diskursiv, ijtimoiy-madaniy, strategik, texnologik, sotsial, predmet bo‘yicha kompetensiyalarni o’z ichiga oladi.

Tarjimonning lingvistik kompetensiyasi

- ushbu kompetensiyani qiyosiy jihatdan bilish, ya’ni asliyat tili va tarjima qilinayotgan tilning aloqalarini bilish, ularning til tizimlari, til me’yorlari, nutq (uzual) me’yorlaridagi o‘xshashlik va farqlar;
- ixtisoslikning chet til va ona tilidagi xususiyatlarini bilish;
- ixtisoslik tilining grammatik va sintaktik strukturalariga asosan tanlab olingan leksik minimum bilan ishslash qobiliyati;
- chet til va kasbiy tilda terminlar (iboralar)ni hosil qilish usullarini bilish;
- chet til va kasbiy tilda qiyosiy jihatdan kasbiy faoliyatning tegishli sohasiga oid umumfan va tor ixtisoslik leksikalarini bilish;
- o‘zbek tilida chet tilidagi terminlar ekvivalentini topish yoki tegishli adabiyotlaridan foydalangan holda yangi terminlarni yaratish qobiliyati;
- o‘z bilimlaridagi bo‘shliqni mustaqil ravishda to‘ldirish, xususan, chog‘ishtirish qobiliyati.

Tarjimonning pragmatik kompetensiyasi

- tarjima matni mazmunidan asliyat matnini jo‘natuvchi haqidagi ma’lumotni ola bilish qobiliyati;
- gap muallifining muloqotdan ko‘zlangan maqsadini aniqlash imkonini beruvchi ixtisoslik bo‘yicha matnning lisoniy va tarkibiy xususiyatlarini bilish;
- asl matnni jo‘natuvchi va tarjima matnini qabul qilib oluvchining bilim darajasi va tasavvurlarini qiyoslash qobiliyati;
- tarjima matni asosida qabul qilib oluvchining maqsadi va qiziqishlarini bilish;
- strategiyani tanlash va ixtisoslik bo‘yicha matn tarjimasini qabul qilib oluvchining ruhiy holati, maqsadi va qiziqishlarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati;
- tarjima matni va uni qabul qilib oluvchining xarakterini inobatga olgan holda uning muallifi maqsadini yetkazib berish qobiliyati;
- tarjima matnni qabul qilib oluvchilar uchun muallif maqsadining adekvat ravishda tushunarli bo‘lishi uchun matnni soddalashtirish darajasini aniqlash qobiliyati.

Tarjimonning sotsiolingvistik kompetensiyasi

- tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi ilmiy-texnik soha vakillari bilan muloqotning sotsiolingvistik xususiyatlarini bilish;

- ilmiy va texnik ma'lumotlarni chet tili maxsus diskursida taqdim etish xususiyatlarini bilish;

- maxsus diskursning sosiolingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish qobiliyati;

- chet til va ona tili maxsus diskursining sosiolingvistik xususiyatini qiyoslash va tahlil qilish qobiliyati;

- ilmiy-texnik sohada muloqot uchun qabul qilingan nutq madaniyati modelini buzmagan holda kasbiy tilda muallifning gapi va maqsadini yetkazib berish qobiliyati;

- tarjima matnini qabul qilib oluvchining ijtimoiy-madaniy bilimlarini inobatga olgan holda milliy-madaniy komponentga ega leksika – ekvivalentlari – ekvivalentli leksika, xos so'zlar mohiyatini tushunish va o'quvchiga yetkazib berish qobiliyati.

Tarjimonning diskursiv kompetensiyasi

- tarjimon faoliyati uchun xos diskursning asosiy janrlarini bilish, ularni amalga oshirish jarayonida erishiladigan kommunikativ maqsadlar hamda ularni chet til va ona tilida ifodalash qoidalari va o'ziga xos xususiyatlarini bilish;

- shu maqsadlarni kasbiy tilda to'liq yetkazib berish uchun ushbu tavsiflarni ona tilidagi maxsus diskurs janrlari haqidagi ma'lumotlar yordamida qiyoslash;

- muallifning fikri va muloqot vaziyatini inobatga olgan holda ona tiliga tarjima qilish uchun maxsus diskursning tegishli janrini tanlay bilish;

- tarjima matni muallifi fikrini ifodalashda mantiqiy ketma-ketlikni yaratish qobiliyati;

- tarjima matnini yaratish jarayonida muloqotning ilmiy-texnikaviy sohasida qabul qilingan nutq va nutqdan tashqari hulq me'yorlariga amal qilish;

Tarjimonning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi

- tili o'rganilayotgan mamlakatning fan va texnika sohasidagi institutlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini bilish va maxsus diskursni yaratish, tarjima qilishda ushbu bilimlarni qiyoslay olish;

- tili o'rganilayotgan mamlakatning kasbiy sohaga doir muloqot qoidalari, an'ana va me'yorlarini bilish va maxsus diskurs yaratish va tarjima qilishda ushbu bilimlarni qiyoslash;

- tarjima jarayonida maxsus diskursni ijtimoiy-madaniy jihatdan soddalashtirishning kerakli darajasini aniqlash qobiliyati

Tarjimonning strategik kompetensiyasi

- tarjimaga aniqlik kirituvchi omillar (pragmatik, lingvistik, ijtimoiy-madaniy, diskursiv, situativ) va ixtisoslik bo'yicha matnlarni tarjima qilishda ularning tarjima strategiyasini tanlashga ta'sir ko'rsatish darajasini bilish;
- tarjimaga aniqlik kirituvchi maksimal miqdordagi omillarni aniqlash va muayyan muloqot vaziyatida ixtisoslikka doir matnlarni tarjima qilish strategiyasini ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim bo'lganlarini tanlab olish qobiliyati;
- aniqlovchi omillar asosida tarjima jarayonlarining ketma-ketligini ishlab chiqish qobiliyati;
- foydalanilayotgan tarjima strategiyasini asoslab bera olish.

Tarjimonning texnologik kompetensiyasi

- mamlakatdagi va tili o'rganilayotgan mamlakatdagi tizimlarni, til va nutq me'yorlarini farqlash usullarini bilish hamda ulardan tarjima jarayonida samarali foydalanish;
- kasbiy muloqot sohasi vakillari sifatida asliyat til jo'natuvchisi bilan tarjima tili qabul qiluvchisining pragmatik imkoniyati orasidagi farqlarni bartaraf qilish usullarini bilish hamda tarjima matnida muallif fikri va istagini ifodalashda ulardan foydalanishni bilish;
- chet til va ona tilidagi maxsus diskursning janr turlari orasidagi farqlarni bartaraf qilish usullarini bilish va ona tilidagi maxsus diskursda axborot taqdim etish me'yorlari asosida tarjima tilida ulardan foydalanishni bilish;
- dunyoning professional xaritasi. asl matnni jo'natuvchi va tarjima matnnini qabul qilib oluvchi ijtimoiy-ma'naviy potensiali orasidagi farqlarni bartaraf etish usullarini bilish hamda tarjima matnida ulardan foydalanishni bilish;
- ixtisoslik bo'yicha matnlarni tarjima qilish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan tashqi manbalarni aniqlash hamda kasbiy faoliyatda ulardan foydalanishni bilish.

Tarjimonning sosial (ijtimoiy) kompetensiyasi

- ilmiy-texnik matnlar tarjimonlarini birlashtiruvchi tashkilotlar, kasaba uyushmalari haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- kasbiy muhitda (korxona/firma, hamkasb tarjimonlar, tashkiliy xizmatlar vakillari va b.) muloqot olib borish me'yorlarini bilish;
- ixtisoslik bo'yicha matnlarni tarjima qilish borasida ish qidirishda yordam berilishi lozim bo'lgan tashkilotlar, firmalar, korxonalar, Internet saytlari haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- mehnat bozorida o'z xizmatlarini taklif qilishni bilish;

- o‘zining professional malaka va bilimlari (professional kompetensiyasi)ni to‘g‘ri baholash qobiliyati;

- mehnatga haq to‘lash to‘g‘risida shartnoma tuzishni bilish;

- ish beruvchidan tarjima uchun kerakli axborot/ma’lumotni olish qobiliyati;

- mutaxassislar, tegishli soha ekspertlari, firma-korxonadagi hamkasblar bilan hamkorlik qilish yo‘llarini bilish;

- hamkasb tarjimonlar bilan hamkorlik qilish yo‘llarini bilish.

Tarjimonning predmet bo‘yicha kompetensiyasi

- fan va texnika sohasidagi akademik bilimlarga ega bo‘lish va ulardan ixtisoslik bo‘yicha matnlarni tarjima qilish jarayonida foydalanishni bilish;

- tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi fan va texnikaning yaratilish va rivojlanish tarixini bilish;

- ixtisoslik bo‘yicha matn yaratish va tarjima qilishda bilimlarni qiyoslash qobiliyati;

- tili o‘rganilayotgan mamlakat va O‘zbekiston Respublikasidagi ilmiy va texnik tushunchalarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish;

- tarjima matnida adekvat tarzda yetkazib berish maqsadida ushbu xususiyatlarni tahlil qilish va qiyoslash qobiliyati.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu: TARJIMONNING KASBIY KOMPETENSIYALARI

Reja:

1. Til va madaniyat kompetensiyasi.
2. Tarjima kompetensiyasi.
3. Texnologik kompetensiya.
4. Shaxsiy va shaxslararo kompetensiya.
5. Xizmat ko'rsatish kompetensiyasi

Tarjima bozori ko‘p qirrali bo‘lib, odamlar bu xizmatga ehtiyoj sezaga boshladi turli xil kontent turlariga mos keladigan tarjima jarayonlarining kengayib borayotgan spektrini qamrab olmoqda. Ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatida kengayishi esa ba’zi tarjima muhitlarida an’anaviy “ona tili” tamoyilini qayta ko‘rib chiqishni talab qiluvchi yangi ehtiyojlarni keltirib chiqarmoqda. Turli xil auditoriyalarga xizmat ko‘rsatish ko‘p tilli va multimedia materiallarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanishda kirish imkoniyatiga e’tibor qaratishni talab qiladi. Ushbu o‘zgarishlar tarjimonlarni tayyorlashga oid akademik dasturlarda inobatga olinishi kerak, shunda kelajak bitiruvchilari ushbu muammolar va imkoniyatlarni anglab, o‘z ko‘nikmalarini va amaliyotlarini moslashtira oladilar va turli xil global auditoriyani kengroq qamrab olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tarjimonning kasbiy kompetensiya deganda bo’lajak tarjimonning soha bo'yicha egallagan bilim, malaka va ko’nikmalar majmui xisoblanadi. Malaka vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish uchun bilim va qanday bilib olish usulini qo’llash qobiliyatini anglatadi. Bilim” o‘qish jarayonida ma'lumotlarni o‘zlashtirish natijasini anglatadi. Bilim — bu ish yoki o‘qish sohasi bilan bog‘liq faktlar, tamoyillar, nazariyalar va amaliyotlar majmuidir. Ko’nikma – o‘quv jarayoni yakunida o‘quvchi biladigan, tushunadigan va bajarishga qodir bo‘lgan vazifalarni ifodalovchi fikrlardir. Ular bilim, ko’nikma, mas’uliyat va mustaqil nuqtai nazari orqali aniqlanadi. Kompetensiya ish yoki o‘qish jarayonlarida hamda professional va shaxsiy rivojlanishda bilim, ko’nikma va shaxsiy, ijtimoiy va/yoki metodologik malakalarini qo’llash qobiliyatini anglatadi.

Tarjimonning asosiy beshta kasbiy kompetensiyasi mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Til va madaniyat kompetensiyasi

Ushbi kompetensiya tarkibiga transmadaniy, sotsiolingvistik bilim va kommunikativ mahorat ham kiradi va ilg'or tarjima kompetensiyasining asosini tashkil etuvchi barcha umumiylar yoki tilga xos lingvistik, sotsiolingvistik, madaniy va transmadaniy bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bu boshqa kompetensiyalarning har biri bilan bog'liq bo'lgan kuchli harakatni ta'minlaydi va shuning uchun talabalar o'z ta'limgardagi davomida ushbu sohalardagi kompetensiyalarini mukammallashtirishlari muhim. Ushbu kompetensiyalar shakllanishi uchun quyidagi qobiliyatlar rivojlanishi kerak:

- Tildagi (ijtimoiy, geografik yoki tarixiy) o'zgarishlarning funksiyasini tushunish va o'z ishchi tillarining mos grammatik, leksik va idiomatik tuzilmalaridan samarali foydalana olish;
- Yozma yoki og'zaki matndagi madaniy unsurlar, qadriyatlar va ishora hamda stereotiplarni aniqlash va madaniy konvensiyalar, janr konvensiyalar va retorik standartlarga muvofiq yozish.

Tarjima kompetensiyasi

Mazkur kompetensiya o'z ichiga strategik, metodologik va tematik kompetensiyalarni o'z ichiga olib, bu kompetensiya eng keng ma'noda tushunilishi kerak, ya'ni ikki til o'rtasida (interlingual) ma'noni o'tkazish jarayonini, shu jumladan, oraliq tillardan foydalanishni yoki bir til ichida (intralingual) tarjima qilishni qamrab olish bilan birga, ma'noni yetkazish bosqichidan oldin, davomida va undan keyin yuzaga keladigan barcha strategik, metodik va tematik kompetensiyalarni ham o'z ichiga oladi. Bu hujjatlarni tahlil qilishdan tortib yakuniy sifat nazoratigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Tarjima kompetensiyasi shakllantirish uchun talabalar quyidagilarni bilishi kerak:

1. Asliyat matnnini tahlil qilish: Matndagi mumkin bo'lgan matn va kognitiv qiyinchiliklarni aniqlash hamda kommunikativ ehtiyojlarga muvofiq uni qayta ifodalash uchun zarur strategiya va resurslarni baholash;
2. Xabarni moslashtirish: Bir yoki bir nechta tarjima tillarida tez va aniq tarzda xabarni qisqartirish, qayta tuzish, qayta ifodalash va bozor ehtiyojlariga moslashtirish (yozma yoki og'zaki usulda);
3. Tadqiqot olib borish: Tarjima ehtiyojlariga muvofiq axborot manbalarining ahamiyati va ishonchlilagini baholash;

4. Tematik va sohaviy bilimlarni rivojlantirish: Tarjima ehtiyojlariga mos tushadigan mavzu va sohaga oid bilimlarni egallash, rivojlantirish va qo'llash (tushuncha tizimlarini, mulohaza yuritish usullarini, taqdimot standartlarini, terminologiya va iboralarni, maxsus manbalarni o'zlashtirish);
5. Ko'rsatmalarni bajarish: Muayyan tarjima uchun tegishli ko'rsatmalar, uslub qo'llanmalari yoki konvensiyalarni amalga oshirish;
6. Umumiylar va sohaviy materiallarni tarjima qilish: Bir yoki bir nechta manba tillaridan maqsad tillariga sifatli, maqsadga muvofiq tarjima yaratish;
7. Har xil turdagilarni tarjima qilish: Har xil media va auditoriyalar uchun mos vositalar va usullarni qo'llab tarjima qilish;
8. Madaniyatlararo va ichki madaniy muhitda tarjima va vositachilik qilish: Davlat xizmatlari tarjimasini (va tarjimonligi), veb-sayt yoki video o'yinlarni lokalizatsiya qilish, kirish imkoniyati va jamiyatni boshqarish kabi maxsus kontekstlarda ishslash;
9. Maxsus maqsadlar uchun matnlarni yozish: Bir yoki bir nechta ishchi tillarda muayyan vaziyatlar, maqsadli auditoriyalar va cheklovlarini hisobga olgan holda matnlarni yaratish;
10. Tarjima yechimlarini tahlil qilish va asoslash: Mos keladigan metatilda tarjima qarorlarini asoslash va tegishli nazariy yondashuvlarni qo'llash;
11. Ishni tekshirish va baholash: O'zlarining va boshqalarning ishini standart yoki ishga xos sifat maqsadlariga muvofiq tekshirish, ko'rib chiqish, tahrirlash va baholash, ish uchun vositalarning mosligini aniqlash;
12. Sifat nazorati strategiyalarini amalga oshirish: Mos vositalar va usullardan foydalangan holda sifatni ta'minlash strategiyalarini tushunish va qo'llash;
13. Matnni tarjima vositasi yordamida tahririga tayyorlash: Asliyat matni mazmunini tarjima vositalarida qayta ishslashga moslashtirish.
14. Mashina tarjimasini natijalarini tahrirlash: Mashina tarjimasini loyihamda sifat standartlarini saqlab qolish uchun uslub qo'llanmalari va terminologiya lug'atlarini qo'llagan holda post-tahrirni amalga oshirish.

Texnologik kompetensiya

Hozirgi va kelajakdagi tarjima texnologiyalarini tarjima jarayonida qo'llash va ulardan foydalanish bo'yicha maslahat berish uchun zarur bo'lgan barcha bilim va ko'nikmalar. Shuningdek, mazkur kompetensiya mashina tarjimasini texnologiyalarini bo'yicha asosiy bilimlarga ega bo'lish va ularni ehtiyojlarga qarab qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Texnologik kompetensiyasini shakllantirish uchun talabalar quyidagilarni bilishi kerak:

1. Ofis dasturlari majmuasi va boshqa mos IT dasturlaridan foydalanish, shuningdek, yangi vositalar va resurslarga tezda moslashish, ularning dolzarbligini va ish amaliyotlariga ta'sirini tanqidiy baholagan holda ishslash;
2. Izlash tizimlari, korpusga asoslangan vositalar, matn tahlili vositalari, kompyuter yordamida tarjima (CAT) dasturlari va sifatni ta'minlash (QA) vositalaridan samarali foydalanish.
3. Tarjima ish jarayonining bir qismi sifatida fayllar va boshqa media/manbalarni (masalan, veb va multimedia fayllari) oldindan tayyorlash, qayta ishslash va boshqarish;
4. Mashina tarjimasi (MT) tizimlarining asoslarini va ularning tarjima jarayoniga ta'sirini tushunish hamda zarur bo'lganda mashina tarjimasini tarjima ish jarayoniga integratsiya qilish;
5. Tarjima va til ma'lumotlarining ahamiyatini va qadriyatini xisobga olish, ma'lumotlar bilan ishslash ko'nikmalarini namoyon etish.

Shaxsiy va shaxslararo kompetensiya

Mazkur kompetensiya umumiy ko'nikmalarni o'z ichiga olib, bo'lajak tarjimonlarning moslashuvchanligi va ishga layoqatlilagini oshiradi. Shaxsiy va shaxslararo kompetensiyasini shakllantirish uchun talabalar quyidagilarni bilishi kerak:

1. Vaqt ni rejalashtirish va boshqarish (shu jumladan, muddatlarga rioya qilish);
2. Ish yukini, kognitiv yuklamani, stressni va muhim kasbiy vaziyatlarni boshqarish;
3. Mustaqil ravishda va virtual, madaniyatlararo hamda ko'p tilli jamoalarda mos aloqa texnologiyalaridan foydalanib ishslash;
4. Ijtimoiy tarmoqlardan professional maqsadlarda mas'uliyat bilan foydalanish.
5. Ish muhitining tashkiliy va jismoniy ergonomikasini hisobga olish va unga moslashish.
6. Doimiy ravishda o'z-o'zini baholash, shaxsiy strategiyalar va hamkorlikda o'qish orqali ko'nikma va bilimlarni yangilash hamda rivojlantirish, shuningdek, uzlusiz o'qishning ahamiyatini anglash.

Xizmat ko'rsatish kompetensiyasi

Ushbu kompetensiya tarjima va umumiy til xizmatlarini kasbiy sharoitda amalga oshirish bilan bog'liq barcha ko'nikmalar, jumladan, mijozlar, buyurtmachilar va foydalanuvchilarni anglashdan tortib, muzokaralar, loyiha boshqaruvi va sifatni ta'minlashgacha o'z ichiga oladi. Xizmat ko'rsatish kompetensiyasini shakllantirish uchun talabalar quyidagilarni bilishi kerak:

1. Jamiyat va til sohasidagi yangi talablar, bozorning yangi ehtiyojlari va paydo bo'layotgan kasbiy yo'nalishlarni kuzatish va ularga moslashish;

2. Mavjud mijozlar bilan ishlash va tegishli yozma va og‘zaki aloqa usullaridan foydalanib, yangi mijozlarni jalg qilish uchun prospektlash va marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
3. Mijozlar, til xizmatlari foydalanuvchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning talab, maqsad va ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlarni taklif qilish;
4. Tarjima jarayonining barcha bosqichlarida mijoz bilan muloqot qilish (muddatlar, tariflar/ko‘rsatkichlar, ish sharoitlari, ma’lumotga kirish, shartnomalar, huquqlar, majburiyatlar, til xizmati spetsifikatsiyalari, tender shartlari, fikr-mulohazalar va h.k. bo‘yicha muzokaralar olib borish);
5. Bir yoki bir nechta tarjimonlar va/yoki boshqa xizmat ko‘rsatuvchilarni jalg qilgan holda tarjima loyihamonlari tashkil qilish, byudjetlashtirish va boshqarish;
6. Til xizmatlarini ko‘rsatishga oid qo‘llaniladigan standartlarni tushunish va amalga oshirish;
7. Belgilangan sifat standartlariga mos sifatni boshqarish va sifatni ta’minlash tartiblarini qo‘llash hamda mijozlarning fikr-mulohazalari va shikoyatlarini boshqarish;
8. Etika qoidalari va yaxshi amaliyot qo‘llanmalarida belgilangan axloqiy tamoyillar (masalan, maxfiylik, halol raqobat, xolislik) doirasida tanqidiy baholash va ishslash;
9. Individual va jamoaviy kasbiy ko‘rinuvchanlikni oshirish uchun boshqa tarjimonlar va til xizmati ko‘rsatuvchilar bilan, shu jumladan, kasbiy uyushmalar, tadbirlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarmoq tuzish;
10. Til xizmatlari va siyosiyatlarini tahlil qilish, tanqidiy ko‘rib chiqish va ularni ijtimoiy va iqtisodiy ma’suliyat doirasida yaxshilash strategiyalarini taklif qilish.

2-mavzu: TARJIMA ISHINI BAHOLASH MEZONLARI

Reja:

1. Tarjimani baholashning lingvistik meyorlari.
2. Tarjimani baholashning pragmatik meyorlari.
3. Tarjimani baholashning strategik meyorlari.
4. Tarjimani uslub va tarkibiy qismlarini baholash meyorlari.
5. Tarjimani vaziyatga moslik jihatini baholash meyorlari.
6. Tarjimani tarjima ko'nikmasi meyoriga ko'ra baholash.

Bo'lajak tarjimonning tarjima ishlarini baholash jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega. Odatda ta'lim jarayonida ta'limning formativ va summativ ko'rinishlari mavjud. Biroq, tarjimani baholashda ko'proq formativ baholash ustuvor bo'ladi. Chunki tarjima darslarini har birida talabalarga o'qituvchi tomonidan tarjima materiallari topshiriq sifatida beriladi. Talabalarda tarjimaning umumiy va kasbiy kompetensiyalari, tarjima bo'yicha ko'nikmalari asta sekinlik bilan takomillashib boradi. Xar bir dars talabalarning tarjimalariga nisbatan feedback berish talabalarda tarjima jarayonida yo'l qo'yan xatoliklar, yuzaga kelgan g'alizliklarni o'z o'mnida anglashga va ularni kamaytirishga yordam beradi. Shunday qilib, tarjimani baholashda tarjima matni quyidagi meyorlarga mos bo'lishi lozim:

Tarjimani baholashning lingvistik me'yorlari

Tarjima ko'p jihatdan ikki til o'rtasidagi xabarni tarjima qilishning kommunikativ faoliyati hisoblanadi. Ushbu faoliyat ikki tilda ma'lum darajada kommunikativ kompetensiyani talab qiladi. Aniq grammatik kompetentsiya tarjima jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon tarjima tilning lugat tarkibini (tildagi so'zlar), morfologiyani (kichik leksik birliklardan so'z hosil qilish usuli), sintaksisni (so'zlardan frazalar va gaplarni hosil qilish usuli) va grafemik (yozuv tizimi) bilimlarini nazorat qilishni ko'zda tutadi

Ushbu jihatlarning har biri asliyat matnini talqin qilish va tarjima matnining ishlab chiqilishiga hissa qo'shadi. Ushbu sohalardan birida yuzaga keladigan muammo tarjima jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Lug'at boyligini kamligi asliyat matnini noto'g'ri tushunishga yoki tarjima matnida ma'noni o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Ushbu kompetentsiyani lug'atlardan aniq va mahoratli foydalanish, va boshqa professional resurslarni qo'llay olish orqali

kuchaytirish mumkin, lekin bu faqat ma'lum darajada yordam beradi. Tarjimonning morfologiya va sintaksis bo'yicha bilimlari tarjima jarayonida yordam beradi. Sintaksis va morfologiyaning ma'noga ta'sirini tushunmaslik ham asliyat matnini noto'g'ri anglashga, shuningdek, tarjima matnida qiyin yoki chalg'ituvchi holatlarni paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Grafemik bilim ham tarjima jarayonida muhim rol o'ynaydi. Punktuation va diakritik belgilarning farqlarini tushunmaslik asliyat matnini noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Yozish texnikasi bo'yicha bilimning yetishmasligi yoki grafemik bilimni noto'g'ri qo'llash, ma'noni yetkazishda chalg'itishi va tarjima matnini tushunishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, grammatic kompetentsiyalar tarjima jarayonida muhimdir va har qanday asl tarjima tarzida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita baholanadi.

Lingvistik me'yor deyilganda bevosa matn xususiyatiga ko'ra, tarjima matniga qo'yiladigan talablar nazarda tutiladi. Bunda asliyat va tarjima matnlarining ham shaklan, ham kontent jihatidan o'zaro bir-biriga mos bo'lishi lozim. Tarjimaning lingvistik moyor bo'yicha quyidagicha baholash mumkin:

5 baho	Tarjima tili grammatikasi, imlosi va punktuatsiyasidan chuqur bilimga ega. Tarjimada juda kam yoki umuman xatolar yo'q
4 baho	Tarjima tili grammatikasi, imlosi va punktuatsiyasidan yetarli mahoratga ega. Tarjimada ba'zan kichik xatolar mavjud
3 baho	Tarjima tili grammatikasi, imlosi va punktuatsiyasidan qoniqarli bilimga ega. Tarjimada tez-tez kichik xatolar mavjud
2 baho	Tarjima tili grammatikasi, imlosi va punktuatsiyasidan yetarli bilimga ega emas. Tarjimada ko'p xatolar bilan muammoga duch keladi.

Tarjimani baholashning pragmatik moyorlari

Tarjimani baholashning pragmatik moyorlari asliyat matnidagi struktur izchilllik, til uslublarining o'ziga xosligi, mantiqiylik kabilarni o'z ichiga oladi. Tarjimada pragmatik tasirni saqlab qolinish yuzasida tarjima matni quyidagicha baholanadi:

5 baho	Tarjima juda yaxshi tashkil etilgan bo'lib, bo'limlar va paragraflar tarjima tili matnlariga mos ravishda berilgan. Tarjima mohirona uslubga ega. U mukammal ravishda birlashib, tabiiy bir butunlikni hosil qiladi.
4 baho	Tarjima yaxshi tashkil etilgan bo'lib, bo'limlar va paragraflar tarjima tili matnlariga mos ravishda berilgan. Tarjima uslubga ega. U yaxshi birlashadi va mantiqiy bir butunlikni hosil qiladi.
3 baho	Tarjimada bo'limlar va paragraflar tarjima tili matnlariga mos ravishda tashkil etilgan. Tarjima uslubi ba'zi nomutanosibliklarga ega. Ba'zi jumlalar g'aliz berilgan.

2 baho	Tarjimada bo'limlar va paragraflar tarjima tili matnlariga mos kelmaydi. Tarjima uslubiy jihatdan noqulay. Tarjima matni mazmunan o'zaro bog'lanmagan.
--------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Tarjimani baholashning pragmatik meyorlari tarjimonning tarjima tili sohibarining turli sohalardagi bilimlari va mavjud madaniy farqlarda xabardor bo'lishi bilan bopg'liq. Shuning uchun, pragmatik meyor deganda talabalarning diskurs va tilning ijtimoiy-madaniy jihatlari bo'yicha bilimini baholashimiz kerak.

5 baho	Tarjima matni tarjima tili auditoriyasiga murojaat qilish va tarjimaning maqsadiga erishishda ustunlikni ko'rsatadi. So'zlar mahorat bilan tanlangan va kontekstga mos keladi. Madaniy havolalar, diskurs va uslub tarjima tili sohasiga, matn turiga va o'quvchilarga to'liq mos keladi.
4 baho	Tarjima matni tarjima tili auditoriyasiga murojaat qilish va tarjimaning maqsadiga erishishda mahorat bilan berilgan. So'zlar tanlovi yaxshi. Madaniy havolalar, diskurs va registr tarjima tili sohasiga, matn turiga va o'quvchilarga doimiy ravishda mos keladi.
3 baho	Tarjima matni tarjima tili auditoriyasiga murojaat qilish va tarjimaning maqsadiga erishishda yaxshi berilgan. Madaniy havolalar, diskurs va uslub tarjima tili sohasiga mos, lekin bazi iboralar va so'zlar tarjima tili sohasiga, matn turiga va o'quvchilarga nisbatan juda rasmiy yoki norasmiy tarzda berilgan.
2 baho	Tarjima matni tarjima tili auditoriyasiga murojaat qilish va tarjimaning maqsadiga erishishda muvaffaqiyatsiz. Madaniy havolalar, diskurs va registr tarjima tili sohasiga ba'zan mos kelmaydi, ko'plab iboralar va so'zlar tarjima tili sohasiga, matn turiga va o'quvchilarga nisbatan juda rasmiy yoki norasmiy tarzda berilgan.

Tarjimani baholashning strategik meyori

Tarjimani baholashning bu turida tarjima boshlanishidan oldin qanday uslubni qo'llanishi, tarjima jarayonida esa qanday usul va strategiyalardan samarali foydalanish natijasidagi mohirona tarjimani yuzaga kelish meyori baholanadi.

5 baho	Tarjimon tarjima tilidagi muammolarga aql-idrok bilan yondashib, ijodiy yechimlarni namoyon qiladi. Bunda tarjimonni mohirona materiallardan foydalanganligini bildiradi.
4 baho	Tarjima tili tarjima muammolarini aniqlash va bartaraf etishda izchil qobiliyatni namoyish etadi. Qo'pol imloviy va leksik xatolar yo'q va juda kam xatolar bo'ladi. Manba materiallaridan foydalanishda hech qanday sezilarli xato yo'q.
3 baho	Tarjima tili muammolarini aniqlash va bartaraf etishning umumiyligi qobiliyatini namoyish etadi. Biroq, bir katta xato yoki bir qancha kichik xatolar mavjud bo'lib, tarjimaning umumiyligi sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Manba materiallaridan noto'g'ri yoki noaniq foydalanish tarjima matnida aks etishi mumkin.
2 baho	Tarjima muammolarini aniqlash va/ yoki hal qilishda muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Bir nechta katta xatolar yoki juda ko'p kichik xatolar mavjud bo'lib,

	ular tarjimaning umumiy sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Manba materiallaridan noto'g'ri yoki noaniq foydalanish tarjima matnida aks etgan.
--	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Tarjimani uslub va tarkibiy qismlarini baholash meyorlari

5 baho	Tarjima matni bo'limlari va paragraflari tarjima tili matnlariga mos ravishda juda yaxshi tashkil etilgan. Tarjima uslubi mukammal. Matn bir izchil va tabiiy bir butunlikni hosil qiladi.
4 baho	Tarjima matni bo'limlari va paragraflari tarjima tili matnlariga mos ravishda juda yaxshi tashkil etilgan. Tarjima uslubi yaxshi. Matn izchil va yaxlit ko'rinishga ega
3 baho	Tarjima matni bo'limlari va paragraflari tarjima tili matnlariga qisman mos ravishda yaxshi tashkil etilgan. Tarjima uslubi ba'zida nomuvofiq bo'lishi mumkin. Ba'zan noo'rin joylashtirilgan elementlar mavjud.
2 baho	Tarjima matni bo'limlari va paragraflari qisman noo'rin tashkil etilgan yoki o'xshash. U tarjima tili matnlariga mos kelmaydigan tarzda tuzilgan. Tarjima uslubi no'noq. Matnda izchillik yo'q va ba'zi joylarda noaniq yoki noo'rin joylashgan elementlarga ega.

Tarjimani vaziyatga moslik jihatini baholash meyori

5 baho	Tarjima matni tarjima til auditoriyasi bilan muloqotga kirishadi va tarjima tilida ko'zlangan maqsadga erishish borasida to'laqonli vaziyatni namoyish etadi. So'z tanlovi mahoratlari va o'rinli. Madaniy belgilar, nutq uslubi va uslubiy qatlam tarjima tilining uslubi, matn turi va auditoriyaga to'liq mos keladi.
4 baho	Tarjima matni tarjima til auditoriyasi bilan muloqotga kirishadi va tarjima tilida ko'zlangan maqsadga erishish borasida yaxshi vaziyatni namoyish etadi. So'z tanlovi o'rinli. Madaniy belgilar, nutq uslubi va uslubiy qatlam tarjima tilining uslubi, matn turi va auditoriyaga mos keladi.
3 baho	Tarjima matni tarjima til auditoriyasi bilan muloqotga kirishadi va tarjima tilida ko'zlangan maqsadga erishish borasida noo'rin vaziyatni namoyish etadi. Madaniy belgilar, nutq uslubi va uslubiy qatlam ba'zan tarjima tili sohasi uchun mos emas. Ko'plab iboralar va so'z tanlovleri tarjima matni sohasi, matn turi va o'quvchilari uchun haddan tashqari rasmiy yoki norasmiy bo'ladi.
2 baho	Tarjima matni tarjima tili auditoriyasi bilan muloqotga kirishish va belgilangan maqsadiga erishishda moslikni ta'minlay olmaydi. Madaniy belgilar, nutq uslubi va uslubiy qatlam tarjima matni sohasi doimiy ravishda mos emas. Aksariyat iboralar yoki so'z tanlovleri tarjima matni sohasi, matn turi va o'quvchilari uchun haddan tashqari rasmiy yoki norasmiy bo'ladi.

Tarjimani tarjima ko'nikmasi meyoriga ko'ra baholash

5 baho	Tarjima muammolariga ijodiy va muvaffaqiyatli yechimlarni taklif qilish asosida tarjima amalga oshirilgan. Resurs materiallardan mahorat bilan foydalanilgan.
--------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

4 baho	Tarjima tilidagi tarjima muammolarini aniqlash va hal qilishda barqaror qibiliyatni namoyish etadi. Jiddiy xatolarsiz, kichik xatolar sezilmaydi. Resurs materiallardan noto‘g‘ri foydalanish alomatlari kuzatilmaydi.
3 baho	Tarjima tilidagi tarjima muammolarini aniqlash va hal qilishda umumiy qobiliyatni ko‘rsatadi. Ammo, jiddiy xato va/yoki kichik xatolar yig‘indisi mavjud bo‘lib, bu umumiy sifatga ta’sir qiladi. Ma’lumotnomalardan noto‘g‘ri foydalanish ko’zga tashlanadi.
2 baho	Tarjima tilidagi tarjima muammolarini aniqlash va/yoki hal qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bir nechta jiddiy xatolar va/yoki ko‘plab kichik xatolar mavjud bo‘lib, bu umumiy sifatga sezilarli ta’sir qiladi. Resurslardan noto‘g‘ri foydalanishni sezish mumkin.

Yuqorida ko’rsatilgan meyorlar tarjimani baholashning xalqaro standartlari borasida ma’lumot va meyorlar xisoblanib, ular tarjimani baholashda o’ziga xos ahamiyatga ega.

Biz ham tarjimashunoslik va tarjima didaktikasiga bag’ishlanagn ilmiy tadqiqotlarni bajarish jarayonida tarjimani baholashning tizimini ishlab chiqdik. Tarjimani baholashni 4 meyorga ajratib, unga baho hamda ballik tizimda tarjimani baholash kriteriyalarini ishlab chiqdik. Ular quyidagicha ko’rinish oldi:

Maksimal baho va baho	TARJIMA MATNINI BAHOLASH MEZONI			
	LEKSIK, STILISTIK VA GRAMMATIK QOIDALARGA AMAL QILINGANLIGI	TARJIMA MATNDA MA’NO-MAZMUNNING SAQLAB QOLINGANLIGI	SINTAKTIK STRUKTURALARNING SAQLAB QOLINGANLIGI	KOMMUNIKATIV MUVOFIQLIK
90-100 “5”	Asliyat matnini til sathlari bo‘yicha tahlil qila olgan. Matndagi leksik, morfologik, sintaktik birliklarni tarjima matnida to‘laqonli qayta ifoda eta olgan. Asliyat va tarjima matnlari o‘rtasida leksik muvofiqlik va sintaktik muqobililik vujudga kelgan. Asliyat matnidagi stilistik bo‘yoqdorlikni qayta ifodalishiga erisha olgan. Leksik va sintaktik birliklarni va stilistik vositalarini tarjima qilishda tarjima usullaridan hamda stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalaridan samarali foydalana olgan.	Tarjima matnida ma’no va mazmun to‘liq saqlab qoligan. Matnda denotativ ma’noli leksik birliklarning muqobilini to‘gri topa olgan. Asliyat matnidagi kontekstual, konnotativ va milliy-madaniy ma’nolar tarjima jarayonida aniq aks ettirilgan. Tarjimon matning asosiy g‘oyasini va hissiy rang-barangligini tarjima matnida qayta ifodalashga muvaffaq bo‘lgan. Tarjimada transformatsiya usullaridan foydalana olgan.	Asliyat matnidagi sintaktik struktura tarjima tilining sintaktik strukturasiga asliyat va tarjima tillarining qardosh va noqardoshligiga ko‘ra moslashtirilgan yoki sintaktik struktura saqlab qolangan. Asliyat matnidagi so‘z birikmasi, sodda, qo‘shma va murakkab gaplar tegishli tarjima usullaridan samarali foydalangan holda tarjima matnida struktur-semantik xususiyat kasb etgan.	Asliyat va tarjima matnida adekvatlik, kommunikativ funksiya to‘liq namoyon bo‘lgan. Ma’lumotning tasir kuchiga urg‘u berilgan. Tarjima matni ravon, oddiy, aniq bo‘lib, talqin qilinishi qiyin bo‘lgan til birliklaridan holi bo‘ladi. Tajima matni uslubiy jihatdan g‘alizliklardan holi ko‘rinishida namoyon bo‘lgan.
70-89 “4”	Asliyat matnini til sathlari bo‘yicha tahlil qila olgan. Matndagi leksik, morfologik, sintaktik birliklarni	Tarjima matnida ma’no va mazmun qisman saqlab qoligan. Matnda denotativ ma’noli	Asliyat matnidagi sintaktik struktura tarjima tilining sintaktik strukturasiga asliyat va tarjima tillarining qardosh va noqardoshligiga ko‘ra	Asliyat va tarjima matnida kommunikativ funksiya to‘liq namoyon bo‘lgan. Ma’lumotning tasir kuchiga yetarlicha urg‘u

	<p>tarjima matnida to'laqonli qayta ifoda eta olmagan. Asliyat va tarjima matnlari o'rtasida leksik muvofiqlik mavjud biroq sintaktik muqobililik vujudga kelmagan. Asliyat matnidagi stilistik bo'yodkorlik qisman ifodalangan. Leksik va sintaktik birlklarni va stilistik vositalarini tarjima qilishda tarjima usullaridan hamda stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalaridan to'laqonli foydalana olgan.</p>	<p>leksik birlklarning muqobilini to'g'ri topa olgan. Asliyat matnidagi kontekstual, konnotativ va milliy-madaniy ma'nolar tarjima jarayonida to'laqonli aks ettirilmagan. Tarjimon matnning asosiy g'oyasini va hissiy rang-barangligini tarjima matnida qayta ifodalashda ma'no va mazmun jihatdan g'alizlikni yuzaga keltirgan.</p>	<p>moslashtirilgan yoki sintaktik struktura saqlab qolongan. Asliyat matnidagi so'z birikmasi, sodda, qo'shma va murakkab gaplar asliyat tarjima matnida qisman struktur-semantik xususiyat kasb etgan.</p>	<p>berilgan. Tarjima matni ravon, oddiy, aniq bo'lib, ayrim talqin qilinishi qiyin bo'lgan til birlklaridan mavjud bo'ladi. Tajima matni qisman ulubiy jihatdan g'aliz jumllalalar namoyon bo'lgan.</p>
60-69 “3”	<p>Matndagi leksik, morfologik, sintaktik birlklarni tarjima matnida qoniqarli tarzda ifoda eta olgan. Asliyat va tarjima matnlari o'rtasida leksik muvofiqlik va sintaktik muqobililik qisman ifodalangan. Asliyat matnidagi stilistik bo'yodkorlik qisman ifodalangan. Leksik va sintaktik birlklarni va stilistik vositalarini tarjima qilishda tarjima usullaridan hamda stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalaridan samarali foydalanimagan.</p>	<p>Tarjima matnida ma'no va mazmun qisman saqlab qolongan. Matnda denotativ ma'noli leksik birlklarning muqobilini to'g'ri topa olmagan. Asliyat matnidagi kontekstual, konnotativ va milliy-madaniy ma'nolar tarjima jarayonida qisman ifodalangan. Tarjimon matnning asosiy g'oyasini va hissiy rang-barangligini tarjima matnida qisman ifodalangan.</p>	<p>Asliyat matnidagi sintaktik struktura tarjima tilining sintaktik strukturasiga asliyat va tarjima tillarining qardosh va noqardoshligiga ko'ra moslashtirilgan yoki sintaktik struktura qisman saqlab qolongan. Asliyat matnidagi so'z birikmasi, sodda, qo'shma va murakkab gaplar tarjimasida tegishli tarjima usullaridan foydalanimagan hamda tarjima matnida struktur-semantik xususiyat qisman aks etgan.</p>	<p>Asliyat va tarjima matnida kommunikativ funksiya to'liq namoyon bo'lmagan. Ma'lumotning ta'sir kuchiga urg'u berilmagan. Tarjima matni talqin qilinishi qiyin bo'lgan til birlklaridan iborat. Tajima matnida uslubiy jihatdan g'alizliklar bor.</p>
60-1 “2”	<p>Matndagi leksik, morfologik, sintaktik birlklarni tarjima matnida ifoda eta olmagan. Asliyat va tarjima matnlari o'rtasida leksik muvofiqlik va sintaktik muqobililik ifodalanimagan. Asliyat matnidagi stilistik bo'yodkorlik ifodalanimagan. Leksik va sintaktik birlklarni va stilistik vositalarini tarjima qilishda tarjima usullaridan hamda stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalaridan foydalanimagan.</p>	<p>Tarjima matnida ma'no va mazmun saqlanmagan. Matnda denotativ ma'noli leksik birlklarning muqobilini to'g'ri topa olmagan. Asliyat matnidagi kontekstual, konnotativ va milliy-madaniy ma'nolar tarjima jarayonida ifodalanimagan. Tarjimon matnning asosiy g'oyasini va hissiy rang-barangligini tarjima matnida ifodalanimagan.</p>	<p>Asliyat matnidagi sintaktik struktura tarjima tilining sintaktik strukturasiga asliyat va tarjima tillarining qardosh va noqardoshligiga ko'ra moslashtirilmagan va sintaktik struktura saqlab qolinmagan. Asliyat matnidagi so'z birikmasi, sodda, qo'shma va murakkab gaplar tarjimasida tegishli tarjima usullaridan foydalanimagan hamda tarjima matnida struktur-semantik xususiyat aks etmagan.</p>	<p>Asliyat va tarjima matnida kommunikativ funksiya namoyon bo'lmagan. Ma'lumotning ta'sir kuchiga urg'u berilmagan. Tarjima matni talqin qilinishi to'g'ri amalga oshirilmagan. Tajima matnida uslubiy jihatdan xatoliklar bor.</p>

3-mavzu: TARJIMANI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANISHI.

Reja:

1. “Tarjima amallari integratsiyasi” metodikasini qo'llash bosqichlari.
2. Asliyat matnining uslub jihatidan turiga ko‘ra tanlangan tarjima uslublari.
3. Badiiy tarjimaning morfologik muammolarini bartaraf etish metodikasi.
4. Badiiy tarjimaning sintaktik muammolarini bartaraf etish metodikasi.
5. Badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish metodikasi.
6. Badiiy tarjimaning stilistik muammolarini bartaraf etish metodikasi.

Tadqiqot jarayonida tarjimani talabalarga o‘rgatishning zamonaviy yondashuvlarini o’zida mujassam etadigan metodika mavjud bo‘lib, ushbu metodika “Tarjima amallari intergratsiyasi” deb nomlanadi. Mazkur metodika talabalarga barcha uslubdagi matnlarni tarjima qilishni o‘rgatishda ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

“Tarjima amallari integratsiyasi” metodikasini qo'llash bosqichlari

1-bosqich.	Talabalarga asliyat matni taqdim qilinadi va ularga birgalikda asliyat matnining fonetik, morofologik, sintaktik, leksik-semantik, stilistik xususiyatlari, shuningdek, badiiy matndagi badiiy estetik ma’noning aks etish jihatlari, badiiy matnda qo’llangan badiiy tasviriy vositalarni tahlil qilish topshiriq qilib beriladi. Bu bosqichda talabalar asliyat matnini tarjima tiliga o’girish jarayonini amalga oshirmaydi, balki tarjimaga yondashuv masalalarini aniqlab oladi. Bu jarayonda tarjima amaliyotining barcha bosqichlari uchun tegishli tarjima uslublari tanlanadi va ulardagи mavjud yo‘riqnomaga amal qilgan holda tarjima amaliyotini amalga oshiradi. Asliyat matni badiiy uslubga xos matn bo’lganligi uchun talabalarga semantik, idiomatik, ijodiy, kommunikativ tarjima uslublari tanlanishi o‘qituvchi tomonidan takidlab o’tiladi. Talabalar asliyat badiiy matnini lingvistik va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali o’zining tarjimaga yondashuvlarini belgilab oladi.
2- bosqich.	Bu bosqichda talabalarga asliyat matnidagi lisoniy birliklar, tarjima qilinishi jihatidan murakkab bo’lgan birliklar yoki tarjima qilinmaydigan

	<p>lisoniy vositalarni tegishli tarjima usullaridan foydalanish bo‘yicha axborot beriladi. Bu jarayonda o‘qituvchi tomonidan fonetik tarjima usullari (transkripsiya, transliteratsiya, so‘z o‘zlashtirish), morfologik tarjima usullari (transpozitsiya), sintaktik tarjima usullari (kalkalash, qismlarga ajratish, kengaytirish, kompressiya, inversiya, so‘z qo‘sish va so‘z tushirib qoldirish), leksik tarjima usullari (ekvivalentlik va uning turlari, umulashtirish, tavsillash, implikatsiya, eksplikatsiya) va tegishli stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalari haqida ma’lumot beriladi.</p>
3- bosqich.	<p>Bu bosqichda bevosita tarjima jarayoni amalga oshiriladi. Talabalar mazkur metodikaning 1-va 2- bosqichda o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlardan foydalangan holda asliyat matnini tarjima tiliga olib o‘tish bilan shug’ullanadi. Bu vazifani har bir talaba individual tarzda bajaradi va ta’limning ushbu bosqichida shaxsga yo’naltirilgan yondashuv amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan tarjima usullari va strategiyalardan tegishli til birliklarini asliyat matnidan tarjima tiliga olib otish jarayonida samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar taqdim qilinadi. Mazkur bosqichda tarjima amaliyoti to‘liq amalga oshiriladi.</p>
4- bosqich.	<p>Mazkur bosqich talabalar tomonidan amalga oshirilgan tarjima matnini tahlil va tahrir qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayonda ikki xil yondashuv amalga oshirilishi mumkin. Tarjima matnini tahlil va tahrir qilish shaxsga yo’naltirilgan yoki kommunikativ yondashuv asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda shaxsga yo’naltitilgan yondashuv orqali professor-o‘qituvchi har bir taralabining tarjima matnini alohida tahrir va tahlil qilishi yoki kommunikativ yondashuv orqali talabalarni ikki guruhga ajratgan holda birinchi guruh talabalarining tarjima ishlari ikkinchi guruh talabalari orqali tekshirilishi mumkin. Bu yondashuv jarayonida o‘qituvchi tomonidan diskussiya vaqtি intefaol metodi ham qo’llanishi mumkin. Tarjima matnini tahlil va tahrir qilish jarayonida har bir yondashuvda ham o‘qituvchi tomonidan tarjima matnlariga nisbatan fidbeklar beriladi, tarjimadagi g’alizlik yoki xatoliklarni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berib o’tiladi.</p>

Umuman olganda “Tarjima amallari integratsiyasi” metodikasi talabalarning lingvistik va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur metodikaning 1-va 2-

bosqichida lingvistik va kasbiy kompetensiylar bo'yicha bilim, 3-bosqichda konikma va 4-bosqichda malaka takomillashadi.

Yuqorida takidlاب o'tilganidek, "Tarjima amallari integratsiya" metodikasi orqali o'qituvchi tarjima jarayoniga talabalarning yondashuvini belgilab berishi maqsadga muvofiq. Bu o'rinda o'qituvchi talabalarning tarjima jarayoniga qaysi yondashuvlarni amalga oshirishni tushuntirib o'tadi. Pedagogikada yondashuv tushunchasi orqali rahbarning, ta'lim muassasasi mutaxassisining o'z harakatlarini amalga oshirishga yo'naltirilganligi, pedagogik faoliyatning o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchalari, tamoyillari, g'oyalari va usullarining ma'lum bir majmuasidan foydalanish nazarda tutiladi. Yondashuv murakkab pedagogik vosita bo'lib, zamonaviy amaliyotning asosiy tushunchalari, faoliyat tamoyillari, ta'limni qurish texnikasi va usullarini o'z ichiga oladi. Tarjimashunoslikda bu hodisa tarjima strategiyasi deb ataladi. "Tarjima strategiyasi tarjimaning maqsadi doirasida yuzaga keladigan aniq tarjima muammolarining yechimini topish uchun tarjimonning ongli ravishda tuzgan yashirin rejaları"¹⁶. Tarjima strategiyasi tarjima boshlanishidan oldin va jarayonda tuziladigan reja bo'lib, bunga ko'ra, tarjimon o'quvchining maqsadi, mavqeい, bilim darajasi, asliyat matnining uslubi kabi omillarni o'rganib chiqib, matnni o'girish uchun uslub va matndagi kichik birliklar uchun transformatsiya tanlashni o'z ichiga oladi. Tarjima jarayonida qo'llaniladigan tarjima uslub va usullari, ularning mohiyati va kategoriyalari xususida tadqiqot ishimizning 2-bobida batafsil to'xtalib o'tganmiz.

Bu yerda bir masalaga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdır. Asliyat va tarjima matnlarida dunyodagi mavjud tillardagi til uslublariga ko'ra bir biriga o'xshash va ayrim farqli jihatlar mavjud bo'ladi. Asliyat va tarjima tillarini o'zbek va ingliz tillari misolida oladigan bo'lsak, bu tillarning har ikkalasida badiiy, so'zlashuv, rasmiy, ilmiy hamda publisistik uslublar mavjud. Farqli jihatlari esa ingliz tilida uslublar subkategoriyalarga bo'linadi. Tarjimaga yondashuv ham mana shu til uslublariga ko'ra tanlanadi. Biz esa, tarjimaga yondashuv til uslublariga ko'ra tanlanishini inobatga olib, asliyat va tarjima matni uchun tanlanadigan metodlarga nisbatan tarjima uslublari jumlasini qo'lladik.

Tarjima staretegiyasiga binoan tarjima uslublari jarayonga adekvat yonlashishga katta imkon beradi.

¹⁶ Krings, H.P. Translation problems and translation strategies of advanced German learners of French. Interlingual and intercultural communication. – Tubingen: Gunter Narr, 1986. – pp. 263-75.

Asliyat matnining uslub jihatidan turiga ko‘ra tanlangan tarjima uslublari

Badiiy uslub	Rasmiy uslub	So‘zlashuv uslubi	Ilmiy uslub	Publisistik uslub
Semantik tarjima	Жумлама-жумла tarjima	So‘zma-so‘z tarjima	Akademik tarjima	Asliyatga sodiq holda tarjima
Kommunikativ tarjima	Sharhlama tarjima	Erkin tarjima	Mualliflash-tirilgan tarjima	Axborotli tarjima
Nazmiy tarjima		Moslama tarjima		Moslama tarjima
Metrik tarjima		Idiomatik tarjima		Idiomatik tarjima
Qofiyalangan tarjima		Ijodiy tarjima		
Moslama tarjima				
Idiomatik tarjima				
Ijodiy tarjima				
Qofiyasiz tarjima				

Yuqoridagi jadvalga ko‘ra, badiiy uslubda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan tarjima uslublari boshqa uslubdagi matnlarnikiga nisbatan ko‘proq. Bunga asosiy sabab badiiy matnda boshqa uslubga nisbatan turli xil janrdagi matnlarning, shuningdek, boshqa uslub belgilarining mavjud bo‘lganligidadir.

Bundan tashqari, tarjima jarayonida asliyat matnidagi kichik leksik birliklarni tarjima qilish uchun tarjima transformatsiyalarini tanlash faoliyati ham mavjud bo‘lib, u eng asosiy metodik ta’mintlardan hisoblanadi. Chunki tarjima transformatsiyalari tarjima jarayonida foydalanilib, ular mazkur jarayonda katta ko‘lamdagi vazifalarni amalga oshiradi. Mazkur risolada tarjimashunoslikdagi tarjima transformatsiyalarining 32 xil turini keltirib o‘tganmiz.

Tarjima transformatsiyalarining tasnifi

so‘z o‘zlashtirish	ekvivalentlik	moslashtirish	kompressiya
kalkalash	madaniy ekvivalentlik	kompensatsiya	kuchaytirish
жумлама-жумла tarjima	tasviriy ekvivalentlik	aniqlik kiritish	kamaytirish
transpozisiyalar	funksional ekvivalentlik	qismlarga ajratish	ma’noni ochib berish
modulyasiya	shakliy ekvivalentlik	kengaytirish	yashirin ma’no berish
umumlashtirish	tafsillash	so‘z tarkibini o‘zgartirish	antonimik tarjima

transkripsiya	transliteratsiya	so‘z qo‘sish	so‘z qoldirish	tushirib
so‘z maqomini boshqa xususiyatiga moslashtirish	til boshqa so‘zlar bilan ifodalash	boshqa so‘zlar bilan ifodalash	usullar uyg‘unligi	eslatmalar

Tarjimani talabalarga o‘qitishda tarjimaga yondashuvni, ya’ni tarjima strategiyasini to‘g‘ri tashkil etishni talabalarga o‘rgatish maqsadga muvofiq. Bu bevosita tarjimonning professional kompetensiyasini shakllanishiga ham olib keladi.

Quyida tarjimani o‘qitish metodikasini yaratish bo‘yicha tarjimaning asosiy lingvistik xususiyatlarini o‘qitishning metodik ta’minoti ishlab chiqiladi.

Tarjimaning lingvistik muammolari va ularni bartaraf etish metodikasini ishlab chiqishda o‘zbek adabiyoti romançiligining yorqin namoyondasi A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani va uning ingliz tiliga Karol Ermakova, Mark Riz hamda I.To‘xtasinovlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalaridan foydalandik.

Badiiy tarjimaning morfologik muammolarini bartaraf etish metodikasi

Metodik ta’minot orqali talabalar o‘rganadi:

- a) tarjimada qo‘llanadigan kommunikativ tarjima, semantik tarjima, moslama tarjima, idiomatik tarjima uslublari;
- b) tarjimada qo‘llanadigan transpozisiyalar, ekvivalentlik tarjima usullari;
- v) asliyat va tarjima tillari morfologik tizimining farqli jihatlari;
- g) badiiy tarjimada uchraydigan morfologik muammolarni bartaraf etish usullari;

Bunda talabalar asliyat va tarjima matnlarida so‘z turkumlarini tarjima qilish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish usullarini o‘rganadilar.

Tarjima uslublari: kommunikativ tarjima, semantik tarjima, moslama tarjima, idiomatik tarjima. Bu tarjima uslublarini tanlashdan maqsad tadqiqotning ikkinchi bobida ta’kidlab o‘tilgan tarjima uslublarining mohiyati, ularning asosiy me’yorlariga rioya qilgan holda tarjima amaliyoti tashkil etiladi. Jumladan, moslama tarjima (adaptation) uslubi tarjimaning eng erkin turi bo‘lib, asosan, komediya janridagi asarlarda va she’riyatda foydalaniladi. Tarjimon asliyatni imkon qadar tarjima tili sohiblariga yaqinlashtirishni maqsad qilib, asliyatga o‘ta erkin munosabatda bo‘ladi. Odatda, asar mavzusi, qahramonlari, syujeti saqlab qolinadi, asliyat tili madaniyati tarjima tili

madaniyati bilan almashtiriladi va matn qayta yaratiladi¹⁷. Demak, talabalar mana shu tarjima xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim.

Dars jarayonining bevosita amaliy qismiga tegishli bo'lgan tarjima strategiyasi asliyat matnidagi kichik leksik birliklarni tarjima qilish uchun tarjima transformatsiyalarini tanlash hisoblanadi. Bu jarayonda tarjima transformatsiyalarining umumiylashtirishini va berilgan asliyat matnida morfologik birliklar ifodalagan lisoniy vositalar tarjimasida qo'llanishi mumkin bo'lgan tarjima transformatsiyalari borasida so'z boradi.

Badiiy tarjimaning morfologik muammolari asliyat va uch xil tarjima variantlari

<p><i>Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek kelguchilarni ulug'lab qarshiladi.</i></p> <p>— <i>Bizni kechirasiz, bek aka, — deb Rahmat uzr aytdi, — vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.</i></p> <p><i>Otabek ularga yuqoridan joy ko'rsatar yekan, yoqimliq bir vaziyatda:</i></p> <p>— <i>Tinchsizlamadingizlar, bil'aks quvontirdingizlar,— dedi, — shahringizga biringchi martaba kelishim bo'lg'ani uchun tanishsizliq, yolg'izliq meni juda zeriktirgan edi</i></p>	<p>Abdulla Qodiriy. “O'tkan kunlar” www.ziyouz.com kutubxonasi. 2-bet.</p>
<p><i>They both entered the lodgings. Atabek greeted them respectfully, as is proper.</i></p> <p><i>“Forgive us, bek-aka,” Rakhmat began, “for disturbing you with a visit at this untimely hour.”</i></p> <p><i>Ushering the guests to be seated in the place of honour, Atabek replied with disarming kindness:</i></p> <p><i>“Why no, not at all! You are not disturbing me, far from it! You have greatly gladdened me, since I am visiting your city for the first time and, knowing no-one here, I am quite weary of this enforced seclusion and tedium.”</i></p>	<p>Karol Ermakova “Days gone by” P-11.</p>
<p><i>They entered the room. Otabek respectfully greeted them.</i></p> <p>— <i>“Pardon for disturbing, Bek aka!” — Rahmat said apologizing.</i></p> <p>— <i>“We troubled you with our untimely visit”.</i></p> <p><i>Inviting the guests to have a seat at an honored place, Otabek politely said:</i></p> <p>— <i>“No, you did not disturb me; moreover, you made me happy with your visit” — he said.</i></p> <p>— <i>“Not being acquainted with anyone here, I felt bored, due to my first visit to your town.”</i></p>	<p>I.To'xtasinov va boshqalar. “The days gone by”. P-7.</p>
<p><i>When the two entered the small room, Otabek greeted both as welcome guests.</i></p>	<p>M.Riz. “Bygone days”. P-44.</p>

¹⁷ Мусаев К. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – Б.26.

"We are sorry, dear Bek," Rahmat apologized, "we regret inconveniencing you." Otabek appeared unperturbed by the disruption and motioned for them to sit in the place of honor.

"You do not bother me in the least bit; on the contrary, you lighten my heart with this unexpected visit. This is my first time here. I have no friends or relatives in Margilan, and my unfamiliarity with the city and inclination toward reclusiveness has driven me to distraction."

Mazkur matnda tarjimaning morfologik muammolarining aksariyati fe'l zamonlari bilan bog'liqdir. Asliyat matnidagi "*vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik*" jumlesi K.Ermakova tomonidan ingliz tilidagi harakat nomi bilan M.Rizda esa hozirgi oddiy zamonda fe'l orqali o'girilgan. Faqat I.To'xtasinov tarjimasida ushbu jumla o'tgan zamonda aks etgan, ya'ni *We troubled you with our untimely visit*. Semantik va kommunikativ tarjima uslublari qonuniyatlariga ko'ra I.To'xtasinov va K.Ermakova tarjimalari adekvat tarjima hisoblanadi. Chunki bunda asosiysi ma'no tarjima matniga olib o'tilgan hamda tarjima matnida ham asliyat matnidek kommunikatsiya belgisi mavjud. Tarjima transformatsiyalari yuzasidan K.Ermakova transpozisiya usulidan foydalangan. Asliyat matnidagi o'tgan zamon fe'li tarjima matnida harakat nomiga o'zgarmoqda. Shuningdek, mazkur matnda "*tinchsizlamadingizlar, bil'aks quvontirdingizlar,— dedi*", matnidagi gap o'tgan zamonda ifodalangan bo'lib, ushbu gapni K.Ermakova xozirgi davomli zamonda, I.To'xtasinov o'tgan zamonda, M.Riz esa hozirgi oddiy zamonda tarjima qilgan. Bu yerda I.To'xtasinov tarjimasi adekvat tarjima hisoblanadi. K.Ermakova va M.Riz tomonidan yaratilgan tarjima muammolarini bartaraf etishda ekvivalentlik tarjima usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki o'zbek tilidagi o'tgan zamon fe'lining ingliz tilidagi ekvivalenti Past indefinite tense zamoni mavjud.

Demak, tarjimaning morfologik muammolarni bartaraf etishda semantik, kommuniktiv tarjima uslublari, transpozisiya, ekvivalentlik tarjima transformatsiyalaridan foydalanishni talabalarga o'rgatish lozim.

"Aqliy xujum (Brainstorming)" – interfaol metodi tarjimadan oldingi tahlil jarayonida talabalarga nisbatan darsda qo'llaniladi. Bunda talabalarga asliyat matnidagi fe'l zamonlarini ifodalaydigan gaplarni ajratib olib, ularning ingliz tilidagi ekvivalenti mavjudmi yoki mavjud emasmi, agar mavjud bo'lmasa qanday lisoniy birlik bilan o'sha fe'l zamonini ifodalay olish mumkinligi borasida o'z fikrlarini navbatma-navbat bayon etish topshiriqlari beriladi. Ushbu interfaol metoddan foydalanish talabalarning til kompetensiyasi, shuningdek, nasriy va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga yordam beradi.

"Munozara vaqtı (Buzz session)" – Talabalar bir necha guruhga bo'linadi va barcha talabalar uchun bitta mavzu asliyat va tarjima tillari morfologik tizimi borasidagi farqli jihatlarni aniqlash

topshirig‘i beriladi. Har bir guruhdagi har bir talaba o‘z fikr va mulohazarini bildiradi. Bunda har bir guruhda talabalar o‘rtasida munozara va hamkorlik o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi. Har bir talaba tomonidan bildirigan fikrlar orqali asliyat va tarjima tillari o‘rtasidagi farqlar haqida imkon qadar to‘liq axborot yaratiladi.

O‘qituvchi talabalarga muhokamani boshlash uchun kalit so‘zlar yoki savollar aytadi, masalan, “O‘zbek tilidagi kelasi zamon maqsad fe‘li ingliz tilidagi qaysi lisoniy vosita bilan ifodalanadi?”. Bu kabi asliyat va tarjima tillarining morfologik tizimidagi farqli jihatlar talabalar tomonidan qanchalik ko‘p o‘rganilsa, badiiy tarjimaning morologik muammolari shunchalik oson bartaraf etiladi.

“Ikkita to‘g‘ri va bitta xato (Two truths and one lie)” interfaol metodi asliyat matnining bir necha xil tarjima variantlarini solishtirib tahlil qilish orqali tarjimani o‘rgatishga bag‘ishlanadi. Bunda talabalarga asliyat matni va 3 ta tarjima variantlari taqdim etiladi. Talabalar o‘zlarining daftarlariiga 4 ta katak bo‘sh joy chizadi.

Ulardan birinchisiga asliyat matnidagi bitta gap yoziladi. Ikkinci bo‘sh katakka tarjima variantning noto‘g‘risi yoziladi. Uchinchi va to‘rtinchi bo‘sh kataklarga to‘g‘ri tarjima variantlari yoziladi. Bu topshiriqlarni har bir talaba o‘zining yondashuvi va munosabati asosida bajaradi va navbatma-navbat nima uchun to‘g‘ri va noto‘g‘ri variantlar yozilganligini asoslab beradilar.

“Ikkita to‘g‘ri va bitta xato (Two truths and one lie)” interfaol metodini badiiy tarjimada qo‘llash bo‘yicha namuna

Asliyat matni	<i>Bulardan bittasi ichidan atlas ko ‘ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan</i>	Asliyat matni
Tarjima matn 1	<i>One of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face</i>	To‘g‘ri variant
Tarjima matn 2	<i>One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe.</i>	To‘g‘ri variant
Tarjima matn 3	<i>One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress</i>	Noto‘g‘ri variant


Bu metod orqali talabalar asliyat va tarjima matnlarini tizimli tahlil qilishga, asliyat va tarjima matnlarining struktur jihatdan farqli jihatlarini aniqlashga, asliyat va tarjima variantlarini solishtirishga erishadilar. Bu esa bo‘lajak tarjimonlarida lingvistik, ijodkorlik, nasriy hamda kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga yordam beradi.

“Tarmoqlar (Cluster)” metodi talabalarni faollashtirishga va mustaqil fikrlashga undaydi hamda ta’lim jarayonining markazida bo‘lgan talaba va o‘qituvchini faol ishtirot etishga chorlaydi.

Talaba dars jarayonida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayon ta’lim oluvchilarning o‘qib-o‘rganishini rag‘batlantiradi, darsga qiziqishning yuqori darajada bo‘lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlarga muvofiqlashtirishda tashabbuskor va mas’uliyatli bo‘lishni, munozara va tahlilni amalda bajarish orqali fikr-mulohaza yuritishni ta’minlaydi.

Tarmoqlar interfaol metodini badiiy tarjimaning sintaktik muammolarini bartaraf etishda qo‘llash berilgan matndagi sintaktik muammolarni tegishli transformatsiya va yondashuvlar orqali bartaraf etishga yordam beradi .

Semantik xarita (Semantic map) interfaol metodi darsning amaliy qismining boshlanishida, ya’ni asliyat matni talabalarga taqdim etilgandan keyin qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol metod orqali talabalar uchun notanish bo‘lgan ayrim so‘zlarning tarjimasi, ularning ma’nolari yuzasidan ma’lumotga ega bo‘la oladi. O‘qituvchi talabalarning badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish yuzasidan tarjima qilish uchun taqdim etilgan matndagi biror so‘z va uning semantik xaritasini tuzishni topshiriq qilib beradi.



3.2-rasm. Semantik xarita interfaol metodining badiiy tarjimaning sintaktik muammolarini bartaraf etishda qo‘llanishi

Mazkur interfaol metod talabalarning lingvistik, kasbiy, kommunikativ kompetensiyalari hamda mustaqil fiklash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Oltita fikrlovchi qalpoqcha (Six thinking hats) interfaol metodi muayyan mavzu (muammo) yuzasidan bir necha, ya’ni har bir urinishda bittadan fikrlash operatsiyasining bajarilishini ta’minlovchi harakatni ifodalaydi. Unga ko‘ra talabalar olti xil rangdagi qalpoqlarni

kiyish orqali fikrlashning muayyan jarayonlarini amalga oshiradi. Badiiy tarjimaning leksik-semantic muammolarini bartaraf etish usullarini o'rgatish metodikasida qalpoqlachalarning ranglari ostida asliyat matnida qo'llangan leksik birlikning tarkibi belgilanadi hamda quyidagi ranglar ostida tegishli leksik birliklar va ularning kontekstual ma'nolarini topish va matnga moslab tarjima tiliga olib o'tish talabalarga topshiriq sifatida beriladi.

Oltita fikrlovchi qalpoqcha (Six thinking hats) interfaol metodini badiiy tarjima darasida

qo'llash bo'yicha namuna

Oq qalpoq	denotativ so'zlar
Qizil qalpoq	polisemantik so'zlar
Qora qalpoq	konnottativ ma'noli so'z va so'z birikmalar
Sariq qalpoq	terminlar
Yashil qalpoq	neologizmlar
Ko'k qalpoq	realiyalar

Bu yerda qalpoqlarning ranglari bo'yicha leksik birliklar tarkibini taqsimlashdan maqsad shuki, yorqin ranglar, jumladan qizil, qora, hamda ko'k qalpoqlar ostidagi so'z va so'z birikmalari badiiy tarjimada leksik-semantic muammolarni yuzaga keltirishda asosiy rol o'ynaydi. Oq, sariq hamda yashil rangdagi so'z va so'z birikmalarining tarjimasida esa talabalar nisbatan kamroq muammolarga duch kelishadi. O'qituvchi tarjima jarayoniga yorqin rangdagi leksik birliklar tarjimasiga jiddiyroq e'tibor qaratish lozimligini tavsiya etadi.

Ushbu interfaol metod talabalarning mustaqil fikrlash, o'z ustida ishlash ko'nikmalari, shuningdek, lingvistik, professional hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4-mavzu: TARJIMANI O'QITISHDA MASHQLAR TIZIMI

Reja:

1. Tarjimani o'qitishning amaliy yo'nalishiga ko'ra mashqlar.
2. Deverbalizatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.
3. Transformatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.
4. Kommutatsiya ko'nikmalarini takomillashtirish uchun mashqlar.
5. Tarjimadan oldingi tahlil uchun mashqlar.

Tarjimaning har xil turlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar o'rghanish jarayonida maxsus mashqlar, shuningdek, ma'lum turdag'i tarjimani bajarishga o'rgatish orqali yaratiladi.

Tarjima darslarida talaba yoki o'qituvchining maqsad va vazifalariga qarab ko'plab turdag'i mashqlar bajarilishi mumkin. Tarjimani o'qitishning amaliy yo'nalishiga ko'ra quyidagi mashqlar guruhlarini ajratish mumkin:

- 1) tarjima faoliyatining har qanday turini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan mashqlar (masalan, matnni tahlil qilish va sintez qilish, matn uslubi va janrini aniqlash va boshqalar);
- 2) u yoki bu turdag'i tarjimani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan mashqlar (chet tilidan ona tiliga yozma tarjima - o'qish texnikasi orqali, shu jumladan, lingvistik va filologik tarjima qilish, tarjima qilingan matnni segmentatsiyalash, tahrirlash, chet tilidan ona tiliga tarjima qilish uchun - tinglash ko'nikmalari va malakalari, nutq texnikasi, so'zlovchining kommunikativ ko'nikmalarini aniqlash, matnni muhim belgilarini yo'qotmasdan kompressiyalash, kodlash va qayta tiklash, bir vaqtning o'zida bir nechta harakatlarni bajarish va boshqalar);
- 3) bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan mashqlar;
- 4) til mashqlari (leksik, frazeologik, grammatik, stilistik);
- 5) nutq mashqlari;
- 6) bir hodisa yoki bir qiyinchilikni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan mashqlar;

7) bajarilishi bir necha yoki ko‘p bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni talab qiladigan murakkab mashqlar va boshqalar.

Tarjima faoliyatini o‘rgatishda tarjimon uchun mutlaq zarur bo‘lgan deverbalizatsiya, transformatsiya va almashtirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga, shuningdek, umuman olganda, talabalarda ikki tillilik mexanizmini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar alohida rol o‘ynaydi.

Deverbalizatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar:

a) matnni sanash bilan o‘qish. Talabalarga ovoz chiqarib sanash paytida matnni ko‘zlar bilan o‘qish taklif etiladi, shundan so‘ng matn mazmunini qayta aytib berish kerak bo‘ladi. Bunday mashqlar ona tilidagi matnlarni o‘qishdan boshlanishi kerak, keyin esa xorijiy matnlarga o‘tilishi kerak. Sanash hisob ham murakkab bo‘lishi kerak. Birinchidan, talabalar o‘z ona tilida, keyin esa chet tilida hisoblashadi. Qayta hikoya qilish uchun til tanlash talabalarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Bu kabi mashqlar operativ xotirani rivojlantirishga va diqqatni boshqarish ko‘nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi.

b) mikro havola. Talabalarga 800 - 1000 ta bosma belgilardan iborat yozma matn ko‘rinishidagi ma’lumot taqdim etiladi, ulardan kalit so‘zlarni yozishlari kerak bo‘ladi. Bu asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan so‘zlardan iborat bo‘ladi. Ushbu ish uchun ikki daqiqa ajratiladi. Shundan so‘ng, matn tanlanadi va talabalar yozgan so‘zlar asosida butun ma’lumotni qayta aytib berish uchun o‘zlarining variantlarini og‘zaki ravishda taklif qilishlari kerak bo‘ladi. Mashqni o‘z ona tilidagi matndan, so‘ngra uning keyingi tarjimasi bilan chet tilidan boshlash tavsiya etiladi. Mashqdan asosiy ma’lumotlarni taqsimlash bilan matnni semantik tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish uchun ham foydalanish kerak.

d) ma’lumotni belgilar yordamida yozib olish. Og‘zaki matnni idrok etish jarayonida talabalar so‘zlarga murojaat qilmasdan, uning mazmunini ma’lum belgilar, eslatmalar yoki chizmalar yordamida qog‘ozga joylaydilar. Belgilarni o‘quvchilar o‘zlarini tanlaydilar, lekin ularni (savol, muammo, topshiriq, bahs va boshqalar) almashtirish mumkinligini eslatish maqsadga muvofiq. Kichik doira nafaqat davra suhbatini, balki boshqa turdagи narsalarni uchrashuvlar, bahslar, suhbatlar, muzokaralar va boshqalarni ham eslatadi. Talabalar matnni tinglab bo‘lgach, o‘zlar o‘ylab topgan belgilar yoki chizmalar asosida uning mazmunini tiklaydilar. Ushbu mashq bilan ishslashni o‘z ona tilidagi matnlardan boshlashi kerak, keyin esa chet tiliga o‘tish lozim.

“Ma’lumotni belgilar yordamida yozib olish” mashqi talabalarni ketma-ket tarjima qilishda yozuv tizimini o’zlashtirishga tayyorlaydi.

Transformatsiya ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar:

a) leksik birliklarni o’zgartirish mashqlari. Talabalarga sinonimik variantini topishi kerak bo’lgan so‘zlar va iboralar ro‘yxati taklif etiladi. Masalan, *poytaxt*, *ishbilarmonlar*, *mamlakat prezidenti*, *Oliy majlis* lug‘aviy birliklari o‘rniga *mamlakatning bosh shahri*, *tadbirkorlar*, *davlat rahbari*, *parlament* so‘zlari o‘quvchilar tomonidan taklif qilinishi mumkin. O‘qituvchi talabalarni imkon qadar tezroq javob berishga undashi kerak. Mashq talabalarni o‘z ona tiliga tarjima qilishni o‘rgatishning dastlabki bosqichida, asta-sekin chet tiliga o‘tishda qo‘llaniladi. Mashq nafaqat so‘zlarni o’zgartirish ko’nikmalarini shakllantiradi, balki o‘quvchilarning so‘z boyligini ham boyitadi.

b) gapni qayta qurish mashqi. Mashq qilish uchun kamida 10-12 so‘zni o‘z ichiga olgan jumla tanlanadi. Talabalar navbatma-navbat, har bir keyingi so‘zdan boshlab, gapni qayta yaratadilar. Bunday mashqlar nafaqat transformatsiya qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ona tilida ham, chet tilida ham og‘zaki nutq texnikasini o’zlashtirishga yordam beradi.

Kommutatsiya ko’nikmalarini takomillashtirish uchun mashqlar:

a) raqamlar bilan mashq qilish. Mashq chet tilidagi raqamlardan iborat diktantni o‘z ichiga oladi, talabalar uni oddiy arab raqamlari bilan yozadilar. O‘qituvchi o‘qish tezligini tanlaydi, u darsdan darsga asta-sekin o‘sib borishi kerak. Raqamlar ham murakkab bo‘lishi kerak: ikki xonalidan uch xonaligacha, shuningdek ,tub sonlardan kasrlarga qadar o‘zgartirilishi lozim. Raqamli yozuvlar qatori turli arifmetik amallar va hatto misollar yechimi bilan tugaydi. Diktantdan so‘ng talabalar o‘z ona tili yoki chet tillarida yozgan yozuvlarini o‘qiydilar. Bu mashq talabalarni ongida ularni ona tiliga tarjima qilishga majbur qiladi, bu esa bir tildan ikkinchi tilga o‘tishning turli usullarini rivojlantiradi, o‘tish ko’nikmasini shakllantiradi. Bundan tashqari, mashq deverbalizatsiya ko’nikmasini takomillashtirishga ham yordam beradi, chunki talabalar ularning ma’nosini anglash uchun chet tilidagi nutq shakllaridan ozod bo‘lishga majbur bo‘ladilar.

b) aniq so‘zlarni yozish. Bu turli usullardan foydalangan holda chet tilida oylar, hafta kunlari, tegishli nomlarni diktant ostida belgilashni anglatadi. Bu usullarga quyidagilar kiradi:

1) haftaning oylari va kunlarini tartib raqamlari yordamida yozish: masalan, dushanba – “1”, seshanba – “2”, chorshanba – “3” va hokazo belgilarni oladi; oylar mos ravishda “1” dan “12” gacha belgilarga ega;

2) geografik xaritada chet tilida yozilgan shaharlar, daryolar, ko‘llar, orollar, dengizlar, bo‘g‘ozlar nomlarini, shuningdek, yirik shaharlarning diqqatga sazovor joylarini ushbu shaharlarning geografik joylashuv rejasida ko‘rsatish.

Tarjimada bu kabi mashqlar dars jarayonida, odatda, tarjimaning turiga qarab tanlanadi. Bizga ma’lumki, tarjimaning, odatda, ikki turi, ya’ni og‘zaki va yozma turi mavjud. Dunyo tarjimashunosligida tarjima turlarining boshqa tasnifi ham keltiriladi. Biroq, ular tarjima matnining uslubi, janri, amalga oshirish usuli kabi turlarda namoyon bo‘ladi.

Tarjimadan oldingi tahlil uchun mashqlar

Ushbu guruhga kiruvchi mashqlar asosan berilgan matnning muallifini, uslubini, janrini, qisqacha mazmunini, kimlar uchun mo‘ljallanganligini, unda qo‘llash mumkin bo‘lgan tarjima uslublari va transformatsiyalarini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Bu kabi mashqlar nasriy tarjimonning kasbiy, ensiklopedik, ekstralingvistik, kommuniktiv kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

1-mashq. Quyidagi matnni o‘qing. Berilgan matnning uslubini, janriy xususiyatlari va qisqacha mazmunini aniqlang.

Saroy tinch uyquda, tun yarim. Hasanali hujraning uzun burama qulufini ochib ichkariga sham’ yoqdi va bekning to‘shagini yozib uning kirib yotishini kutib turdi. Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigini ochilg‘anidan, sham’ yoqilib, o‘rin yozilg‘anidan go‘yo xabarsiz kabi ustung‘a suyalg‘ancha qotib turar yedi.

— O‘rningizni yozdim, bek.

Otabek bu so‘z bilan hujraga kirdi va borib to‘shagi yonig‘a o‘lturdi. Hasanali bekning yeshinib yotishini kutib turar, chunki uni yotquzib yoqilg‘an sham’ni o‘zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi. Biroq Otabek to‘shagi yonig‘a o‘lturdida, yana o‘ylab qoldi... Otabek bir necha kunlardan beri Hasanaling ko‘ziga boshqacha ko‘rinar edi.

2-mashq. Berilgan matnni o‘qing va quyidagi tarjima uslublarining qaysilariga ko‘ra tarjimaga yondashuv amalga oshirilishini aniqlang: kommunikativ tarjima, semantik tarjima, idiomatik tarjima, ijodiy tarjima, erkin tarjima.

— *Qiziq gaplar so‘zlaysiz, — dedi Otabek, taajjubi ortqan edi. — Menga qandoq yomonlik sog‘indingizki, sizga ishonchim bitsin? Vasvasalanishning o‘rni yo‘q, mundan so‘ng ham sizning xayrixohona kengashlariningizga, ham vujudingizga muhtojman, amonatim, boshqam*

mundan keyin ham ona qornida saqlang ‘andek sizda saqlanishig ‘a ishonaman va bunga sizning ham amin bo ‘lishingiz kerak, ota.

— *Lekin... til bilan ko ‘ngil boshqa-boshqadir, o ‘g ‘lim...*

Otabek bu ters va qo ‘rs muqobaladan toqatsizlandi:

— *Yanglishasiz, ota.*

— *Yanglismayman, bil’aks bilib, qanoatlanib so ‘zlayman.*

— *Tilim bilan ko ‘nglimning boshqalig ‘ini isbot qilingiz.*

Hasanali ginalik qiyofada qoshlarini chimirdi va:

— *Mendan yashirib yurgan bir sirringiz bor, — dedi.*

3-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va matnda ajratib ko‘rsatilgan leksik birliklarni tarjima qilishda qaysi tarjima transformatsiyalaridan foydalanishni aniqlang.

Qutidor mehmonlarni jo ‘natib yotish uchun yeshinar ekan, Oftob oyim so ‘radi:

— *Chiroylik yigit, aqllik yigit, deb maxtiy-maxtiy To ‘ybekaning ichagi uzildi, u kim edi?*

— *Mehmonimiz o ‘sha edi, — dedi qucidor, — toshkandlik Yusufbek hoji otlig‘ yaqin oshnamning o ‘g ‘li.*

— *To ‘ybekaning maxtag ‘anicha bormi, o ‘zi?*

— *Bor, — dedi qucidor va g ‘italandi, — xudo kishiga o ‘g ‘il bersa shundayini bersin-da.*

Oftob oyim kula-kula To ‘ybekaning Otabek to ‘g ‘risida so ‘zlagan gaplarini va Kumush bilan bo ‘lg ‘an mojarosini so ‘zlab chiqdi. Qutidor ham kulgidan o ‘zini to ‘xtatolmas ekan:

— *Tentagingning aqli balo, kiroyi kuyaving shundog‘ bo ‘lsa, — dedi.*

4-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va badiiylikni ifodalovchi jumlalarni ajrating.

Bu xabarni eshitar ekan, yeb turgani og‘zida, yutkani bo ‘g ‘zida qoldi: bunday o ‘zboshimchalik orqasidan o ‘zining ochiq ko ‘zi, o ‘tkir zehni orqaliq mudhish, falokatlik manzaralar ko ‘rar, millatini – xalqini – musulmonini qo ‘rqunch jar, tegsiz jahannam yoqasida, yiqilish oldida topar edi-da, seskanib «o ‘zing saqla, tangrim!» der edi. Bu xabarni eshitkandan so ‘ng gangib esini yo ‘qotdi. Yarasi yangilandi:

— *Oq bilan qorani ajratolmag ‘an fuqaroning bir necha g ‘arazgo ‘y mustabidlar kayfiyo ‘lida bir-birisining qonig ‘a tashna bo ‘lishlari va natijada istiqbolning vahim ko ‘rinishlari!*

Tarjimaning morfologik muammolariga bag’ishlangan mashqlar

Mazkur mashqlar to‘plamidan asliyat matnida qo ‘llangan leksik birliklar qaysi so ‘z turkumi bilan ifodalanganligi, uning tarjima tilidagi muqobiliga mos kelish kelmasligi, agar mos

kelmasa qanday boshqa lisoniy birlikdan foydalanish, so‘z turkumlarini transpozitsiyaga uchrashi masalalarini mustaxkamlash maqsadida foydalaniladi.

5-mashq. Quyidagi matnni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling. Matnda ot so‘z turkumi vazifasida qo‘llangan so‘zlar tarjimasiga, ularning transpozitsiya hodisasiga uchrashiga e’tibor qarating.

Hasanali chiqdi. Qosh qorayib, qorong‘u tushayozg‘an edi. Havo bulut, achchig‘, sovuq yel to‘rt tomong‘a yugurar, onda-sonda qor uchqunlarini quvlab ziriqtirar edi. Eruv vaqtida yarim beldan loy kechishka to‘g‘ri keladigan ko‘chalarning loyi qatqaloqlang‘an, shuning uchun yurguchi qiynalmas, aksincha ola-chalpoq qor pag‘alarini bosishdan vujudga kelgan oyoq ostidagi «g‘arch-g‘urch» tovushlari kishiga bir turlik kayf, musiqaviy yengillik berar edilar.

6-mashq. Matnni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling. Matnda fe’l so‘z turkumida qo‘llangan leksik birliklar tarjimasiga e’tibor qarating. Asliyat matnidagi fe’l zamonlarini tarjima matnida ham to‘liq ifodalanishiga e’tibor bering.

Kumushbibi bir necha fursatkacha shu ko‘yi burkanib yotdi. So‘ngra o‘rnidan turib tashqari havliga qarab ketdi. Ko‘b yig‘lag‘anliqdan ko‘zlari qizarg‘an, qovoqlari shishkan, yuzlar bo‘rtkan edi. Ammo bu o‘zgarishlar uning husnini, latofatini bir zarra ham kamitmay balki, o‘n qayta oshirg‘an edilar. Tashqarig‘a chiqq‘andan keyin ayvonning tumshug‘iga kelib o‘lturdi va o‘ng qo‘lining kaftiga yuzini olib fikrga toldi. Shu holda uzoq qoldi. Shundan keyin ul qo‘lini yuzidan bo‘shatdi-da, entikib dam oldi va kimnidir izlagandek, kimnidir kutgandek tevaragiga qarab qo‘ydi...

Tarjimaning sintaktik muammolariga bag‘ishlangan mashqlar

Mazkur turdagи mashqlar tarjima jarayonida asliyat matni sintaksisi va uni tarjima matniga moslashtirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish usullari, asliyat va tarjima tillarining so‘z tartibi borasidagi farqlarni yo‘qqa chiqarish, badiiy matn tarjimasida qo‘llanadigan sintaktik transformatsiyalar inversiya, so‘z qo‘sish, so‘z tushirib qoldirish, transpozitsiyalar, boshqa so‘zlar bilan ifodalash, kengaytirish, so‘z tarkibini o‘zgartirish, antonimik tarjimadan foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga bag‘ishlanadi. Bu kabi mashqlardan dars jarayonida doimiy ravishda foydalanish bo‘lajak tarjimonlarning kasbiy, lingvistik ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

8-mashq. Matnni o‘qing. Matndagi ajratilgan so‘z birikmalariga e’tibor qarating. Ularni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling.

Qutidorning tashqarisig ‘a er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to ‘lg ‘anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo‘sha sozandalar dutor, tanbur, g‘ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To ‘y juda ham ruhlik...

Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qum-tuproqdek ko‘b, biroq majlisning borishida tartib yo‘q, **havli yuzi** va uylar xotinlar bilan to ‘lg ‘an, qaysi **havli yuzida** bir tovoq oshni yeb o‘lturadir, kim **yig‘lag‘an bolasini** ovitish bilan ovora, birav yor-yor o‘qub, tag‘in bittasining **quvonchi ichiga sig‘may** xaxolab dunyoni buzadi, xullas bag‘-bug‘ yetti qat ko‘kdan oshadir...

9-mashq. Ushbu matnni o‘qing va o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling. Ingliz tilida to‘g‘ri so‘z tartibini saqlab qolishga harakat qiling.

Qutidorning tashqarisig ‘a er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to ‘lg ‘anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo‘sha sozandalar dutor, tanbur, g‘ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To ‘y juda ham ruhlik...

Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qum-tuproqdek ko‘b, biroq majlisning borishida tartib yo‘q, **havli yuzi** va uylar xotinlar bilan to ‘lg ‘an, qaysi **havli yuzida** bir tovoq oshni yeb o‘lturadir, kim **yig‘lag‘an bolasini** ovitish bilan ovora, birav yor-yor o‘qub, tag‘in bittasining **quvonchi ichiga sig‘may** xaxolab dunyoni buzadi, xullas bag‘-bug‘ yetti qat ko‘kdan oshadir...

5-mavzu: TARJIMON ETIKASINING AHAMIYATI

Reja:

1. Tarjimonning kasbiy- axloqiy me'yorlari.
2. Tarjimonning etika qoidalari.
3. Tarjimonning vaziyat bilan bog'liq xatti-harakatlari uchun qoidalar.
4. Tarjimon etikasi bo'yicha tarjima uyushmalari.
5. Tarjima etikasi bo'yicha tarjima byurolari (agentliklari, bo'limlar).

Tarjimon etikasi masalasi hozircha to'liq o'rganilmagan. Bo'lajak tarjimonlarning faoliyatining muvaffaqiyati va sifati ularning malakali tarjimasiga va axloqiy me'yor va qoidalarga to'liq rioya qilishlariga ham bevosita bog'liqdir. Shuning uchun tarjimon etikasi masalasi tarjimanining barcha turlari va yo'nalishlarini o'rganayotgan talabalar uchun dolzarbdir. Har bir tarjimon quyidagi axloqiy me'yorlarga duch keladi.

- tarjimon o'zi tarjima qilayotgan muhokamada qatnashishi mumkinmi;
- tarjimon tarjima qilayotgan narsaning mazmuni uchun javobgarmi;
- tarjimon yana so'rashi mumkinmi;
- tarjimon tarjimaning mazmuniga o'z munosabatini namoyish eta oladimi;
- tarjimon ishtirokchilarining imo-ishoralarini "tarjima qilishi" kerakmi;
- tarjimon notiqning gapnini, nutqini bo'lishi mumkinmi;
- tarjimon iboralarni tarjima qilishi kerakmi va boshqalar.

A.Xamatovaning fikricha, odob-axloq qoidalari quyidagi savollarni o'z ichiga oladi:

- tarjimon qaysi shaxs nomidan tarjima qilishi kerak;
- tarjimon delegatsiya a'zolaridan kimga hamrohlik qilishi kerak;
- ish yuzasidan o'tkaziladigan uchrashuvdan oldin tarjimon ish joyida qancha vaqt davomida bo'lishi kerak.

Tarjimon turli xil ish sharoitlarni ijobiy amalga oshirish uchun unda etika bo'yicha yetarlicha bilim bo'lishi talab etiladi. Tarjimon quyidagi etika qoidalariга rioya etishi shart:

1-qoida (tarjimon axloqining asosiy qoidasi) noma'lum, tushunarsiz ma'lumotni oshkor qilmaslikdir;

2-qoida - odamlar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish;

3-qoida - hattoki o‘ta og‘ir sharoitlarda ham vazminlik va muloyimlikni saqlab qolish, har doim to‘g‘ri, xushmuomala, toza va to‘g‘ri kiyinish, va aniqlikka amal qilish;

4- qoida – imkon qadar asliyat matniga sodiq bo‘lish (aytilgan fikrlardan chetga chiqmang), sharhlash va fikrni ifoda etishdan saqlanish, ma’lumotlarning bir qismini keraksiz deb qoldirmaslik;

5 - qoida – agar kerak bo‘lsa, muloqotning samaradorligini oshirish va yanada to‘liq tushunishga erishish uchun tarjimonga tanish bo‘lgan va tinglovchiga notanish bo‘lgan milliyligi, mentaliteti, urf-odatlari va madaniyatining xususiyatlarini tushuntiring;

6-qoida - doimiy ravishda malaka, kasbiy mahoratni oshirish, iloji boricha bitta yo‘nalishga ixtisoslashgan (huquq, moliya, ekologiya, axborotlashtirish va h.k) turli bilim sohalarida bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;

7-qoida - bilim va tajribani yosh va yangi tarjimonlar bilan o‘rtoqlashish;

8 - korporativ birdamlik va kasbiy etika qoidalariга rioya qilish, kasbning obro‘sini oshirish va o‘z mehnatining kansitilishiga yo‘q qo‘ymaslik.

Ushbu qoidalar o‘z mazmunida tarjimonning uni belgilaydigan xulq-atvor me’yorlarini aniq aks ettiradi va ular quyidagilardan iborat:

- maxfiylikni saqlash;
- yaxshi niyat va hamkorlikka asoslangan munosabatlar qurish tamoyiliga amal qilish;
- o‘ta og‘ir sharoitlarda chidamlilik va muloyimlikka rioya qilish;
- har doim to‘g‘ri, xushmuomala, pok va to‘g‘ri kiyinish;
- tarjimada betaraflik tamoyiliga amal qilish;
- turli xalqlarning madaniyati, mentaliteti haqida bilimga ega bo‘lish;
- odamlarga fidokorona yordam berish;
- o‘zini ustida ishslash;
- bilimlarni o‘zgalar bilan o‘rtoqlashish;
- birdamlikka amal qilish.

Tarjimon turli xil uslubdagi matnlarni tarjima qilish jarayonida xar xil matnlarga duch keladi. Bu jarayonda tarjimon tilning adabiy me’yordan foydalangan holda, o‘z mulohazalarining asosiy mazmunini tarjima qilishi kerak bo‘ladi. Quyida shu boradagi ba’zi tarjima qoidalariни xavola etamiz:

1. Tarjimon suhbatdosh yoki mijozning raqibi emas, balki bitta tilda yaratilgan og‘zaki yoki yozma matnni boshqa tilda yozilgan matnga o‘zgartiradigan ijodkordir;
2. Tarjimon uchun matn daxlsizdir. Tarjimon o‘z xohishiga binoan tarjima paytida matnning mazmuni va tarkibini o‘zgartirishga, moslashtirish, tanlash, qo‘sib qo‘yish, qisqartirish yoki kengaytirishga haqli emas;
3. Tarjimon o‘ziga ma’lum bo‘lgan professional harakatlardan foydalanib, asl nusxaning funksional dominantlariga e’tibor qaratib, iloji boricha boshlang‘ich matnning invariantini yetkazishga harakat qiladi;
4. Tarjima jarayonida tarjimon mijozning shaxsiy erkinligini hurmat qilib, uning qadr-qimmatiga zarar yetkazmasdan, og‘zaki so‘zlashuv odob-axloq qoidalariga rioya qilishi shart;
5. Ba’zi hollarda, ketma-ket yoki bir vaqtning o‘zida sinxron tarjima qilish sharoitida tarjimon shuningdek, diplomatik vakolatlarga ega bo‘lgan shaxsdir (masalan, xalqaro aloqalar sharoitida yirik siyosatchilarining bayonetlarini tarjima qilishda). Agar ushbu diplomatik vakolatlar tarjimon tomonidan tan olingan bo‘lsa, u dastlabki matnning to‘g‘riligiga qarshi guvohlik qilish huquqiga ega;
6. Boshqa hollarda tarjimon tomonlarning munosabatlariga aralashishga, shuningdek tarjima qilingan matnning mazmuniga nisbatan o‘z pozisiyasini aniqlashga haqli emas;
7. Tarjimon o‘zining sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilishi kerak, chunki tarjimaning sifati uning jismoniy holatiga bog‘liq;
8. Tarjimon ma’ruzachining nutqidagi ayrim kamchiliklarga hissiy munosabatda bo‘lishga haqli emas va ularni takrorlamasligi kerak; u til va adabiy me’yorning og‘zaki ko‘rinishlarini talqin qilishga e’tibor qaratadi;
9. Tarjimon o‘zining vakolati yo‘qligi to‘g‘risida darhol oglantirishi, uning orqasida aniqlangan xatolarni tuzatishi va ularni yashirmasligi kerak. Bu yuqori sifatli tarjima va atrofdagilar ishonchining kafolatidir;
11. Agar kerak bo‘lsa, tarjimon tarjima qilingan matn mazmuniga nisbatan maxfiylikni saqlashi va ortiqcha ma’lumotlarni oshkor qilmasligi talab qilinadi.

Tarjimon tomonidan tarjima jarayonida shaxsning shaxsiy fikrini bildirish, asliyat matnnini kamaytirish yoki e’tiborsiz qoldirish, tarjimonning suhbatga doimiy aralashishi tarjima etikasining buzilishi hisoblanadi.

Tarjimonning vaziyat bilan bog‘liq xatti-harakatlari uchun qoidalar mavjud, bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

- tarjimon vaziyatga to‘liq moslashishi (masalan, rasmiy ziyofat paytida tarjima qilishga to‘g‘ri kelsa, u ovqat iste’mol qilmasligi yoki ichmasligi kerak, sahna ortida gaplashganda tarjimon suhbatda teng suhbatdosh sifatida qatnasha olmaydi);
- tarjimon tomonidan qabul qilingan kiyimda odob va aniqlik qoidalariga rioya qilinishi;
- tarjima qilinayotgan matn yuzasidan o‘z fikrlarini bildirmaslik;
- o‘z-o‘zini hurmat qilish;
- tarjimon ishni sifatli bajarolmasa (katta hajmdagi ish hajmini cheklash uchun) katta hajmdagi ishlarga rozi bo‘lmaslik;
- o‘z qadr-qimmatini kansitishga yo‘l qo‘ymaslik.

Tarjimonga quyidagilar taqiqlanadi:

- muallifning tarjima qilingan ijodiy ma’sulotiga hammuallif sifatida munosabatda bo‘lish;
- terminlarni ifodalashda sinonimlarni o‘zboshimchalik bilan kiritish;
- tushunarsiz matn qismlarini tashlab yuborish;
- noto‘g‘ri tushunilgan va tarjima qilingan joyni mutaxassis bilan maslahatlashmasdan, mijozni ogohlantirmsandan tushirib qoldirish.

Shuning uchun tarjimonlar axloqiy masalalarga va ma’naviy xususiyatga ega tarjima dilemmalariga jiddiy e’tibor berishlari kerak.

Tarjimon etikasi bo‘yicha tarjima uyushmalari

Mamlakatimizda bir nechta tarjima hamjamiyatlari (uyushmalar, kengashlar) mavjud. Ular faoliyatining asosiy maqsadi tarjimonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, tarjimon ishi va tarjima bozori bilan bog‘liq masalalarda malakali yordam ko‘rsatish, shuningdek, O‘zbekistonda va chet ellarda tarjima ishlarini rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi PF-5400-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari va tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning javobgarligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida Tarjima byurosi tashkil etildi va uning quyidagi vazifalari belgilab berildi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning rahbarlari va yuqori martabali mansabdor shaxslar ishtirokidagi rasmiy tadbirlarning sinxron va izchil tarjima qilinishini ta’minlash;
- rasmiy tadbirlar doirasida tayyorlangan materiallarning tarjimasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalar loyihamining davlat va chet tillarida haqiqiyligini aniqlashga ko‘maklashish;
- jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va boshqa ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari orasidan yuqori malakali tarjimonlar tayyorlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi xodimlari uchun, shuningdek, davlat organlari xalqaro hamkorligi masalalar bo‘yicha kontrakt asosida xodimlar uchun xorijiy tillarni rivojlantirishni ta’minlash;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarga shartnoma asosida tarjima va tarjima xizmatlarini taqdim etish.

2019 yil 26 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida bo‘lib o‘tgan matbuot anjumanida «Tarjima va targ‘ibot markazi» jamoatchilik tashkiloti ma’qullandi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida tarjimonlik faoliyatiga tegishli farmonlar va qonunlar mavjud bo‘lib, ular tarjimonlarning kasbiy faoliyatidagi kasbiy va ma’naviy majburiyatlarini o‘z ichiga oladi:

1. Tarjimon, O‘zbekiston Respublikasining qonun va qarorlarida belgilangan milliy va xalqaro huquqning barcha prinsiplari va normalariga rioya qilinishini va unga rioya qilishni talab qilishi shart;
2. Tarjimon nohalol raqobatdan qochib, kasbiy birdamlik tamoyillariga rioya qilishi, shuningdek, hokimiyat va ish beruvchilar tomonidan kelishilgan shartlardan past bo‘lgan shartlarga rozi bo‘lmasligi shart;
3. Tarjimon o‘zining kasbiy va insoniy qadr-qimmatini kamsitadigan, tarjimaning yuqori sifatini kafolatlashga imkon bermaydigan va tarjima uyushmasining an’analari, standartlari va manfaatlariga javob bermaydigan shartlarga rozi bo‘lmasligi kerak;
4. Tarjimaga u va mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnoma (kontrakt) shartlaridan qat’i nazar tarjimon va faqat tarjimon mas’uldir;
5. Tarjimon o‘ziga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarning maxfiyligini kafolatlashi shart;

6. Tarjimon asl matnlarning qonuniy (mualliflik) huquqlariga riosa qilishi shart.
7. Tarjimon guruhlarida, xususan bir vaqtning o‘zida tarjima qilishda, vaqtincha ijodiy jamoalar tarkibida ishlayotganida tarjimon mehnatning umumiylashtirishda qoidalariga riosa qilishi, shuningdek uning ishi uchun haq to‘lash borasida teng shartlarni talab qilishi shart.
8. Tarjimon mijozlardan va boshqalardan uning qonuniy mualliflik huquqlariga riosa qilishni talab qilishi shart.

Bizningcha, qonunlarga nafaqat professional, balki tarjimonning axloqiy va kasbiy majburiyatlarini kiritish ham beziz emas. Tarjimani amalga oshirishda tarjimonning axloqiy majburiyatlariga riosa qilish, tarjima jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasida muloyim va to‘g‘ri munosabatni ta’minlaydi, ziddiyatli vaziyatlarning oldini oladi.

Tarjima etikasi bo‘yicha tarjima byurolari (agentliklari, bo‘limlar)

Tarjima byurolari (agentliklari) tarjimon etikasiga katta e’tibor berishadi. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining tarjima byurosida tarjimon etikasining quyidagi kuchli qoidalariga riosa qilishi belgilab qo‘yilgan. Shunday qilib tarjimon:

- tarjimada matnni xohishiga ko‘ra o‘zgartirishga haqli emas;
- iloji boricha boshlang‘ich matnning invariantini yetkazishga harakat qilishi kerak;
- o‘tkazilish paytida tomonlarning munosabatlariga aralashishga haqli emas;
- tarjima qilingan matnning mazmuni to‘g‘risida shaxsiy fikr bildirishga haqli emas;
- tarjima qilingan material mazmuniga nisbatan maxfiylikni saqlashi shart va uni zaruratsiz oshkor qilmasligi shart;
- o‘ziga ma’lum bo‘lgan usullar bilan asliyat til, tarjima tili, tarjima texnikasi va matn mavzusi bo‘yicha yuqori darajadagi vakolatni ta’minlashi shart;
- tarjima mahoratining yuqori darajasini ta’minlash uchun barcha zarur shart-sharoitlarni, shu qatorda tegishli ish sharoitlarini (tarjima qilish uchun, radio eshittirish uskunasining ishonchhliliqi, agar zarur bo‘lsa, ovoz eshittirgichning nutq tezligini pasaytirishni) talab qilishga haqli;
- tarjima sifati uchun faqat tarjimon mas’uldir;

O‘zbekistondagi deyarli barcha tarjima agentliklari va byurolari tarjimonning o‘zini tutab ilish, odobli inson bo‘lish, axloqiy me’yorlarga amal qilish qobiliyatiga e’tibor berishadi.

Agentliklar axloqiy me’yorlar tarjima madaniyatiga ta’sir qiladi degan pozisiyaga riosa qilishadi, xususan, tarjimonlarga quyidagilarga riosa qilish tavsiya etiladi:

- matn tarkibini aks ettirish qoidalari (tarjimon, agar buyurtmachida boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, asl matnning asossiz qisqartirishisiz tarjima qilinishi shart);
- yozma matnni loyihalashtirish qoidalari (matn sahifalari tarjima matnida ko'rsatilishi kerak, grafik ta'kidlash vositalari aks ettirilishi kerak, qisqartmalar, agar iloji bo'lsa, dekodlanishi va tarjima matnida asl, to'liq va qisqartirilgan shaklda maqsadli tilda berilishi kerak).

Tarjima byurosi o'z professional faoliyatida tarjimon quyidagi asosiy axloqiy tamoyillarga amal qilishi shart degan qoidaga amal qiladi:

- javobgarlik (mas'ullik) prinsipi;
- adolat prinsipi; qadr-qimmatni hurmat qilish prinsipi;
- vakolat prinsipi;
- odob-axloq prinsipi;
- yaxshi niyat va hamkorlikka asoslangan munosabatlar qurish tamoyili.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI

1. Tarjimonning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan topshiriq va mashqlar.

TOPSHIRIQ

Quyidagi tarjimon kompetensiyasini takomillashtiruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni o'rGANIB chiqing va ularni lingvistik va nolingvistik kompetensiyalar komponentlariga ajrating.

- *asliyat tili va tarjima qilinayotgan tilning aloqalarini bilish, ularning til tizimlari, til me'yorlari, nutq (uzual) me'yorlaridagi o'xshashlik va farqlar;*
- *ixtisoslikning chet til va ona tilidagi xususiyatlarini bilish;*
- *ixtisoslik tilining grammatik va sintaktik strukturalariga asosan tanlab olingan leksik minimum bilan ishslash qobiliyati;*
- *gap muallifining muloqotdan ko'zlangan maqsadini aniqlash imkonini beruvchi ixtisoslik bo'yicha matnning lisoniy va tarkibiy xususiyatlarini bilish;*
- *asl matnni jo'natuvchi va tarjima matnini qabul qilib oluvchining bilim darajasi va tasavvurlarini qiyoslash qobiliyati;*
- *tarjima matni asosida qabul qilib oluvchining maqsadi va qiziqishlarini bilish;*
- *strategiyani tanlash va ixtisoslik bo'yicha matn tarjimasini qabul qilib oluvchining ruhiy holati, maqsadi va qiziqishlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati;*
- *chet til va kasbiy tilda terminlar (iboralar)ni hosil qilish usullarini bilish;*
- *chet til va kasbiy tilda qiyosiy jihatdan kasbiy faoliyatning tegishli sohasiga oid umumfan va tor ixtisoslik leksikalarini bilish;*
- *o'zbek tilida chet tilidagi terminlar ekvivalentini topish yoki tegishli adabiyotlaridan foydalangan holda yangi terminlarni yaratish qobiliyati;*
- *o'z bilimlaridagi bo'shliqni mustaqil ravishda to'ldirish, xususan, chog'ishtirish qobiliyati.*
- *tarjima matni mazmunidan asliyat matnini jo'natuvchi haqidagi ma'lumotni ola bilish qobiliyati;*
- *gap muallifining muloqotdan ko'zlangan maqsadini aniqlash imkonini beruvchi ixtisoslik bo'yicha matnning lisoniy va tarkibiy xususiyatlarini bilish;*
- *asl matnni jo'natuvchi va tarjima matnini qabul qilib oluvchining bilim darajasi va tasavvurlarini qiyoslash qobiliyati;*

Lingvistik kompetensiya	Nolingvistik kompetensiya

1-MASHQ. Matnni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling. Matnda “–lar” qo‘sishmchasi qo‘llangan so‘zlarning o‘zaro ma’no farqlariga e’tibor qarating.

Bu xabarni eshitkuchi Kumushbibining qora ko‘zлari jiq yoshg‘a to‘lib, kipraklari yosh bilan belandilar.

– Yig‘lama bekachim, – dedi To‘ybeka, – biz bilamiz sizning ko‘z yoshlaringizning nimaganin: erlar so‘yinganda kulsalar, sizga o‘xshash qizlar yig‘laydirlar; sizning yig‘lag‘aningiz — quvong‘aningiz... Meni erga bergenlarida senga o‘xshash men ham yig‘lag‘an edim, ammo ichimdan nikoh kunining tezroq kelishini kuta-kuta o‘lgan edim.

– Toqatim tugadi, opa, – dedi Kumush, – ortiq so‘zlamangiz.

– So‘zlamayman, – dedi To‘ybeka, – lekin sirasini so‘zlayman... Oh, ko‘rsang edi bir kuyavni. Qanday chiroylit, qanday aqllik ekanini bilar eding, bekachim. Yulduzingiz nax bir-biringizga to‘g‘ri tushkan ekan, ikkingizning ham bir-biravingizdan kamligingiz yo‘q.

2-MASHQ. Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ingliz tilining sintaktik strukturasiga etibor qiling va o‘zbek tiliga sitaktik muqobililikni qayta ifodalashga etibor qarating.

His death sentence came in the summer of 1994. Looking back, Morrie knew something bad was coming long before that. He knew it the day he gave up dancing. He had always been a dancer, my old professor. The music didn't matter. Rock and roll, big band, the blues. He loved them all. He would close his eyes and with a blissful smile begin to move to his own sense of rhythm. It wasn't always pretty. But then, he didn't worry about a partner. Morrie danced by himself. He used to go to this church in Harvard Square every Wednesday night for something called "Dance Free." They had flashing lights and booming speakers and Morrie would wander in among the mostly student crowd, wearing a white T-shirt and black sweatpants and a towel around his neck, and whatever music was playing, that's the music to which he danced.

2. Tarjimonning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan topshiriq va mashqlar.

TOPSHIRIQ

Quyidagi tarjimon kompetensiyasini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malaka komponentlarini o'rGANIB chiqing va ular orasidan pragmatik kompetensiya koponentlarini tagiga chizib ajrating.

- gap muallifining muloqotdan ko'zlangan maqsadini aniqlash imkonini beruvchi ixtisoslik bo'yicha matnning lisoniy va tarkibiy xususiyatlarini bilish;
- asl matnni jo'natuvchi va tarjima matnini qabul qilib oluvchining bilim darajasi va tasavvurlarini qiyoslash qobiliyati;
- tili o'rganilayotgan mamlakatdagi ilmiy-texnik soha vakillari bilan muloqotning sosiolingvistik xususiyatlarini bilish;
- ilmiy va texnik ma'lumotlarni chet tili maxsus diskursida taqdim etish xususiyatlarini bilish;
- maxsus diskursning sosiolingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish qobiliyati;
- chet til va ona tili maxsus diskursining sosiolingvistik xususiyatini qiyoslash va tahlil qilish qobiliyati;
- tarjima matni asosida qabul qilib oluvchining maqsadi va qiziqishlarini bilish;
- strategiyani tanlash va ixtisoslik bo'yicha matn tarjimasini qabul qilib oluvchining ruhiy holati, maqsadi va qiziqishlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati;
- tarjima matni va uni qabul qilib oluvchining xarakterini inobatga olgan holda uning muallifi maqsadini yetkazib berish qobiliyati.

1-MASHQ. Quyidagi matnni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling. Ingliz tilidagi murojaat shakllarini o'zbek tiliga finksional ekvivalentlik usulidan foydalanib o'zbek tilidagi muqobilini toping.

"You know, Mitch, now that I'm dying, I've become much more interesting to people." You were always interesting. "Ho." Morrie smiled. "You're kind." No, I'm not, I thought. "Here's the thing," he said. "People see me as a bridge. I'm not as alive as I used to be, but I'm not yet dead. I'm sort of ... in-between." He coughed, then regained his smile. "I'm on the last great journey here—and people want me to tell them what to pack." The phone rang again. "Morrie, can you talk?" Connie asked. "I'm visiting with my old pal now," he announced. "Let them call back." I cannot tell you why he received me so warmly. I was hardly the promising student who had left him sixteen years earlier. Had it not been for "Nightline," Morrie might have died without ever seeing me again.

2-Mashq. Quyidagi dialogni o'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling. Murojaat shakllarini kalkalash, transliteratsiya, shakily ekvivalentli usullaridan foydalanib, o'zbek tilidagi muqobilini toping.

[Daniel Cleaver] "Bridge, c'mon, I know it's been awkward as ass, but there's no need to leave."

[Bridget Jones] "No, actually there is. I've been offered a job in television."

[DC] "Television?"

[BJ] "Mmm. And they want me to start straight away. So I've got to leave in about ooh 3 minutes. So ...am.. [leaving his room and coming to an open space office where other people are working]"

[DC] "Would you just hold it right there, Ms Jones. I am sorry to inform you that I think you'll find that by contract you are expected to give at least 6 weeks' notice."

[BJ] "Ah, yes, well... I thought with the company being in so much trouble and all, you wouldn't really miss the person who waltzes in a see-through top and funnies about with the press releases."

[DC] "Bridget!"

3. Tarjimonning diskursiv kompetensiyasini takomillashtiradigan topshiriq va mashlqar.

TOPSHIRIQ


Tarjimon kompetensiyasi komponentlari xisoblangan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar komponentlarini o'rghanib chiqing va ularni diskursiv va sotsiolingvistik kompetensiyalarga ajrating.

- tarjimon faoliyati uchun xos diskursning asosiy janrlarini bilish, ularni amalga oshirish jarayonida erishiladigan kommunikativ maqsadlar hamda ularni chet til va ona tilida ifodalash qoidalari va o'ziga xos xususiyatlarini bilish;
- shu maqsadlarni kasbiy tilda to'liq yetkazib berish uchun ushbu tavsiflarni ona tilidagi maxsus diskurs janrlari haqidagi ma'lumotlar yordamida qiyoslash;

- tili o'rganilayotgan mamlakatdagi ilmiy-texnik soha vakillari bilan muloqotning sosiolingvistik xususiyatlarini bilish;
- ilmiy va texnik ma'lumotlarni chet tili maxsus diskursida taqdim etish xususiyatlarini bilish;
- maxsus diskursning sosiolingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish qobiliyati;
- ilmiy-texnik sohada muloqot uchun qabul qilingan nutq madaniyati modelini buzmagan holda kasbiy tilda muallifning gapi va maqsadini yetkazib berish qobiliyati;
- tarjima matnini qabul qilib oluvchining ijtimoiy-madaniy bilimlarini inobatga olgan holda milliy-madaniy komponentga ega leksika – ekvivalentlarsiz va ekvivalentli leksika, xos so'zlar mohiyatini tushunish va o'quvchiga yetkazib berish qobiliyati.

- muallifning fikri va muloqot vaziyatini inobatga olgan holda ona tiliga tarjima qilish uchun maxsus diskursning tegishli janrini tanlay bilish;
- tarjima matni muallifi fikrini ifodalashda mantiqiy ketma-ketlikni yaratish qobiliyati;

Diskursiv kompetensiya	Sotsiolingvistik kompetensiya



1-MASHQ. Quyidagi matnni o‘qing. Berilgan matnning uslubini, janriy xususiyatlari va qisqacha mazmunini aniqlang.

Saroy tinch uyquda, tun yarim. Hasanali hujraning uzun burama qulufini ochib ichkariga sham’ yoqdi va bekning to’shagini yozib uning kirib yotishini kutib turdi. Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigini ochilg‘anidan, sham’ yoqilib, o‘rin yozilg‘anidan go‘yo xabarsiz kabi ustung‘a suyalg‘ancha qotib turar yedi.

— O‘rningizni yozdim, bek.

Otabek bu so‘z bilan hujraga kirdi va borib to’shagi yonig‘a o‘lturdi. Hasanali bekning yeshinib yotishini kutib turar, chunki uni yotquzib yoqilg‘an sham’ni o‘zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi. Biroq Otabek to’shagi yonig‘a o‘lturdida, yana o‘ylab qoldi... Otabek bir necha kunlardan beri Hasanalining ko‘ziga boshqacha ko‘rinar edi.

2-MASHQ. Quyidagi matnni o‘qing. Berilgan matnning uslubini, janriy xususiyatlariga etibor qaratgan holda o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Lady Lucas was a very good kind of woman, not too clever to be a valuable neighbour to Mrs. Bennet. They had several children. The eldest of them, a sensible, intelligent young woman, about twenty-seven, was Elizabeth’s intimate friend. That the Miss Lucases and the Miss Bennets should meet to talk over a ball was absolutely necessary; and the morning after the assembly brought the former to Longbourn to hear and to communicate. ‘YOU began the evening well, Charlotte,’ said Mrs. Bennet with civil self-command to Miss Lucas. ‘YOU were Mr. Bingley’s first choice.’ ‘Yes; but he seemed to like his second better.’ ‘Oh! you mean Jane, I suppose, because he danced with her twice. To be sure that DID seem as if he admired her— indeed I rather

believe he DID—I heard something about it—but I hardly know what—something about Mr. Robinson.'

V. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Tarjimon	Bir tilda yaratilga so’z, gap, matn va hokozolarni boshqa tilga tushunarli qilib olib o’tuvchi shaxs, vositachi	A person, a mediator, who transfers words, sentences, texts to another language in an accessible way.
Tarjima	Biror axborotni asliyat va tarjima tillarining lingvistik va ekstralolingvistik xususiyatlarini hisobga olib, boshqa ifodalash jarayoni.	Another process of expression, taking into account the linguistic and extralinguistic features of the languages of origin and translation of information.
Asliyat matn	tarjima qilinishi kerak bo’lgan matn	text that needs to be translated
Tarjima matn	Boshqa tilga tarjima qilingan matn	text needs to be translated into another language
Tarjima uslubi	Asliyat matnning uslub jihatidan turiga ko’ra tanlanadi va tarjimon yondashuvini belgilab beradi	The original is selected according to the type of text in terms of style and determines the approach of the translator
Tarjima usuli	Asliyat matnidagi kichik leksik birlklarni tarjima qilish uchun qo’llanadi	Applied for the translation of small lexical units in the text of the original
Tarjima strategiyasi	Tarjima uslub va usulni tanlashni o’z ichiga oladi	Translation involves the choice of style and method
Kommunikativ kompetentsiya	individning umumiy kompetentsiyasi unsurlari bilan o’zaro bog’liq bo’lgan va individ uchun nutq faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetentsiyalar kompleksi sifatida	it can be defined as a complex of linguistic, sociolinguistic and pragmatic competencies that are interconnected with the elements of the general competence of an individual and allow the successful implementation of speech activities for an individual

	belgilanishi mumkin	
So'z o'zlashtirish	tarjima jarayonida bir so'zni bir tildan boshqa tilga to'g'ridan-to'g'ri olib o'tish	direct transfer of a word from one language to another in the process of translation
Kalkalash	xorijiy til so'zi yoki iborasi boshqa tilga tarjima qilinadi va shu til tarkibiga kirib ketadi. Asliyat tilidagi leksik birlikning o'ziga xos bo'lgan belgilaridan foydalanib tarjima tilida ekvivalent so'z yaratish uchun so'zma-so'z tarjima qilinadi.	the word or phrase of a foreign language is translated into another language and goes into the composition of the same language. It is translated literally to create an equivalent word in a translation language using the characteristic signs of the lexical unit in the original language.
Gaplarni birma-bir tarjima qilish	so'zlar, gaplar so'zma-so'z tarjima qilinadi, grammatik struktura tarjima tiliga moslashtiriladi	words, sentences are translated literally, the grammatical structure is adapted to the language of translation
Transpozitsiya	so'z turkumining o'zgarishi, ya'ni fe'l otga, ot predlogga o'zgarishi	word group change, i.e. verb change, noun to preposition change
Modulyatsiya	tushunish nuqtai nazaridan leksik birlikning o'zgarishi	change of the lexical unit from the point of view of understanding
Ekvivalentlik	bunda xuddi shunday vaziyat uchun butunlay boshqa muqobil ibora ishlatiladi, ya'ni maqollar yoki idiomatik ifoda vositalari bularga misol bo'la oladi.	this uses a completely different alternative phrase for a similar situation, that is, Proverbs or idiomatic means of expression are examples of this.
Madaniy ekvivalentlik	tarjimon asliyat tilidagi madaniy so'zni tarjima tilidagi madaniy so'z bilan almashtiradi	the translator replaces the cultural word in the original language with the cultural word in the translation language
Tasviriy ekvivalentlik	leksik birlikni bildiruvchi so'zning ma'nosi bir necha so'zlarda tushuntirilshi	the meaning of a word denoting a lexical unit is explained in a few words

Funktional ekvivalentlik	tarjima tili leksikasida so'z asliyat tili leksikasidagi bir xil vazifani bajaruvchi matn uslubiga mos keladigan so'z bilan almashtirilishi	in the lexicon of the translation language, the word is replaced by a word corresponding to the style of the text, which performs the same function in the lexicon of the original language
Moslashfirish	Bu usulda, odatda, biror termin maxsus auditoriya yoki tarjimonning maxsus maqsadi uchun ko'proq mos keladigan matn yaratish uchun kerak bo'ladigan o'zgarishlar amalga oshiriladi.	In this method, changes are usually made that a term needs to create a text that is more suitable for the specific purpose of a specific audience or translator.
Kompensatsiya	Asliyat matnidagi ma'lumotning biror leksik birligi yoki stilistik ta'siri tarjima matnida aynan o'z joyida emas, balki matnning yana boshqa bir joyida qayta yaratiladi	One lexical unit or stylistic effect of information in the text of the original is recreated in the text of the translation not exactly in its place, but in another place in the text
Kengaytirish	tarjima tilida sintaktik va leksik bo'shliqlarni yo'qotish uchun ko'proq ma'noga ega tushunchalardan foydalanish	using concepts with more meaning to eliminate syntactic and lexical spaces in the translation language
Ma'noni ochib berish	Asliyatdagi leksik birlik tarjima matnida to'liqroq sharh yoki aniqlashtiruvchi ma'noli so'z birikmasi bilan almashtiriladi	The lexical unit in Origin is replaced in the translation text by a more complete interpretation or a word combination with a clarifying meaning
Kuchaytirish	tarjima tilida sintaktik va leksik bo'shliqlarni yo'qotish uchun ko'proq ma'noga ega tushunchalardan foydalanishdir	is the use of concepts with more meaning to eliminate syntactic and lexical spaces in the language of translation
Transliteratsiya	asliyat tilidagi so'z uning grafik shakliga ko'ra	the word in the original language is recreated in the translation language according to its graphic form

	tarjima tilida qayta yaratiladi	
Funktional ekvivalentlik	tarjima tili leksikasida so'z asliyat tili leksikasidagi bir xil vazifani bajaruvchi matn uslubiga mos keladigan so'z bilan almashtiriladi	the word is replaced by a word corresponding to the style of the text, which performs the same function in the lexicon of the original language in the lexicon of the translation language
Antonomik (teskari) tarjima	asliyatdagi tasdiq shaklidagi fikr tarjima tilida inkor shaklda yoki aksincha berilishini ifodalaydi	an opinion in the form of confirmation in the original expresses the fact that in the language of translation the negation is given in form or vice versa
mualliflashtirilgan tarjima	original asar yoki matn muallifning qisman ishtiropi, tahriri asosida amalga oshirilgan tarjima	the original work or text is a translation made on the basis of the author's partial participation
Bilvosita tarjima	Bunda asliyatdan qilingan tarjimadan amalga oshirilgan tarjima yoki uchinchi tildan amalga oshirilgan tarjima nazarda tutiladi.	This refers to the translation made from the original or the translation made from the third language.
Diktant-tarjima	chet til darslarida asliyatdagi matn sekinlashtirilgan tarzda o'qituvchi tomonidan talabalarga <i>og'zaki</i> o'qib berilishi bilan <i>yozma</i> tarjima qilishga asoslangan mashq. O'qib berilgan matnni yozuv mashinkasida tarjima qilib yozish yoki kompyutorga kiritish tarjima amaliyotida uchraydi.	in foreign language lessons, the text of the original is an exercise based on written translation by the teacher with oral reading to students in a slowed manner. Read text on a typewriter writing in translation or inserting into a computer occurs in translation practice.
Fonematik tarjima	matnning fonematik xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratilgan tajima.	translation focused to the phonemic properties of the text
Frazeologik tarjima	asliyatdagi birikmani tarjima tilida qam frazeologik birlik orqali	the expression of the compound in origin in the translation language through the phraseological unit qam is

	ifodalash, asliyatdagi frazeologizmlar tarjimasiga asosiy urg'u berilgan tarjima. Frazeologizmlar tarjimasi asosan quyidagi usullar bilan amalga ishiriladi: 1) mos ekvivalent (to'la yoki qisman) bilan o'girish; 2) muqobil variant bilan berish; 3) so'zma-so'z tarjima qilish; 4) tarjima tilida tushuntirish yoki izohlab berish.	the translation with the main emphasis on the translation of phraseologisms in the original. Translation of phraseologisms is mainly processed by the following methods: 1) conversion with a suitable equivalent (full or partial); 2) giving with an alternative option; 3) literal translation; 4) explanation or interpretation in the translation language.
Idiomatik tarjima.	Tarjima tili imkoniyatlaridan kelib chiqib asliyatdagi matnni tarjima qilish strategiyalaridan biri. Muayyan ijtimoiy-madaniy jahada tilni amalda qo'llash va me'yorlarga tayanish bilan idiomatik tarjimadan foydalanish tarjima jarayonida amalga oshiriladi. Bu esa o'z o'rnila tarjima o'quvchilar ming qiziqish va ehtiyojlarini ham inobatga olinadi.	One of the strategies for translating the original text based on the capabilities of the target language. Specific socio-cultural In the translation process, the use of idiomatic translation, relying on the norms and practical application of the language at the front. This takes into account the interests and needs of our readers.
Informatsion tarjima	asliyatdagi matnning faqat adresatgagina mo'ljallangan qismini o'z ichiga olgan tarjima.	a translation containing the part of the original text intended only for the addressee.

IV. KEYSLAR BANKI

VI. KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. “Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi

1-keys. Tarjimonning umumiyligi kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladigan qanday janr va uslubdagi matnlarni tarjima qilish ko‘proq samarali bo’lishini asoslاب bering.

2-keys. Tarjimonning kasbiy kompetensiyasining asosiy mohiyati va ularning kategoriylarini tavsiflab bering. Bo’lajak tarjimonning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun qanday bilim, ko’nikma va malaka rivojlanishi kerakligini tavsiflab bering.

3-keys. Badiiy tarjimada qo‘llanadigan asosiy tarjima uslub va usullarining tasnifini tushuntirib bering.

4-keys. Rasmiy uslubdagi matnlarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat va ushu uslubdagi matnlar tarjimasida qo‘llanadigan tarjima uslub va usullarni klassifikatsiya qiling.

5-keys. “FSMU” texnologiyasidan foydalanib, tarjimonning diskursiv kompetensiyasini takomillashtirish yo’llarini tushuntirib bering.

• F	- fikringizni bayon eting
• S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
• M	- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol keltiring
• U	- fikringizni umumlashtiring

Nazorat savollar

1. Quyidagi fikrlar qaysi olimga tegishli? “Tarjima - bu qayta yozish”. Bunda talabalar asl nusxani o‘qiydi, tahlil qiladi, tarjima tiliga o‘tkazadi va matnni qayta tuzadi.
2. Tarjima jarayonida qaysi tamoyillar bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi
3. Qaysi olim tor mutaxassislik doirasida matnlarni tarjima qilish tarjimaga o‘rgatishning eng keng tarqalgan usuli, deb hisoblaydi?
4. Qaysi mashq turlari tarjimaga o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi?
5. Qaysi metod orqali shakl va mazmun o‘rtasidagi bir xil ma’noga egalik mavjud emasligi ko‘rsatib beriladi, ya’ni bir xil mazmun turlicha ifodalab beriladi.
6. Vils Volfram texnikasi bu.....?
7. Quyidagi kasbiy faoliyat turlaridan qaysi biri tayyor material bilan ishlash jarayoniga aloqaodr?
8. Boshqalar nima deyayotganiga to‘liq e’tibor berish, aytilgan fikrlarni tushunish uchun vaqt ajratish, kerak bo‘lganda savollar berish va keraksiz paytda gapni bo‘lmashlik bu tarjimonning?
9. Og‘zaki ifoda bu....?
- 10.Og‘zaki tushunish bu....?
- 11.Yozma tushunish bu...?
- 12.Nutqni anglash bu...?
- 13.Yozma ifodalash bu...?
- 14.Nutqning aniqligi bu...?
- 15.Eslab qolish bu...?
- 16.Diqqat-e’tiborni yo’naltirish bu...?
- 17.Yaqin ko‘rish bu...?
- 18.... ma’lumotni bir og‘zaki tildan boshqasiga - yoki imo-ishora tili tarjimonlari misolida og‘zaki til va imo-ishora tili o‘rtasida o‘tkazadi.
- 19.Sinxron tarjimonlar qaysi tarjimon turiga kiradi?
- 20.Qaysi tarjimonlar ma’ruzachi yoki ishora qilayotgan shaxs to’xtab, tarjimaga ruxsat bergenidan keyin uning xabarini boshqa tilga yetkazadi?
- 21.Qaysi tarjimonlar tarjima qilingan hujjatni yozma shaklda emas, balki darhol tushunish uchun og‘zaki tarjima qiladilar?
- 22.Qaysi turdagи tarjimonlar yakkama-yakka yoki guruhlarda til tarjimasini ta’minalash uchun turli jamoat sharoitlarida ishlaydi?
- 23.Qaysi turdagи tarjimonlar bemorning roziligi haqidagi hujjatlarni, bemorlarning yozuvlarini, farmatsevtika va axborot broshyuralarini, normativ ma’lumotlarni va tadqiqot materiallarini bir tildan boshqa tilga tarjima qilishlari mumkin?
- 24.Qaysi turdagи tarjimonlar boshqa davlatdan kelgan mehmonlarda mamlakatning diqqatga sazovor joylarini tanishtirish faoliyati bilan shug’ullanadi?
- 25.Qaysi turdagи tarjimonlar matn va grafiklarni asliyat tilidan tarjima tiliga moslashtirish bo‘yicha keng qamrovli jarayon bilan shug’ullanadi?

- 26.Qaysi kompetensiya matnda adresant va adresat o’rtasida bevosita muloqot imkonini yaratadi?
- 27.Uch tilli tarjimonlar nimalar qilishi talab qilinadi?
- 28.Tarjimonlik kompetensiyasi bu...?
- 29.Qaysi kompetensiya qiyosiy jihatdan bilish, ya’ni asliyat tili va tarjima qilinayotgan tilning aloqalarini bilish, ularning til tizimlari, til me’yorlari, nutq (uzual) me’yorlaridagi o‘xshashlik va farqlar o’z ichiga oladi?
- 30.Qaysi kompetensiya tarjima matni mazmunidan asliyat matnini jo‘natuvchi haqidagi ma’lumotni ola bilish qobiliyatini o’z ichiga oladi?
- 31.Qaysi kompetensiya ilmiy va texnik ma’lumotlarni chet tili maxsus diskursida taqdim etish xususiyatlarini bilishni o’z ichiga oladi?
- 32.Kompetensiya nechta kategoriyyaga bo’linadi?
- 33.Diskursiv kompetensiya qaysi kategoriyyaga kiradi ?
- 34.Qaysi kompetensiya chet til va kasbiy tilda terminlar (iboralar)ni hosil qilish usullarini bilishni o’z ichiga oladi?
- 35.Qaysi kompetensiya asl matnni jo‘natuvchi va tarjima matnini qabul qilib oluvchining bilim darajasi va tasavvurlarini qiyoslash qobiliyatini o’z ichiga oladi?
- 36.Qaysi kompetensiya o‘z bilimlaridagi bo‘shliqni mustaqil ravishda to‘ldirish, xususan, chog‘ishtirish qobiliyatini o’z ichiga oladi?
- 37.Qaysi kompetensiya tarjima matni asosida qabul qilib oluvchining maqsadi va qiziqishlarini bilishni o’z ichiga oladi?
- 38.Qaysi kompetensiya tarjima matnni qabul qilib oluvchining ijtimoiy-madaniy bilimlarini inobatga olgan holda milliy-madaniy komponentga ega leksika – ekvivalentsiz va ekvivalentli leksika, xos so‘zlar mohiyatini tushunish va o‘quvchiga yetkazib berish qobiliyatini o’z ichiga oladi?
- 39.Qaysi kompetensiya tarjimon faoliyati uchun xos diskursning asosiy janrlarini bilish, ularni amalga oshirish jarayonida erishiladigan kommunikativ maqsadlar hamda ularni chet til va ona tilida ifodalash qoidalari va o‘ziga xos xususiyatlarini bilishni o’z ichiga oladi?
- 40.Qaysi kompetensiya tarjima matnni yaratish jarayonida muloqotning ilmiy-texnikaviy sohasida qabul qilingan nutq va nutqdan tashqari hulq me’yorlariga amal qilishni o’z ichiga oladi?
- 41.aysi kompetensiya tili o‘rganilayotgan mamlakatning fan va texnika sohasidagi institutlar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish va maxsus diskursni yaratish, tarjima qilishda ushbu bilimlarni qiyoslay olishni o’z ichiga oladi?
- 42.aysi kompetensiya tili o‘rganilayotgan mamlakatning kasbiy sohaga doir muloqot qoidalari, an’ana va me’yorlarini bilish va maxsus diskurs yaratish va tarjima qilishda ushbu bilimlarni qiyoslashni o’z ichiga oladi?
- 43.Qaysi kompetensiya aniqlovchi omillar asosida tarjima jarayonlarining ketma-ketligini ishlab chiqish qobiliyatini o’z ichiga oladi?

- 44.Qaysi kompetensiya mamlakatdagi va tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi tizimlarni, til va nutq me’yorlarini farqlash usullarini bilish hamda ulardan tarjima jarayonida samarali foydalanishni o’z ichiga oladi?
- 45.Qaysi kompetensiya kasbiy muloqot sohasi vakillari sifatida asliyat til jo‘natuvchisi bilan tarjima tili qabul qiluvchisining pragmatik imkoniyati orasidagi farqlarni bartaraf qilish usullarini bilish hamda tarjima matnida muallif fikri va istagini ifodalashda ulardan foydalanishni bilishni o’z ichiga oladi?
- 46.Qaysi kompetensiya chet til va ona tilidagi maxsus diskursning janr turlari orasidagi farqlarni bartaraf qilish usullarini bilish va ona tilidagi maxsus diskursda axborot taqdim etish me’yorlari asosida tarjima tilida ulardan foydalanishni bilishni o’z ichiga oladi?
- 47.Qaysi kompetensiya ilmiy-texnik matnlar tarjimonlarini birlashtiruvchi tashkilotlar, kasaba uyushmalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishni o’z ichiga oladi?
- 48.Qaysi kompetensiya ixtisoslik bo‘yicha matnlarni tarjima qilish borasida ish qidirishda yordam berilishi lozim bo‘lgan tashkilotlar, firmalar, korxonalar, Internet saytlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishni o’z ichiga oladi?
- 49.Qaysi kompetensiya tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi fan va texnikaning yaratilish va rivojlanish tarixini bilishni o’z ichiga oladi?
- 50.Qaysi kompetensiya ixtisoslik bo‘yicha matn yaratish va tarjima qilishda bilimlarni qiyoslash qobiliyatini o’z ichiga oladi?
- 51.Tarjimonning asosiy nechta kasbiy kompetensiyasi mavjud?
- 52.Qaysi kometensiya kasbiy kompetensiya tarkibiga kiradi?
- 53.Qaysi kompetensiya tarkibiga transmadaniy, sotsiolingvistik bilim va kommunikativ mahorat ham kiradi va ilg‘or tarjima kompetensiyasining asosini tashkil etuvchi barcha umumiy yoki tilga xos lingvistik, sotsiolingvistik, madaniy va transmadaniy bilim va ko‘nikmalarni o’z ichiga oladi?
- 54.Tarjima kompetensiyasi shakllantirish uchun talabalar nimalarni bilishi kerak?
- 55.Qaysi kompetensiya hozirgi va kelajakdagи tarjima texnologiyalarini tarjima jarayonida qo‘llash va ulardan foydalanish bo‘yicha maslahat berish uchun zarur bo‘lgan barcha bilim va ko‘nikmalar. Shuningdek, mazkur kompetensiya mashina tarjimasi texnologiyalari bo‘yicha asosiy bilimlarga ega bo‘lish va ularni ehtiyojlarga qarab qo‘llash qobiliyatini o’z ichiga oladi?
- 56.Qaysi kompetensiya tarjima va umumiy til xizmatlarini kasbiy sharoitda amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ko‘nikmalar, jumladan, mijozlar, buyurtmachilar va foydalanuvchilarni anglashdan tortib, muzokaralar, loyiha boshqaruvi va sifatni ta’minlashgacha o‘z ichiga oladi?
- 57.“Tarjima amallari integratsiyasi” metodikasi talabalarning qaysi kompetensiyalarini takomillashtirishga yordam beradi?
- 58.Tarjimaning morfologik muammolarni bartaraf etishda talabalarga nimalarni o’rgatish kerak?

- 59.Qaysi interfaol metoddan foydalanish talabalarning til kompetensiyasi, shuningdek, nasriy va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga yordam beradi?
- 60.Qaysi tarjimonlar og'zaki yoki ishora qilayotgan paytda bir vaqtning o'zida og'zaki yoki imo-ishora tilidan boshqa tilga tarjima qiladi?
- 61.Qaysi metod talabalarni faollashtirishga va mustaqil fikrlashga undaydi hamda ta'lif jarayonining markazida bo'lgan talaba va o'qituvchini faol ishtirok etishga chorlaydi?
- 62.Qaysi interfaol metod orqali talabalar uchun notanish bo'lgan ayrim so'zlarning tarjimasi, ularning ma'nolari yuzasidan ma'lumotga ega bo'la oladi?
- 63.Qaysi interfaol metodi asliyat matnining bir necha xil tarjima variantlarini solishtirib tahlil qilish orqali tarjimani o'rgatishga bag'ishlanadi?
- 64.Qaysi interfaol metodi muayyan mavzu (muammo) yuzasidan bir necha, ya'ni har bir urinishda bittadan fikrlash operatsiyasining bajarilishini ta'minlovchi harakatni ifodalaydi?
- 65.Qaysi mashq turlari u yoki bu turdag'i tarjimani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan mashqlar?
- 66.Qaysi mashq turida talabalarga ovoz chiqarib sanash paytida matnni ko'zlar bilan o'qish taklif etiladi, shundan so'ng matn mazmunini qayta aytib berish kerak bo'ladi?
- 67.Qaysi mashq turida talabalarga sinonimik variantini topishi kerak bo'lgan so'zlar va iboralar ro'yxati taklif etiladi?
- 68.Qaysi mashq turida talabalar navbatma-navbat, har bir keyingi so'zdan boshlab, gapni qayta yaratadilar?
- 69.Qaysi mashq turi turli usullardan foydalangan holda chet tilida oylar, hafta kunlari, tegishli nomlarni diktant ostida belgilashni anglatadi?
- 70.Tarjimonning kasbiy kompetensiya bu...?
- 71.Bilim bu...?
- 72.Ko'nikma bu...?
- 73.Qaysi tarjimonlar sud majlislarida va sud jarayonlarida ular ingliz tilini bilish darajasi cheklangan odamlarga yordam berishadi. Shunga ko'ra, ular yuridik terminologiyani tushunishlari kerak?
- 74.Aloqa va media bo'yicha tarjimon qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak?
- 75.Tarjimonning kasbiy malakalaridan biri bo'lgan diqqat-e'tiborni yo'naltirish bu...?
- 76.Tarjimonning kasbiy faoliyatlaridan biri bo'lgan obyektlar, harakatlar va hodisalarini aniqlash bu...?
- 77.Quyidagilardan qaysilari tarjimonning kasbiy burch va vazifalariga kiradi?
- 78.Qaysi tarjima turi ketma-ket tarjima, sinxron tarjima, yozma tarjima (maxsus vositalar yordamida), badiiy tarjima, audiovizual asarlarni tarjima qilish, maxsus kognitiv ehtiyojlari bo'lgan auditoriya uchun audiovizual tarjima hisoblanadi?
- 79.Qaysi tarjima turi og'zaki hamrohlik tarjima, rasmiy ish hujjalaring yozma tarjimasi hisoblanadi?

- 80.Tarjimalarni o‘quvchilarning aqliy salohiyat va darajalariga moslashtirish, zarur hollarda ta’lim jamoasi a’zolari bilan hamkorlik qilish bu tarjimonning..... kiradi?
- 81.Tarjimonning maqsadi bu...?
- 82.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi o‘z bilimlaridagi bo‘shliqni mustaqil ravishda to‘ldirish, xususan, chog‘ishtirish qobiliyati o‘z ichiga oladi?
- 83.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi tarjima matnini qabul qilib oluvchilar uchun muallif maqsadining adekvat ravishda tushunarli bo‘lishi uchun matnni soddalashtirish darajasini aniqlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi?
- 84.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi ilmiy-texnik soha vakillari bilan muloqotning sosiolingvistik xususiyatlarini bilishni o‘z ichiga oladi?
- 85.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi chet til va ona tili maxsus diskursining sosiolingvistik xususiyatini qiyoslash va tahlil qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi?
- 86.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi muallifning fikri va muloqot vaziyatini inobatga olgan holda ona tiliga tarjima qilish uchun maxsus diskursning tegishli janrini tanlay bilishni o‘z ichiga oladi?
- 87.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi tili o‘rganilayotgan mamlakatning fan va texnika sohasidagi institutlar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish va maxsus diskursni yaratish, tarjima qilishda ushbu bilimlarni qiyoslay olishni o‘z ichiga oladi?
- 88.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi mamlakatdagi va tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi tizimlarni, til va nutq me’yorlarini farqlash usullarini bilish hamda ulardan tarjima jarayonida samarali foydalanishni o‘z ichiga oladi?
- 89.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi dunyoning professional xaritasi. asl matnni jo‘natuvchi va tarjima matnini qabul qilib oluvchi ijtimoiy-ma’naviy potensiali orasidagi farqlarni bataraf etish usullarini bilish hamda tarjima matnida ulardan foydalanishni bilishni o‘z ichiga oladi?
- 90.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi mehnat bozorida o‘z xizmatlarini taklif qilishni bilish o‘z ichiga oladi?
- 91.Tarjimonning qaysi kompetensiyasi fan va texnika sohasidagi akademik bilimlarga ega bo‘lish va ulardan ixtisoslik bo‘yicha matnlarni tarjima qilish jarayonida foydalanishni bilishni o‘z ichiga oladi?
- 92.Qaysi kompetensiya o‘z ichiga strategik, metodologik va tematik kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi?
- 93.Qaysi kompetensiya umumiy ko‘nikmalarni o‘z ichiga olib, bo’lajak tarjimonlarning moslashuvchanligi va ishga layoqatlilagini oshiradi?
- 94.“Munozara vaqtı (Buzz session)” ...?
- 95.Qaysi mashq turlari transformatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan?
- 96.Qaysi mashq turlari transformatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan?
- 97.Qaysi interfaol metod talabalarning mustaqil fikrlash, o‘z ustida ishslash ko‘nikmalari, shuningdek, lingvistik, professional hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi?

98. Quyidagilardan qaysilari tarjima uslublariga kiradi?

99. Pedagogikada yondashuv ...?

100. Tarjima jarayonining barcha bosqichlarida mijoz bilan muloqot qilish (muddatlar, tariflar/ko'rsatkichlar, ish sharoitlari, ma'lumotga kirish, shartnomalar, huquqlar, majburiyatlar, til xizmati spetsifikatsiyalari, tender shartlari, fikr-mulohazalar va h.k. bo'yicha muzokaralar olib borish) bu talabalarni qaysi kompetensiyasini takomillashtirish uchun yordam beradi?

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tuxtasinov I, Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimani o'qitishning lingvistik va metodik asoslari. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2023. – 174 bet.
2. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvistilik va leingvokulturologik xususiyatlari. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
3. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. –Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
4. G'ofurov I, Mo'minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi. –T.: Tafakkur-Bo'ston, 2012. – 216 b.
5. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 132 b.
6. Yuliasri I, Allen P. Foreignizing and domesticating Harry: An analysis of the Indonesian translation of Harry Potter and the Sorcerer's Stone. T & I Review, Seoul, Korea: EWHA Research Institute for Translation Studies, 2014.
7. Nida E. Towards a science of translation, with special reference to principles and procedures involved in Bible translating. – Leiden: Brill, 1964. – pp. 241-247.
8. Mona Baker. In other words: a course book on translation/Mona Baker.-(2nd ed). 331 p.

III. Internet saytlar

<http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

<http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

<http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

<http://ziyonet.uz> – Ta'lim portalı ZiyoNET

<http://www.translatorsbase.com> - Tarjimon saytlar

<http://www.freetranslation.com> - Tarjimon saytlar

<http://www.tranexp.com> - Tarjimon saytlar

<http://www.systransoft.com> - Tarjimon saytlar

<http://www.systranet.com> - Tarjimon saytlar

